

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

ҚУРИЛИШНИ БОШҚАРИШ ФАКУЛЬТЕТИ

«КУЧМАС МУЛК ЭКСПЕРТИЗАСИ ВА УНИ БОШҚАРИШ»
ТАЪЛИМ
ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИ УЧУН

Танлов савдолари ва
уларни ташкил этиш

МАЪРУЗАЛАР МАТНИ

ТОШКЕНТ - 2012

Маърузалар матни «Кўчмас мулк экспертизаси ва уни бошқариш» таълим йўналишидаги талабалар учун тавсия қилинади.

Тузувчи: “Менежмент” кафедраси
Ассис. Бердиева Д.А.

Такризчилар:

И.Х.Давлетов- иқтисод фанлари доценти
М.С.Саидов – иқтисод фанлари доценти

Маърузалар матни “Менежмент” кафедрасининг 2012 йил “ ____ ” _____ даги № -сонли йиғилишида муҳокама қилинди ва маъқулланди.

Маърузалар матни институт илмий-услубий кенгашининг 2012 йил “ ____ ” _____ даги йиғилишида кўриб чиқилди ва чоп этишга рухсат этилди.

(Баённома № ____)

Kirish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilar ekanmiz, so'nggi yillarda qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida mamlakatimiz iqtisodiyotining har tomonlama yuksalib borayotgani va buning pirovardida Prezidentimiz tomonlaridan iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion yangiliklarni amaliyotga joriy etishga keng e'tibor qaratilganligiga guvoh bo'lamiz.

Mamlakatimizda tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, mamlakatimizda yaratilgan nihoyatda qulay investitsiya muhiti iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalar kiritish, ayniqsa xorijiy investitsiyalarni kiritishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat o'z samarasini bermoqda. Jumladan, so'nggi yillarda ishga tushirilgan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlar, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik siyosatining mahsuli ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Iqtisodchi sifatida, modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda modernizatsiya bu—ob'yektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash degan ma'noni anglatadi. Ammo, modernizatsiyalash jarayonlari ham, investitsiyalarni o'zlashtirish jarayonlari ham kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish, qurilish va montaj ishlarini amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

Har qanday ob'yektning qurilishini, har qanday murakkab texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlari va uskunolari montaj qilinishini inobatga oladigan bo'lsak, bu borada kapital qurilish sohasida amalga oshiriladigan islohotlar, tarmoq faoliyati bilan bog'liq qonuniy-huquqiy me'yorlarning mukammal shakllantirilganligi sohada erkin bozor munosabatlarini joriy etishga imkoniyat yaratadi.

Respublikamizda kapital qurilish tarmog'ida o'z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalardan biri kapital qurilish sohasida pudrat ishlarini va tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshiruvchi munosib nomzodlarni tanlash va

ular bilan bozor qonuniyatlariga asoslangan mexanizmni shakllantirish vazifasi turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida" 2003 yil 6 maydagi PF-3240-son Farmoni bajarilishiga qaratilgan hamda kapital qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridining yagona tizimini yaratish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mazkur qaror ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan qonunosti hujjatlari qurilish sohasida erkin raqobatga asoslangan shartnomaviy munosabatlarini amal qilishini ta'minlaydi.

Mazkur fan talabalarga kapital qurilish sohasidagi pudrat ishlariga tanlov savdolarini tashkil qilish, bino va inshootlar qurilishini hamda mavjud binolarni rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini tashkil etish hamda moliyalashtirish, qurilish jarayonini boshqarish, qurilishi tugallangan bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish kabi jarayonlarni nazariy o'zlashtirish imkonini beradi.

Ushbu o'quv qo'llanma 5580900 – "Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish" ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlari turkumiga kiruvchi "Qurilishda tanlov savdolari va qurilishni tashkil etish"(4.06.) fanidan o'quv dasturiga asosan tayyorlangan hamda u magistraturada "Qurilish iqtisodiyoti" va "Ko'chmas mulkni baholash" mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga O'zbekiston Respublikasida kapital qurilish sohasida tanlov savdolarini tashkil etish masalalarini o'rganishlariga yordam beradi.

O'quv qo'llanmadan qurilish sohasidagi barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur fandan o'quv qo'llanma birinchi marta tayyorlanayotgan bo'lib, u ayrim juziy kamchiliklardan holi emas. Qo'llanma yuzasidan bildiriladigan har qanday taklif va mulohazalar uchun mualliflar o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar va ular kelgusida qo'llanmani takomillashtirishga xizmat qiladi deb hisoblaydilar.

I BOB. BINO VA INSHOOTLAR QURILISHINI HAMDA MAVJUD BINOLARNI REKONSTRUKTSIYA QILISH VA KAPITAL TA'MIRLASH ISHLARINI TASHKIL ETISH

1.1. Qurilishi rejalashtirilayotgan binolarni davlat investitsiya dasturiga kiritish tartibi

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida markazlashgan mablag'lar hisobidan yangi bino va inshootlarni qurish hamda mavjudlarini kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlarini davlat investitsiya dasturiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan tasdiqlangan (4-ilova) «O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksidir.

Dastur respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

Davlat investitsiya dasturi loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta'minlash uchun ob'yektni foydalanishga topshirishgacha bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olib, har yili Dasturning asosiy ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan va aniq ro'yxati yangilangan holda uch yillik davrga shakllantiriladi.

Dasturda loyihaning baholash qiymati, tugallanmagan qurilish va qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo'yicha joriy narhlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan

manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Dasturni ishlab chiqishda yirik va o'ta muhim loyihalar alohida, katta bo'lmagan bir tipdagi loyihalar yaxlit kiritilishi mumkin (masalan: maktablar, kollejlarning qurilishi va boshqalar).

Dastur yig'ma jadvallari bilan tahliliy qismdan, aniq dasturdan va ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtiradi.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Dasturning barcha hisob-kitoblari tadrijiy tarzda, respublikani uch yillik davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va investitsiya loyihalarining aniq dasturi asosida ishlab chiqiladi.

Dasturning aniq ro'yxatiga markazlashtirilgan manbalar, Hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari kiritiladi.

Aniq ro'yxat:

iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani va mamlakat mudofaa qudratini tarkibiy o'zgartirishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyoti ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalar limitlaridan;

xorijiy investitsiyalar va Hukumat kafolati ostidagi kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Ob'yektlarning prognozashtirilayotgan hajmlari Dasturga yiriklashtirilgan, buyurtmachilar va ob'yektlar bo'yicha taqsimlanmagan holda kiritiladi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha quyidagilar loyihalarni amalga oshirishning birinchi yilida ularni aniq dasturga kiritishning majburiy shartlari hisoblanadi;

belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning (investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlari, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari) mavjud bo'lishi; moliyalashtirish manbalarining va kreditlarning shartnomada

belgilangan muddatda qaytarilishining tasdiqlanishi.

Aniq dasturni shakllantirish jarayoni har bir loyiha bo'yicha mufassal axborot tayyorlash, loyihani ustuvorligi bo'yicha tanlab olish va ro'yxatni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Har bir loyiha (loyihalar guruhi) bo'yicha axborot buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi hamda unda quyidagilar bo'ladi:

belgilangan shakldagi loyiha pasporti;

loyihani amalga oshirish reja-jadvali;

aniq dasturni shakllantirish sanasida loyihani amalga oshirishning holati to'g'risidagi mufassal axborot.

Loyihaning pasporti:

texnik tavsifnomani;

atrof muhitga ta'sirni baholashni;

ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra samaradorlikni va amalga oshirish imkoniyatlarini baholashni, tashkiliy tadbirlarning ko'lamini;

binoga talab hajmi va xususiyatini;

yechimning muqobil variantlari mavjudligini, shu jumladan mavjud binolarni rekonstruktsiya qilish yo'li bilan;

asosiy materiallar va ishchi kuchi resurslarining mavjudligini;

investitsiya xarajatlari miqdorlarini o'z ichiga oladi.

Aniq loyiha uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligidan, uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra amalga oshirish imkoniyatlari va maqbulligidan, tarmoqni rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi:

birinchi bosqichda - loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi;

ikkinchi bosqichda - loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.

Quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustuvorligini belgilashning mezonlari hisoblanadi:

loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi;

moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;

tayyorlangan mutaxassislarning mavjudligi;

loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi;

ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari.

Har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda uch yillik davrda respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgartirishlar prognoziga muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

tarmoq (mintaqa)ning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari;

eksport salohiyatining prognoz o'sish sur'atlari;

tarmoqning umuman respublika bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirining o'zgarishi;

tarkibiy omillar;

ilgari qo'yilgan investitsiyalar samaradorligi;

asosiy fondlar ahvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi;

loyihaning ijtimoiy ahamiyati.

Ikki bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra Dasturga kiritiladigan ob'yektlarning aniq dasturi shakllantiriladi.

Aniq dasturi yig'ma ro'yxatiga vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlarning ustuvor investitsiya takliflari kiritiladi.

Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda vazirlik (buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin.

Qurilishning titul ro'yxati tasdiqlangan limitlar doirasida qurilishning butun davriga tuziladi va Investitsiya dasturi tasdiqlangandan keyin 2 oydan kechiktirilmasdan tanlov savdolari natijalariga ko'ra shakllantiriladi.

Qurilishning titul ro'yxati investor-vazirlik (buyurtmachi) tomonidan pudratchi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Qurilishning tasdiqlangan titul ro'yxatida kapital qo'yilmalar limitlari

umuman investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutiladi, bunda qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar xarid qilish, loyiha-qidiruv ishlari xarajatlari va boshqa xarajatlari (pudratchi va buyurtmachi xarajatlari alohida ko'rsatiladi) qurilish yillari bo'yicha taqsimlangan holda ajratib ko'rsatiladi.

Davlat investitsiya dasturi uch yil muddatga shakllantiriladi. Uch yillik Dasturni shakllantirish jarayoni bir yillik siklga ega bo'ladi hamda yangilangan Dasturni har yilning oxirigacha - jadvalda belgilangan muddatlarga qat'iy amal qilgan holda tayyorlanadi.

Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlashda buyurtmachi-ta'lim muassasasi va vazirlik quyidagi tartibga amal qilishlari kerak:

Dasturni amalga oshirishning birinchi yiliga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va moliyalashtirish bilan ta'minlangan (kelgusi yilga o'tuvchi va yangidan boshlanayotgan) qurilishlarning aniq ro'yxati tuziladi;

Dasturni amalga oshirishning ikkinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va birinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati va Dasturni amalga oshirishning birinchi yilida loyiha hujjatlari tayyorlangan va tasdiqlangan, birinchi yilda tanlov savdolariga tayyorlanadigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar kiritiladi;

Dasturni amalga oshirishning uchinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan amalga oshirish muddatlarini hisobga olgan holda qiymati belgilangan tartibda aniqlashtirilgan birinchi va ikkinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati, loyiha hujjatlari ikkinchi yilda tayyorlanadigan va tasdiqlanadigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar kiritiladi.

Davlat investitsiya Dasturini moliyalashtirish manbalari quyidagilar:

a) markazlashtirilgan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat byudjeti mablag'lari;

davlat byudjetidan tashqari fondlar mablag'lari;

Hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar;

Hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar;

b) markazlashtirilmagan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari;

tijorat banklarining, shu jumladan xorijiy tijorat banklarining kreditlari;

jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari; qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

Markazlashtirilgan investitsiyalar respublika xalq xo'jaligini tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni, amalga oshirish moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy muammolarni va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarni yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat:

respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;

aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga;

suv xo'jaligi qurilishiga;

aholi yashaydigan joylarning muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;

fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob'yektlari qurilishiga;

davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga;

umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini boshqarish va nazorat qilish **Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 251-son qarori asosida tasdiqlangan** "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularni amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Monitoring vazirliklar, idoralar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan - Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari bilan birgalikda, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda xorijiy investitsiyalar jalb etilgan korxonalar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan - Qoraqalpog'iston


Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

1.1-jadval. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish sxemasi

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Mas'ullar
1	2	3	4
1-bosqich	Iqtisodiyot vazirligi uch yillik davrga O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflarni tayyorlashga oid metodik ko'rsatmalarni tarmoq vazirliklari va idoralari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga (keyingi o'rinlarda buyurtmachilar deb ataladi) har yili yetkazadi	aprel	Iqtisodiyot vazirligi
2-bosqich	Vazirlik loyihalar bo'yicha dastlabki axborotni tayyorlaydi, ularni uch yillik davrda amalga oshirish uchun tanlab oladilar va takliflarni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadilar	may-iyun	Vazirlik va oliy ta'lim muassasalari
3-bosqich	Iqtisodiyot vazirligi takliflarni ko'rib chiqadi va o'rtacha muddatli davrda aniq tarmoqni rivojlantirish ustuvorliklariga muvofiq loyihalarni tanlab oladi	iyun-iyul	Iqtisodiyot vazirligining tarmoq bo'limlari
4-bosqich	Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi va vakolatli banklar bilan birgalikda Investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni uzil-kesil tanlab oladi	avgust-sentyabr	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, vakolatli banklar
5-bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Birlashgan hay'at tomonidan ko'rib chiqiladi va uning qaroriga ko'ra ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasining komplekslari bilan kelishish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamentiga taqdim etiladi	sentyabr	Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Birlashgan hay'at, Vazirlar Mahkamasining komplekslari
6-bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi Vazirlar Mahkamasi komplekslarining takliflari hisobga olingan holda tuzatish kiritiladi	sentyabr-oktyabr	Iqtisodiyot vazirligi
7-bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi	oktyabr	Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti
1	2	3	4
8-bosqich	Investitsiya dasturini amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan yangidan boshlanadigan ob'ektlar bo'yicha tanlov savdolari o'tkaziladi	oktyabr-noyabr	"Davarxitektqurilish" qo'mitasi, buyurtmachilar
9-bosqich	Tasdiqlangan Investitsiya dasturiga va o'tkazilgan tanlov savdolariga muvofiq belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi, qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlarining aniq ro'yxatlari tasdiqlanadi	dekabr	Buyurtmachilar, pudratchilar

Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari yangi binolar qurish, mavjudlarini kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish to'g'risidagi Davlat investitsiya dasturiga kiritilishi lozim bo'lgan loyihalar bo'yicha hujjatlarni

aynan 395-sonli qarorning 4-ilovasida keltirilgan Nizomda belgilangan tartibda tayyorlab tasarrufida bo'lgan vazirliklariga taqdim etadilar.



1.1-rasm. Investitsion loyihalarni shakllantirish tartibi.

Masalan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida vazirlik hamda vazirlik tarkibidagi o'rta maxsus kasb hunar ta'limi markazi tegishli ta'lim muassasalaridan yig'ilgan investitsion dasturga kiritilishi rejalashtirilayotgan hujjatlarni yagona talablar asosida ko'rib chiqadi hamda vazirlik tizimida davlat investitsion dasturiga kiritilishi lozim deb topilgan loyihalarni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etiladi.

Vazirlik tizimida ta'lim muassasalarida Investitsion dasturga bino va inshootlar qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalar yuqoridagi 1.1-rasmda keltirilgan tartibda kiritiladi:

1.2. Qurilishi rejalashtirilayotgan binoning dastlabki qiymatini

yiriklashtirilgan ko'rsatkich usulida hisoblash

Ta'lim muassasalarida yangi bino va inshootlarga bo'lgan ehtiyoj asosida kapital qurilish ishlarini tashkil etishga zaruriyat yuzaga keladi. Ehtiyojni to'la qondirish uchun qurilishi zarur bo'lgan binoning hajmini va qiymatini aniqlash ishlari maxsus loyihalashtirish tashkilotlari tomonidan loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash jarayoni uzoq davom etadi va katta hajmdagi moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli aksariyat hollarda binoning qurilishi aniq bo'lgunga qadar (vazirlik tomonidan tasdiqlanib davlat investitsion dasturiga tavsiya etilgunga qadar) ta'lim muassasalarida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Bunday hollarda ehtiyojni qoplash uchun zarur bo'ladigan bino qurilishiga sarflanadigan mablag' miqdorini "Binoning dastlabki qiymatini aniqlashning yiriklashtirilgan ko'rsatkich usuli"dan foydalanib aniqlash mumkin.

Binoning dastlabki qiymatini aniqlashning yiriklashtirilgan ko'rsatkich usuli ko'chmas mulkni baholash jarayonida keng qo'llanilayotgan va bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'chmas mulkning qiymatini optimal darajada belgilovchi hamda kam mablag' sarflanadigan usuli sifatida tan olingan. Bu usulda aniqlangan bino qiymatini loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash asosida hisoblangan qiymati bilan solishtirganda 10-15% ortiq bo'lmagan tafovut chiqishi mumkin.

Mazkur uslub sobiq ittifoq qurilish tizimida 1970 yillarda qo'llangan "To'la qayta tiklash qiymatini hisoblashning yiriklashtirilgan ko'rsatkichlarini aniqlash uslubi"¹ga asoslangan holda tuzilgan.

Binoning dastlabki qiymatini aniqlashning yiriklashtirilgan ko'rsatkich usulida bino qiymatini aniqlashda aynan qurilishi rejalashtirilayotgan binoga o'xshash bo'lgan, yaqin vaqtlarda qurib ishga tushirilgan (аналог) bino qiymati asos sifatida olinadi. Rejalashtirilayotgan binoning qiymatini hisoblashda asosiy ko'rsatkich qilib bir metr kub qurilish hajmiga sarflangan mablag' olinadi va u quyidagi formula bilan hisoblanadi:

¹ - Obshaya chast k sbornikam ukрупnennix pokazateley vosstanovitel'noy stoimosti zdaniy i sooruzeniy dlya pereotsenki osnovnix fondov /Gosstroy. - M.: Stroyizdat, 1970.

$$S = \frac{\sum S}{Q}$$

Bunda: S – bir metr kub qurilish hajmiga sarflangan mablag' miqdori;

$\sum S$ - qurilishga sarflangan umumiy mablag'lar;

Q – qurilishning umumiy hajmi.

Bunda analog qilib olingan binoning asosiy konstruktiv elementlari (poydevori, devorlari, poli, tomi) va muxandislik tizimlarining (suv, kanalizatsiya, isitish tizimi va boshqalar) qurilishi rejalashtirayotgan binoga muvofiqligi xatolik darajasini pasaytiradi.

Bu usulda qurilishi rejalashtirilayotgan bino qiymatini aniqlashda uning umumiy hajmini hisoblab topish muhim ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilishi talab etiladigan bino yoki inshootning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun biznes reja asos bo'ladi. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar aynan biznes rejada keltirilgan ishlab chiqarish hajmini tashkil etish uchun yetarli bo'lishini ta'minlashi lozim. Shu sababli bino hajmini hisoblashda undagi umumiy maydonga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqiladi. Bino umumiy maydonini tashkil etuvchi xonalar turlicha bo'lib ular turli maqsadlarga xizmat qilishi lozim. Shu sababli bino hajmini hisoblashda eng avvalo asosiy xonalar (elementlar)ga tayanish usulidan foydalaniladi. Demak binoning umumiy hajmi undagi elementlar (xonalar) yig'indisidan tashkil topadi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\sum Q = (J_1 \times n) + (J_2 \times n) + (J_3 \times n) + \dots + (J_m \times n) \times KR$$

Bunda: $\sum Q$ - qurilishi rejalashtirilayotgan binoning umumiy hajmi;

J_1, J_2, J_3 va J_m lar – bino umumiy hajmidagi asosiy elementlar (xonalar) hajmi;

n – elementlar soni;

KR – binodagi boshqa xonalar hajmi (koeffitsient prochix), foizda.

Bino va inshootlar qurilishiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda o'ziga xos yondashishni talab qiladi. Mazkur formula asosida ehtiyojga ko'ra qurilishi lozim bo'lgan bino hajmini hisoblash mexanizmini Toshkent arxitektura-qurilish institutining Muxandis-servis fakulteti uchun qurilishi lozim bo'lgan yangi o'quv binosi hajmini hisoblash misolida ko'ramiz. Aniqlanishi lozim:

1. Binoga bo'lgan ehtiyoj;
2. Bino elementlari (xonalar) turlari;

3. Elementlar soni;
4. Binodagi elementlar tarkibiga kirmaydigan boshqa xonalar hajmi

Aniqlaymiz:

1. Fakultetda ikkita ta'lim yo'nalishlari "Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi" va "Qurilish materiallari va buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi 500 dan ortiq talabalar tahsil oladi. Demak, istiqbolni hisobga olganda, fakultetda 600 o'rinli o'quv binosiga ehtiyoj mavjud.

2. O'quv yurtlarida o'quv binosidagi elementlar (xonalar) turlarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayyorlangan "O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari talablari asosida tashkil etishda moddiy-texnik ta'minoti me'yorlari"ga muvofiq ko'rib chiqamiz. Xona turlari

- Ma'ruza xonalari;
- O'quv xonalari;
- Amaliyot xonalari;
- O'quv laboratoriya xonalari.

3. Elementlar miqdorini 600 talabaga ikki ta'lim yo'nalishida o'quv jarayonini tashkil etish uchun hisoblaymiz:

1). $600(\text{talaba}) : 2(\text{ta'lim yo'nalishi}) = 300(\text{o'rtacha bir yo'nalishda talaba})$

2). $300 : 4(\text{kurslar}) = 75(\text{kursda talabalar soni}) : 25 = 3(\text{akademik guruh soni})$.

3). "O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari talablari asosida tashkil etishda moddiy-texnik ta'minoti me'yorlari" bir ta'lim yo'nalishidagi bir guruh uchun hisoblangan.

Xonalar sonini aniqlash uchun kurs va akademik guruhlar soniga "me'yorlar"da berilgan xonalar turlarini hisoblaymiz.

Ma'ruza xonalari sonini aniqlaymiz:

Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida bir semestrda ma'ruza soatlari mavjud fanlar soni 8 darslar soni 16 ta bo'lsin.

Buning uchun bir kursdagi 3 ta guruh (75 talaba)ning 2 tasi o'zbek va 1 tasi rus guruhlar (yoki aksincha) bo'ladi.

Bir ta'lim yo'nalishida o'zbek guruhlar uchun 1 patok $(2 \text{ guruh}) \times 16$ (bir haftada ma'ruzalar soni) : 4 (bir kunda dars juftliklari-paralar soni) = 4 (ma'ruza xonalari) $\times 2$ (ta'lim yo'nalishlari soni) = 8 (o'zbek guruhlari uchun

ma'ruza xonalari) soni topildi.

Rus guruhlari soni ikki marta kam, ammo patokli fanlar ikki ta'lim yo'nalishida ham bir xildaligi sababli ikkala yo'nalish rus guruhlarini qo'shib patok hosil qilamiz. Yuqoridagi tartibda hisoblaganda rus guruhlari uchun ma'ruza xonalari soni 4 tani tashkil etadi.

Demak fakultet uchun 12 ta ma'ruza xonalari kerak.

O'quv xonalari sonini aniqlaymiz:

O'quv rejasida seminar mashg'ulotlari mavjud fanlar har kursda 2 ta, dars soatlari hajmi haftasiga 4 soat.

Demak ikkala yo'nalishning barcha kurslarida guruhlar soni 24 ta (3 guruh $\times$ 4 kurs $\times$ 2 yo'nalish).

24×2 (fan soni) $\times$ 4 (soati) : 4 (bir kunda paralar) : 6 (Haftada kunlar) = 8 ta o'quv xonalari soni.

Amaliyot xonalari sonini aniqlaymiz:

O'quv rejasida amaliy mashg'ulotlar mavjud fanlar har kursda 4 ta dars soatlari hajmi haftasiga 2 soat.

Guruhlar soni 24 ta (3 guruh $\times$ 4 kurs $\times$ 2 yo'nalish).

24×4 (fanlar soni) $\times$ 2 (soati) : 4 (bir kunda paralar) : 6 (hafta kunlari) = 8 ta amaliyot xonalari soni.

O'quv laboratoriya xonalari sonini aniqlaymiz:

Ta'lim yo'nalishlarida laboratoriya mashg'ulotlari mavjud fanlar soni bir semestrda 5 ta. Ammo ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasida laboratoriya mashg'ulotlari mavjud fanlar soni 9 ta. Har bir laboratoriya mashg'uloti mavjud fanlar uchun alohida laboratoriyalar bo'lishi shart. 9 ta laboratoriya xonalariga bir haftada (9 $\times$ 4(para) $\times$ 6(kun) 216 soat dars o'tkazish mumkin. Demak 24 guruh uchun bir hafta davomida 5 ta fandani laboratoriya o'tish uchun xonalarining soni (9 ta) yetarli va biror bir fandani ikkinchi laboratoriya xonasi talab etilmaydi.

O'quv jarayoni olib boriladigan asosiy xonalarning umumiy hajmini hisoblaymiz:

Xonalarning umumiy hajmini hisoblashda talabalar sonidan kelib chiqiladi.

1. Ma'ruza xonalari umumiy hajmini hisoblashda xona sathini kamida 100 talaba (4 akademik guruh) uchun olinadi. Har bir talaba uchun Idoraviy qurilish me'yorlari (IKN 02-09)ga muvofiq 1,3 m² maydon ajratiladi. Shunda

bir mu'ruza xonasi yuzasi ($100 \text{ talaba} \times 1,3 \text{ m}^2$) 130 m^2 ga teng. 130 m^2 yuzaga ega bo'lgan xonaning balandligi esa SHNK 2.08.02-96 ga muvofiq kamida 4,5 metr bo'lishi talab etiladi. Demak xonaning balandligi 3,6 metr deb olinganda umumiy hajmi ($130 \text{ m}^2 \times 4,5 \text{ m}$) 585 m^3 ga teng. Demak ma'ruza xonalarining umumiy hajmi (585×12) 7020 m^3 .

2. O'quv xonalari umumiy hajmini hisoblashda xona sathi bir akademik guruhga olinadi. Har bir talaba uchun Idoraviy qurilish me'yorlari (IKN 02-09)ga muvofiq $2,2\text{-}2,5 \text{ m}^2$ maydon ajratiladi. Shunda, ajratiladigan maydon o'rtacha $2,4 \text{ m}^2$ deb olganimizda bir o'quv xonasi yuzasi ($25 \text{ talaba} \times 2,4 \text{ m}^2$) 60 m^2 ga teng. 60 m^2 yuzaga ega bo'lgan ma'ruza xonasining balandligi esa SHNK 2.08.02-96 ga muvofiq kamida $3,2 - 3,6 \text{ m}$. bo'lishi talab etiladi. Demak xonaning balandligi $3,2 \text{ m}$. deb olinganda umumiy hajmi ($60 \text{ m}^2 \times 3,2 \text{ m}$) 192 m^3 ga teng. Demak ma'ruza xonalarining umumiy hajmi (192×8) 1536 m^3 tashkil etadi.

3. Amaliyot xonalari ham xonalari bir akademik guruhga olinadi. Har bir talaba uchun o'quv xonasiga teng maydon ajratiladi. Shunda bir amaliyot xonasi yuzasi 60 m^2 ga, balandligi $3,2 \text{ m}$.teng. Demak amaliyot xonalari soni ham 8 ta bo'lganda xonalarining umumiy hajmi (192×8) 1536 m^3 ni tashkil etadi.

4.O'quv laboratoriyalari hajmi ham bir akademik guruhga nisbatan hisoblanadi. Idoraviy qurilish me'yorlari (IKN 01-08)ga muvofiq har bir talabaga $4\text{-}4,8 \text{ m}^2$ maydon ajratilishi ko'zda tutiladi. Laboratoriya mashg'ulotlari akademik guruhni ikki nim guruhlarga bo'lib o'qitiladi, ammo laboratoriyalar yuzasi hisoblanganda reaktivlar va materiallar uchun alohida xona ajratilishi ko'zda tutiladi. Shunda bir laboratoriya xonasi yuzasini nim guruhga emas to'liq akademik guruhga hisoblash maqsadga muvofiq ($25 \text{ talaba} \times 4 \text{ m}^2$) 100 m^2 ga teng bo'ladi. 100 m^2 yuzaga ega bo'lgan laboratoriya xonasining balandligi kamida $3,2 \text{ m}$. Bo'lganda uning umumiy hajmi ($100 \text{ m}^2 \times 3,2 \text{ m}$) 320 m^3 ga teng bo'ladi. Demak laboratoriya xonalarining umumiy hajmi (320×9) 2880 m^3 tashkil etadi.

1.2- jadval. O'quv jarayoni olib boriladigan asosiy xonalarning umumiy hajmi

№	Ob'yekt xonalari nomi	O'quvchi o'rni	Bir o'quvchiga to'g'ri keladigan m ²	Jami xonalar soni	Bir xona yuzasi m ²	Jami xonalar yuzasi m ²	Xonaning me'yoriy balandligi	Bir xona hajmi m ³	Asosiy elementlar umumiy hajmi m ³
1.	Ma'ruza xonalari	100	1,3	12	130	1560	4,5	585	7020
2.	O'quv xonalari	25	2,4	8	60	480	3,2	192	1560
3.	Amaliyot xonalari	25	2,4	8	60	480	3,2	192	1560
4.	O'quv laboratoriya xonalari	25/2	4,0	9	100	900	3,2	320	2880
	Jami:			37		3420		1289	13020

O'quv binosidagi boshqa xonalar hajmini hisoblashda shtatlar jadvalidan kelib chiqiladi.

Talabalar soni 540-720 nafarni tashkil etganda ma'muriy boshqaruv, o'quv yordamchi va kafedrlar uchun ajratiladigan xonalar hajmini shtatlar jadvaliga muvofiq hisoblanadi.

1.3-jadval. Fakultet shtatlar jadvali.

№	Lavozim nomi	Shtat birligi
1	2	3
1.	Dekan	1
2.	Dekan muovirlari	2
3.	Uslubchilar	2
4.	Kafedra mudirlari	6
5.	Professor-o'qituvchilar	72

Idoraviy qurilish me'yorlariga (IKN 01-05)ga muvofiq ma'muriy boshqaruv, o'quv yordamchi va kafedrlar uchun ajratiladigan xonalar hajmi - jadvalda keltiriladi.

1.4- jadval. Ma'muriy boshqaruv, o'quv yordamchi va kafedrlar uchun ajratiladigan xonalar hajmi.

№	Xona nomi	Xona soni	Bir xona yuzasi IKN 01-05	Xonalar yuzasi (3×4)	Xona hajmi (5×3,2m.)
1	2	3	4	5	6

1.	Dekan xonasi	1	20	20	64
2.	Dekan muovinlari xonalari	2	14	28	180
3.	Uslubchilar xonalari	2	14	28	90
4.	Kafedra mudirlari xonalari	6	14	84	269
5.	Kafedralar (professor-o'qituvchilar) xonalari	1 PPSga 4,5 m ²	324	324	1037
	Jami:				1640 m ³

Binoning o'quv jarayonida foydalaniladigan umumiy hajmi o'quv jarayoni olib boriladigan asosiy xonalar umumiy hajmiga (13020 m³) ma'muriy boshqaruv, o'quv yordamchi va kafedralar uchun ajratiladigan xonalar hajmini (1640 m³) qo'shish orqali aniqlanadi.

KMK 2.08.02-96 - "Ijtimoiy binolar va inshootlar"ga asosan ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolarning yordamchi va xo'jalik ishlarida foydalaniladigan maydonning hajmi umumiy maydonga nisbatan 35-40%ni tashkil etadi, bunga asoslangan holda boshqa maydonlar koeffitsientini (KR) 40% olish mumkin.

Demak elementlar usulidan foydalanganimizda binoning umumiy hajmi:

$$\sum Q = (J_1 \times n) + (J_2 \times n) + (J_3 \times n) + \dots + (J_m \times n) \times KR =$$

$$13020 + 1640 \times 40\% = 14660 \times 1,4 = 20524 m^3$$

Demak, qurilish rejalashtirilayotgan binoning umumiy hajmi 20524 m³ ni tashkil etadi. Binoning umumiy hajmini unga analog sifatida olingan bino 1m³ hajmiga to'g'ri keladigan qiymatga ko'paytirish orqali topiladi.

Analog binoning bir m³ hajmiga to'g'ri keladigan qiymatini topish uchun binoning umumiy qiymatini uning umumiy hajmiga bo'lib topiladi. Agar bino o'tgan yilda qurilgan bo'lsa binoning umumiy qiymati O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan Respublikada qurilish-montaj ishlarining qimmatlashish indeksiga ko'paytiriladi.

Aytaylik, 4 qavatli 25000 m³ hajmdagi o'quv binosi 2007 yili qurib ishga tushirilgan. Uning qiymati 2 mlrd. 750 mln so'mni tashkil etgan. Agar Statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan Respublika qurilish-montaj ishlarining o'rtacha qimmatlashish koefitsenti 123,6 ni tashkil etgan bo'lsa joriy yilda bu binoning qiymati (2.750 mln. so'm × 123,6 : 100) 3 399 mln. so'mni tashkil qiladi. O'z navbatida 1 m³ hajmga to'g'ri keladigan qiymat (3 399 000 000 : 25 000) 135 960 so'mni tashkil etadi.

Demak, Toshkent arxitektura-qurilish institutining Muxandis-servis fakulteti uchun 600 o'ringa mo'ljallangan o'quv binosi qiymatini "Binoning dastlabki qiymatini aniqlashning yiriklashtirilgan ko'rsatkich usuli"dan foydalanib aniqlaganimizda uning qiymati umumiy hajmining analog binoning 1 m^3 hajmining o'rtacha qiymati ($20524 \times 135960 = 2\,790\,443\,040$) 2 mlrd. 790 mln. 443 ming 40 so'mga teng bo'ladi.

1.3. Bino va inshootlar qurilishiga boshlang'ich-ruxsat beruvchi hujjatlarni tayyorlash

Bino qurilishiga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 avgustdagi 305-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2001 yil 15 maydagi 1-son Qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya loyihasi uchun boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishtirish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq tayyorlanadi.

Bino va inshootlar qurilishi uchun boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlari (keyingi o'rinlarda BRH) kapital qurilish va arxitektura sohasida amal qiladigan qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlanadigan loyiha va tender hujjatlarini ishlab chiqish uchun zarur hujjatlar paketidan iborat.

Boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

a) Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 27 maydagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida noqishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish va berish bo'yicha materiallarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomning II bo'limi 1-bandiga muvofiq hududiy taalluqliligi bo'yicha tegishli hokimiyatga yuridik va jismoniy shaxsning ob'yektni joylashtirishga ariza-xati;

b) ob'yekt qurilishi uchun yer uchastkasini (uchastkalar, variantlari bilan bo'lishi mumkin) tanlash to'g'risidagi dalolatnoma;

v) Qurilish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash vakolatiga ega davlat hukumati tegishli organining qaroridan ko'chirma nusxa;

g) yer uchastkasining topografik-geodezik surati;

d) arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, I qism (ARP-I);

e) muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar;

j) muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer

uchastkasini tanlash haqida dalolatnoma;

z) Nizomning II bo'limi 16-bandiga binoan muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash vakolatiga ega davlat hukumati tegishli organining qaroridan ko'chirma nusxa;

i) muhandislik kommunikatsiyalari trassalarining topografik-geodezik surati;

k) arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, II qism (ARP-II).

Yuqorida keltirilgan bino va inshootlar qurilishi uchun boshlang'ich-ruxsat beruvchi hujjatlarni tayyorlashda ochib berilishi lozim bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Hududiy taalluqliligi bo'yicha tegishli hokimiyatga ob'yektni joylashtirishga ariza-xat. Xatda Nizomning II bo'limi 4-bandiga muvofiq ob'yektga uning joylashgan o'rni va yer uchastkasiga doir asosiy ko'rsatkichlar va unga qo'yiladigan talablarning qisqacha asoslanishi aks ettiriladi.

2. Yer uchastkasini tanlash dalolatnomasi. Dalolatnomada Nizomning II bo'limi 7-11-bandlariga muvofiq aholi punkti yoki boshqa hudud tuzilmasida tanlanadigan er uchastkasining joylashishi, shu paytdagi holati, erlar tavsifi va undan foydalanish, mavjud imoratlar, ko'chatlar, muhandislik kommunikatsiyalari va boshqa masalalar aks ettiriladi.

3. Yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi qarordan ko'chirma nusxa Nizomning II bo'limi 17 va 18-bandlariga muvofiq bu hujjat yer uchastkasining asosiy o'lchovlari va tavsiflari, avvalgi yerdan foydalanuvchidan yerlarni olib qo'yish talablari, arxitektura-rejalashtirish topshirig'i (ART-1)ni tayyorlash, yer uchastkasidan foydalanish bo'yicha buyurtmachiga topshiriqlar va boshqa talablar ko'rsatilgan holda tayyorlanishi mumkin.

4. Yer uchastkasining topografik-geodezik surati. Yer uchastkasini tanlash dalolatnomasiga binoan arxitektura va qurilish hududiy organlari bilan kelishilgan koordinatalar tizimi, masshtab va chegaralarda bajariladi.

5. Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i. 1-qism Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari (boshqarmalari va bo'limlari) tomonidan ishlab chiqiladi va arxitektura-shaharsozlikning asosiy talablarini belgilaydi, unda quyidagilar

ko'rsatiladi:

- 1) arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini berish uchun asoslar;
- 2) aholi punkti (umumshahar markaz zonalari, turarjoy mavzesi, sanoat zonasi, shahar atrofidagi hudud va boshqalar) bosh rejasida loyihalashtirilayotgan ob'yektning joylashgan o'rni;
- 3) hududning muhandislik-geologik tavsifi, seysmikligi (agar tumanning mikroseysmik xaritasi mavjud bo'lsa, uning ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatiladi)gan doir dastlabki ma'lumotlar, yerosti sizov suvlarining mavjudligi (joylashganlik darajasi va tebranish amplitudasi);
- 4) mavjud imoratlar (saqlanib qoladigan, buzib tashlanadigan), kelajakda bajariladigan qurilishlar va boshqalar;
- 5) yorug'lik, shamol esishi tomonlarini hisobga olib aholi punktining bosh rejasida ob'yektlarni joylashtirishning vaziyatli rejasi;
- 6) loyihalashtirish ob'yekti, fasadlarni tashqi bezatish, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish yechimlari va kichik arxitektura shakllari va boshqalarga qo'yiladigan asosiy arxitektura-rejalashtirish talablari;
- 7) davlat nazorati organlari (SES, yong'indan saqlash xizmati, yo'l xavfsizligi xizmati, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqalar) talablarini bajarish bobida loyihasi, qurilish bosh rejasi va loyihalashtirilayotgan binoning arxitektura-rejalashtirish yechimini kelishtirish shartlari;
- 8) mazkur me'yoriy hujjatning 3-bandi "g" kichik bandida ko'rsatilgan topografik-geodezik surat bo'lmaganda topografik-geodezik va muhandislik-geologik ishlarini olib borishga qo'yiladigan talablar;
- 9) ko'chmas mulk kadastri xizmati tomonidan buziladigan noturarjoy binolar va inshootlarni hamda texnik inventarlash byurosi tomonidan buziladigan turarjoy imoratlari va ko'p yillik ko'chatlarni baholash zarurati.

6. Ob'yektning muhandislik tarmoqlariga ulanishi uchun texnik shartlar ob'yektning hisob-kitob qilingan talabdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib, mavjud muhandislik tarmoqlariga, manbalariga ulanish, tarmoqlar manbalarining yangilarini qurish yoki ta'mirlash joyi va talablarini belgilaydi.

7. Muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnomada Nizomning II bo'limi 7-15-bandlariga muvofiq aholi punkti yoki boshqa hudud tuzilmasida trassaning o'tishi, yerlarning shu paytdagi holati, mavjud imoratlar, ko'chatlar,

muhandislik kommunikatsiyalari, yo'llar bilan tutashgan joylar va boshqa masalalar aks ettiriladi.

Loyiha-rejalashtirish hujjatlari bilan ta'minlangan aholi punktlarida ob'yekt qurilishi va muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasi bir vaqtda tanlanadi va bitta dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

8. Muhandislik kommunikatsiyalari trassasi uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qarordan ko'chirma nusxa Nizomning II bo'limi 17-19-bandlariga muvofiq yer uchastkalari asosiy ko'rsatkichlari va tavsiflari, avvalgi yerdan foydalanuvchidan yerlarni olib qo'yish, arxitektura-rejalashtirish topshirig'i (ART-II)ni tayyorlash talablari, buyurtmachiga yer uchastkalaridan foydalanish bo'yicha topshiriqlar va boshqa talablarni ko'rsatgan holda tayyorlanadi.

9. Muhandislik kommunikatsiyalari trassasi topografik-geodezik surati muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasiga binoan hududiy arxitektura va qurilish organlari bilan kelishilgan koordinatalar tizimi, masshtabi va chegaralarda bajariladi.

Muhandislik kommunikatsiyalari trassalari va ob'yekt yer uchastkasining topografik-geodezik surati bir vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

10. Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i II-qismi muhandislik kommunikatsiyalari trassasi va uni yotqizishga asosiy talablarni belgilaydi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

1) kommunikatsiyalar ulangan, trassirovka qilingan joylar, magistrallar, ko'chalar va tor ko'chalar kesishgan joyda joylashganligi, tarmoqlar uzunligi;

2) foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar talablari, shuningdek aholi punkti bosh rejasi yoki batafsil loyihalashtirish, qurilish, mavzelarining loyihasi talablari, qurilish me'yorlari va qoidalari talablarining bajarilishi shartlari;

3) loyihalashtiriladigan kommunikatsiyalarni yotqizish shartlari;

4) mazkur me'yoriy hujjatning topografik-geodezik surati bo'lmaganda, mavjud yerosti kommunikatsiyalari ko'rsatilgan holda topogeodezik ishlar va muhandislik-geologik tadqiqotlarni bajarish zarurati.

11. Boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlarini tayyorlashning asosiy ijrochilar:

Buyurtmachi tomonidan o'z hisobiga mazkur me'yoriy hujjatning "g", "e", "i" bandlarida ko'rsatilgan BRH materiallari tayyorlanadi.

Tuman, shahar, viloyat hokimiyati tomonidan mazkur me'yoriy hujjatning "v" va "z" bandlarida ko'rsatilgan BRH materiallari bajariladi.

Axitektura va qurilish bosh boshqarmasi tomonidan buyurtmachi hisobiga Mazkur me'yoriy hujjatning "d" va "k" bandlarida ko'rsatilgan BRH materiallari tayyorlanadi.

Joylardagi viloyat (shahar) Arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari tomonidan mazkur me'yoriy hujjatning "b" va "j" bandlarida ko'rsatilgan BRH materiallari tayyorlanadi.

Ob'yektning maqsadi va aholi punkti bosh rejasidan tashqarida joylashgan joyidan kelib chiqib, buyurtmachi qo'shimcha ravishda ART-1 va ART-II'da ko'rsatilgan yo'l xavfsizligi xizmati organlari, avtomobil yo'llaridan foydalanish xizmatlari, temir yo'l transporti, tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyati va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib oladi.

BRH paketini tayyorlash quruvchi-buyurtmachining vazifasi hisoblanadi. Mazkur me'yoriy hujjatning 3-bandida ko'rsatilgan hujjatlar mavjud bo'lganida buyurtmachi-quruvchi tegishli faoliyat turi bilan shug'ullanadigan shaxslarga shartnoma asosida BHRni tayyorlashga buyurtma berishi mumkin.

1.4. Bino va inshootlar qurilishiga loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash

Ta'lim muassasalarida bino va inshootlar qurilishi uchun loyiha smeta hujjatlari mazkur bino va inshootlar qurilishi navbatdagi kalendar yiliga (uch yillik istiqbolda) shakllantirilgan Davlat investitsion dasturiga kiritilgandan keyin boshlanadi. Davlat dasturiga kiritish tartibi va qoidalari mazkur bobning "Ta'lim muassasalarida qurilishi rejalashtirilayotgan binolarni davlat investitsiya dasturiga kiritish tartibi" nomli 1 mavzusida ko'rib chiqilgan.

Davlat investitsion dasturidan tashqari ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari, homiylar va vasiylar mablag'lari va vazirlikning rivojlantirish fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan qurilish ta'mirlash ishlariga ham o'rnatilgan tartibda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanadi.

Ta'lim muassasalarida qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital

ta'mirlash bo'yicha Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan ob'yektlar uchun vazirlik buyrug'i va hududiy viloyatlar hokimliklari qarorlari chiqariladi. Vazirlik buyrug'i va viloyat hokimliklari qarorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya hamda Iqtisodiyot vazirligi va "Davarxitekqurilish" qo'mitalari bilan kelishiladi.

Ob'yektlar qurilishi bo'yicha Vazirlik buyrug'i yagona buyurtmachi-Injineriing kompaniyasi tayinlanadi. Ayrim hollarda Vazirlar Mahkamasi qarorida ijrochi injineriing kompaniya tayinlanishi mumkin. Vazirlik buyrug'ida ko'rsatilgan (Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilangan) injineriing kompaniyasi bilan qurilishni tashkil etish bo'yicha shartnoma tuzadi, hamda tegishli ta'lim muassasasi bilan birgalikda injineriing kompaniyasiga ob'yekt qurilishini tashkil etish bo'yicha hujjatlar paketini taqdim etadi.

Har qanday ob'yektni qurish, rekonstruktsiya qilish va to'liq kapital ta'mirlashga loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun davlat investitsiya dasturiga taqdim etilgan investitsion loyiha ma'lumotlari asos bo'ladi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli 4-ilova «O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» belgilangan bo'lib, Davlat investitsiya dasturiga taqdim etilgan loyihadan ob'yekt to'g'risidagi quyidagi axborotlar asos qilib olinadi:

belgilangan shakldagi loyiha pasporti;

loyihani amalga oshirish reja-jadvali (dasturda tasdiqlangan);

loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash sanasida loyihani (ob'yekt qurilishini) amalga oshirishning holati to'g'risidagi mufassal axborot.

Ba'zan loyihani (ob'yektni) investitsion dasturga kiritish uchun taqdim etilgunga qadar ta'lim muassasasi, vazirlik yoki uchinchi tashkilot buyurtmalariga asosan loyihalashtirish tashkilotlari tomonidan ob'yektning loyiha-smeta hujjatlari tayyorlangan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ob'yekt qurilishi smetasi injineriing kompaniyasiga topshiriladi. U jarayonni boshlash sanasi joriy narxlar asosida qayta ko'rib chiqiladi. Shuningdek, loyiha-smeta hujjatlariga ob'yekt qurilishi uchun investitsion dasturda ajratilgan mablag' miqdoridan kelib chiqib o'zgartirishlar kiritiladi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan Loyihaning pasportida:
texnik tavsifnoma;

atrof muhitga ta'siri ko'rsatkichlari;

ob'yektning imkoniyatlarini, talab etiladigan asosiy ko'rsatkichlar;

binoga talab hajmi va xususiyatini;

ob'yekt qurilishi to'g'risida davlat komissiyasi yechimi-Dasturga kiritilgan muqobil variant. Jumladan mavjud binolarni rekonstruktsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lishi mumkin;

ob'yekt qurilishi uchun asosiy materiallar va ishchi kuchi resurslari to'g'risida ma'lumot;

Dasturda tasdiqlangan investitsiya xarajatlari miqdori va ularning davriy taqsimlanishi to'g'risida ma'lumot keltiriladi.

Shuningdek, buyurtmachi injinering kompaniyasi:

- loyihalashtirish uchun topshiriq (APZ);

- texnik shartlar (TU);

- loyihalashtirishga vazirlik topshiriqlarini (TP) taqdim etadi.

Injinering kompaniyasi loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun loyihalash tashkilotini tanlash maqsadida tanlov savdolarini tashkil etadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorida loyihalashtirish tashkiloti belgilanmagan bo'lsa, injineriya kompaniyasi (buyurtmachi) loyihalashtirish ishlarini bajarish uchun tender savdolarini tashkil qiladi. Tender savdosida g'olib chiqqan tashkilot loyihalashtirish ishlarini bajarilishiini o'z zimmasiga oladi. Yagona buyurtmachi xizmati (Injineriya kompaniyasi) loyihalashtirish ishlari hajmini aniqlangandan so'ng loyihalashtirish tashkiloti bilan shartnoma tuzadi va mazkur bobning 3.4-bo'limida keltirilgan bino va inshootlar qurilishini loyihalashtirishni tashkil etish bilan bog'liq barcha ishlarni amalga oshiradi.

Loyihalashtirish tashkiloti – buyurtmachidan loyiha ishini bajarish uchun belgilangan yuqoridagi me'yoriy xujjatlarni olgandan so'ng loyihalashtirish smeta xujjatlarining dastlabki variantini tayyorlaydi.

Berilgan loyihalashtirish uchun topshiriq (APZ) shartlariga asosan yer osti muhandislik tizimlarini ko'rsatuvchi va yangi binoga injinerlik tarmoqlarini ulanish nuqtalarini belgilangan bosh chizmani (gen.sxema) tayyorlaydi va uni shaxar yoki viloyat bosh arxitektura qurilish boshqarmasidan tasdiqdan o'tkazadi. Bu bosh chizmaga (gen.sxema) asosan qurilish bosh plani tayyorlanadi. (Stroy gen.plan).

Loyihalashtirish tashkiloti tomonidan tayyorlanadigan **loyiha hujjatlari**

tarkibiga:

1. Qurilish maydonchasini tayyorlash;
2. Poydevor qurilishi;
3. Devor va to'siqlar qurilishi;
4. Proyemlar (deraza va eshiklar);
5. Tom (krovlya) ishlari;
6. Pollar yotqizish;
7. Suv ta'minoti, kanalizatsiya va isitish tizimi, ventilyatsiya;
8. Elektromontaj ishlari;
9. Pardoqlash ishlari;
10. Tashqi muhandislik kommunikatsiyalari;
11. Jihozlash ishlari;
12. Obodonlashtirish;
13. Boshqa ishlar (binoni foydalanishga tayyorlash).

Loyiha hujjatlari yuqorida ko'rsatilgan bo'limlardan iborat bo'lib, har bitta bo'limga alohida smeta xujjatlari tayyorlanadi. Tayyorlangan smeta xujjatlarining umumiy yig'indi smetasi (сводный смета) qurilayotgan umumiy binoga sarflanadigan pul mablag' miqdorini to'liq bayon qiladi.

Qurilish ishlarini tashkil etish uchun ish hujjatlari tayyorlanadi.

Ish hujjatlari - alohida binolar va inshootlarga hamda ish turlariga ish chizmalari komplekti. Murakkab ob'yektlar bo'yicha ish hujjatlarini tuzishda loyiha materiallarini aniqlashtiruvchi qo'shimcha ishlar amalga oshiriladi. Ularga ish chizmalari umuman binoga va inshootga ishlab chiqiladi. Ish hujjatlarida mehnat sarfi va asosiy qurilish materiallariga xarajatlar o'zgarishining hisob-kitobi keltirilgan bo'lishi, ixtisoslashtirish tuzilishi, asbob-uskunalar va buyumlarning tegishli turlariga esa - o'lcham sxemalari tuzilishi, bino va inshootga qurilish ish chizmalarining pasporti tuzilishi kerak. Ish hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyihalovchiga yakka tartibda tayyorlanadigan buyurtma qilinadigan asbob-uskunalar va import asbob-uskunalar bo'yicha birlamchi ma'lumotlar beriladi.

Loyiha hujjatlari asosida qurilishning titul ro'yxati tuziladi.

Qurilishning titul ro'yxati - qurilishning butun davriga kapital qo'yilmalar hajmini va uni sarflash yo'nalishlarini ko'rsatgan, uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aks ettirgan holda har bir ob'yekt bo'yicha tuziladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi.

Buyurtmachi tomonidan olib boriladigan kapital qurilishning umumiy hajmi qurilishning aniq ro'yxatini tuzish orqali aniqlanadi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati - ob'yektlar ro'yxatini, shuningdek ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ishlar va xarajatlar hajmini o'z ichiga oluvchi har yili buyurtmachilar tomonidan ajratilgan limitlar doirasida tuziladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha tayyorlangan **loyiha smeta xujjatlarini** O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2001 yil 15 maydagi 1-son Qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya loyihasi uchun boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishtirish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizom" belgilangan tashkilotlar bilan kelishilishi nazarda tutiladi.

Tayyorlangan loyiha smeta hujjatlarini texnik topshiriqqa (APZ) asosan qilinganligini va amaldagi barcha me'yoriy talablarga javob berishini nazorat qilish maqsadida loyiha xujjatlarini quyidagi tashkilotlar bilan kelishilishi shart.

- 1.Yong'in xavfsizligi boshqarmasi
- 2.Sanitar-tibbiy boshqarmasi
- 3.Shaxar arxitektura va qurilish boshqarmasi
- 4.Elektr energiyasi ta'minoti boshqarmasi
- 5.Issiqlik ta'minoti boshqarmasi
- 6.Aloqa boshqarmasi
- 7.Maxsus bo'lim boshqarmasi

Ushbu yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar bilan kelishilgandan so'ng shahar yoki viloyat arxitektura qurilish komissiyasidan tasdiqdan o'tkazish uchun uning rangli 4 ko'rinishda rasmlari tayyorlanadi hamda shahar yoki viloyat arxitektura qurilish komissiyasi tasdig'idan o'tkaziladi.

Loyihalashtirish tashkiloti tomonidan tayyorlanadigan **kapital qurilishning loyiha-smeta xujjatlari ekspertizadan o'tkazilishi** shart. Loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining Davlat ekspertizasi xududiy boshqarmasi to'g'risida Namunaviy Nizom"ga muvofiq Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining shahar va viloyat Davlat ekspertiza boshqarmalari tomonidan o'tkaziladi. Bu tashkilotlar loyiha smeta xujjatlari sifati va kamchiliklari to'g'risida o'z yozma xulosasini beradi. Xulosada

keltirilgan kamchiliklar tuzatilib loyiha-smeta hujjatlari mazkur tashkilotlarga qayta taqdim etiladi.

Tayanch iboralar

Davlat investitsiya dasturi, moliyalashtirish manbalari, boshlang'ich-ruxsat beruvchi hujjatlar, yiriklashtirilgan ko'rsatkich usuli, arxitektura-rejalashtirish topshirig'I, loyihaning pasporti, loyiha hujjatlari, ish hujjatlari, qurilishning titul ro'yxati

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat investitsiya dasturi qanday shakllantiriladi ?
2. Davlat investitsiya Dasturini moliyalashtirishning qanday manbalari mavjud?
3. Binoning dastlabki qiymati yiriklashtirilgan ko'rsatkich usuli o'zgarishi qanday aniqlanadi?
4. Bino va inshootlar qurilishiga boshlang'ich-ruxsat beruvchi hujjatlarni sanab bering ?
5. Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihaning pasportida ma'lumotlar aks ettiriladi?

II-BOB. KAPITAL QURILISH SOHASIDA TANLOV SAVDOLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH.

2.1. O'zbekistonda kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi kapital qurilish tarmog'ida ham amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilayotgan hozirgi kunda sohada

o'z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalardan biri kapital qurilish sohasida pudrat ishlarini va tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshiruvchi munosib nomzodlarni tanlash va ular bilan bozor qonuniyatlariga asoslangan, iqtisodiy boshqaruv motivatsiyasiga ega bo'lgan mexanizmni shakllantirish vazifasi turadi.

Aynan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida" 2003 yil 6 maydagi PF-3240-son Farmoni bajarilishiga qaratilgan hamda kapital qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridining yagona tizimini yaratish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarorga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi.

Qarorda qurilish sohada erkin bozor munosabatlari va qonuniyatlarining amal qilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar belgilab qo'yildi:

markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi faqat tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda tanlov savdolari majburiy o'tkazilishi uchun buyurtmachilar, tanlov savdolarini o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi uchun esa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanlov savdolari tashkilotchilari javob beradilar;

sifatli bajarilgan ishlar va xizmatlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish yuzasidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun shartnoma shartlariga muvofiq buyurtmachi moddiy javob beradi, shuningdek ko'rsatib o'tilgan sabablar natijasida soliq organlari tomonidan hisoblangan, ularga to'langan jarimalar va penyani pudratchiga to'liq qoplaydi;

tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan shartlarning o'zgarishi, buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida kelishuv mavjudligidan qat'i nazar, faqat ular belgilangan tartibda tanlov komissiyasi

tomonidan ko'rib chiqilgandan va tasdiqlangandan keyin qabul qilingan deb hisoblanadi;

qurilishning amaldagi qiymatini tanlov savdolari natijalari bo'yicha shartnomada belgilangan shartnomaviy narxga nisbatan kamaytirish natijasida tejalgan mablag'lar pudrat tashkilotining tasarrufida qoladi.

Shuningdek, Qarorda xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ishlar (xizmatlar) qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritilishi belgilab qo'yilgan.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Baziriar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli Qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom" va tanlov savdolarini tashkil etishning asosiy qoidalar

"O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom" 108 ta banddan tashkil topib ular 12 ta bobga ajratilgan. Ular:

- I. Umumiy qoidalar
- II. Tanlov savdolari qatnashchilari
- III. Tanlov savdolari shakllari
- IV. Talabgorga qo'yiladigan malaka talablari
- V. Tanlov savdolarini o'tkazishga tayyorgarlik
- VI. Tanlov hujjatlarining tarkibi, tuzilishi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi
- VII. Ofertalarni taqdim etish
- VIII. Tanlov savdolarini o'tkazish va ularni yakunlash
- IX. Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibi monitoringi
- X. Narxlarga tuzatishlar kiritish va sug'urta

XI. Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari

XII. Tanlov savdolari qatnashchilarining javobgarligi deb nomlanadi.

I-bobda umumiy qoidalar keltirilgan bo'lib, mazkur qoidalariga muvofiq:

1. Nizom kapital qurilish, shuningdek ilgari to'xtatib qo'yilgan ob'ektlar qurilishini davom ettirish bilan bog'liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini (keyingi o'rinlarda matnda ishlar, xizmatlar deb yuritiladi) bajarish, tovarlar xarid qilish, asbob-uskunalar sotib olish yuzasidan tanlov savdolari (tenderlar)ni tashkil etish va o'tkazish tartibi va shartlarini belgilashi ko'rsatilgan.

2. Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi hududida markazlashtirilgan manbalar (davlatning kapital qo'yilmalari), davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishda majburiy hisoblanadi.

3. 2-bandda sanab o'tilmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilish ob'ektlari uchun mazkur Nizom talablari tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

4. Mazkur Nizom, agar xorijiy kreditlar va grantlar berish shartlariga ko'ra o'zgacha tartib belgilangan bo'lsa, tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga joriy etilmaydi.

5. Tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror buyurtmachi tomonidan faqat tanlov savdolari predmeti tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar) bilan tasdiqlangan moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan taqdirda qabul qilinadi.

6. "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom"da quyidagi tushunchalardan foydalanilgan:

boshlang'ich narx - buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati;

baholovchi guruh - ofertani baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik organ;

baholovchi komissiya - erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

baholash mezonlari - talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g'olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

buyurtmachi - investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs;

talabgorning malakasini oldindan aniqlash - tanlov savdolarida qatnashishga qo'yish uchun talabgorlarni tanlash;

investor - tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga o'z mablag'larini yoki qarz olingan mablag'larni (byudjetdan moliyalashtirishda - nazarda tutilgan mablag'larni) qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob'ektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish;

tanlov savdolarida ishtirok etishga buyurtmanomalarni ta'minlash - oferent tomonidan buyurtmachining talabiga ko'ra ular bo'yicha dastlabki majburiyatni bank beradigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan istalgan majburiyatning, yoxud ta'minlashning boshqa turlarida ta'minlanishi;

talabgor - ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

tanlov buyurtmanomasi aktsepti - uning yutgan ofertasi e'tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi;

tanlov komissiyasi - mazkur Nizomning 12-bandida sanab o'tilgan funktsiyalarni bajarish uchun buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

tanlov savdolari - tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul yetkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli;

tanlov savdolari predmeti - tovarlar, ishlar va xizmatlar;

tanlov savdolari tashkilotchisi - buyurtmachi yoki tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxs;

tanlov hujjatlari - tanlov savdolarining texnik, moliyaviy, tijorat, tashkiliy tavsiflari va boshqa tavsiflari to'g'risidagi hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish shartlari, tartib-qoidolari to'g'risidagi dastlabki axborot mavjud bo'lgan hujjatlar turkumi;

tovar - xom ashyo, buyum, konstruksiya, asbob-uskunalarga butlovchi buyumlar, qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi predmetlar, energiyaning barcha turlari, shuningdek yyetkazib beriladigan tovarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularning qiymati tovar qiymatining o'zidan ortiq bo'lmasa;

oferent - malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor;

oferta - tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq taqdim etilgan tanlov savdolari predmetiga nisbatan talabgorning taklifi;

shartnomaviy joriy narx - tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi;

shartnoma bajarilishini ta'minlash - buyurtmachining talabiga ko'ra tanlov savdolari g'olibi tomonidan ular bo'yicha birlamchi majburiyatni bank o'z zimmasiga oladigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkredetivlar, cheklar shaklidagi, naqd mablag'lardagi depozitlar, yoxud boshqa shakllardagi depozitlar shaklidagi shartnomadagi mavjud majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi.

II-bob. TANLOV SAVDOLARI QATNASHCHILARI

7. Investor, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi, tanlov komissiyasi va oferentlar tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari hisoblanadi.

8. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

talabgorning malakasini oldindan aniqlash yoki buningsiz tanlov savdolari o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

rasmiy farmoyish beruvchi hujjat chiqargan holda tanlov savdolarini o'tkazish shakli, turi va sanasini belgilash;

tanlov savdolari tashkilotchisi funksiyasini amalga oshirish (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan tashkilotga berishi mumkin);

mustaqil ravishda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etgan holda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich qiymatini belgilash.

9. Buyurtmachi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tanlov komissiyasi tarkibini va ish tartibini shakllantiradi va tasdiqlaydi, uning ishida qatnashadi;

miqdori tanlov hujjatlarida qayd etiladigan aniq tanlov shartlariga bog'liq bo'ladigan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalarni ta'minlash shaklini belgilaydi;

tanlov savdolarining tashkilotchisi bo'ladi (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan ixtisoslashgan tashkilotga berishi mumkin);

tanlov hujjatlari tarkibini belgilaydi;

talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolariga qo'yiladigan asosiy talablarni, tanlov savdolari predmetiga qo'yiladigan va tanlov hujjatlari tarkibiga kiritiladigan maxsus va texnik talablarni belgilaydi;

belgilangan tartibda ekspertizaning o'tkazilishi va tanlov hujjatlari tasdiqlanishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan kelishgan holda tanlov savdolari natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlaydi;

tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzadi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

Buyurtmachi investor bilan belgilangan tartibda tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan vakolatlar doirasida boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

10. Quyidagilar tanlov savdolari tashkilotchisining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlov savdolari o'tkazish tartib-qoidalarini belgilash;

tanlov savdolari predmetiga qo'yiladigan maxsus, texnik va tijorat talablarini hisobga olgan holda talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolarini o'tkazish uchun tanlov hujjatlarini ishlab chiqish;

belgilangan shakl bo'yicha tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni matbuotda chiqarish va/yoki potentsial talabgorlarga taklifnomalar yuborish;

agar tanlov hujjatlarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, arizalar va ofertalarni qabul qilish, ularning hisobga olinishi va maxfiyligini ta'minlash; jalb etiladigan buyurtmachi bilan shartnoma asosida mustaqil ekspertlar yoki maslahatchilarning ishlarini tashkil etish; talabgorlarga tanlov hujjatlarini taqdim etish; ofertalarning asl nusxalarini ular ochilgandan keyin buyurtmachiga berish.

11. Tanlov savdolarini tashkil etish uchun ixtisoslashtirilgan tashkilot jalb etilgan taqdirda tanlov savdolari tashkilotchisining huquq va majburiyatlari u bilan buyurtmachi o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

12. Tanlov komissiyasi quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:
o'zining ish tartibini belgilaydi;

miqdori tanlov hujjatlarida qayd etilgan tanlov shartlariga bog'liq bo'lgan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalarni ta'minlash shaklini tasdiqlaydi;

ofertani qabul qilishning oxirgi kuni va vaqtini, konvertlarni ochish vaqti va joyini belgilaydi;

talabgorning malakasini oldindan aniqlaydi, agar u tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa;

tegishli ravishda rasmiylashtirgan holda tanlov savdolarini o'tkazish tartib-qoidalarini amalga oshiradi;

ichida ofertalar bo'lgan konvertlarni ochadi, ularning tanlov hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini tekshiradi (hujjatlarning to'liq taqdim etilishi, rasmiylashtirish va hokazolar) va konvertlarni ochish to'g'risidagi protokolni tasdiqlaydi;

mustaqil ekspertlarni (maslahatchilarni) jalb etish zarurligini belgilaydi yoki tanlov komissiyasi a'zolari orasidan baholash guruhini tuzadi;

tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq ofertalarni o'rganadi, tekshiradi va ko'rib chiqadi, tanlov savdolari g'olibini aniqlaydi yoki boshqa qaror qabul qiladi;

tanlov savdolarini o'tkazish jarayonida paydo bo'ladigan nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqadi va tartibga soladi hamda ular bo'yicha tegishli xulosalar chiqaradi.

13. Tanlov komissiyasi a'zolari soni toq bo'lishi kerak.

Qoidaga ko'ra, tanlov komissiyasi tarkibiga investor, buyurtmachi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, joylardagi davlat hokimiyati organlari, xizmat ko'rsatuvchi bank vakillari kiritiladi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

Tanlov savdolari predmetiga bog'liq ravishda tanlov komissiyasi tarkibiga loyiha, ekspert tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning vakillari kiritilishi mumkin.

14. Tanlov komissiyasi tarkibida investor va buyurtmachining vakillari soni komissiya a'zolari umumiy sonining to'rtidan bir qismidan ortiq bo'lmasligi kerak.

15. Agar majlisda tanlov komissiyasi a'zolarining kamida to'rtidan uch qismi qatnashsa tanlov komissiyasi huquqiy vakolatli hisoblanadi.

16. Tanlov savdolarini o'tkazish tartib-qoidalari bosqichlari bo'yicha qaror tanlov takliflarini baholash mezonlarini hisobga olgan holda tanlov komissiyasi tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

17. Tanlov komissiyasi majlislarida "Davarxitektqurilish" qo'mitasining vakolatli vakili ishtirok etadi.

III-bob. TANLOV SAVDOLARI SHAKLLARI

18. Tanlov savdolari quyidagilarga bo'linadi:

ochiq tanlov savdolari - oferentlar soni cheklanmaydi;

yopiq tanlov savdolari - oferentlar soni cheklanadi.

Yopiq tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

19. Ochiq yoki yopiq tanlov savdolari talabgorning malakasi oldindan aniqlangan holda yoki aniqlanmasdan, yoxud ikki bosqichli bo'lishi mumkin.

Talabgorning malakasini oldindan aniqlash tanlov savdolarining birinchi turi, tanlov savdolarining g'olibini aniqlash - uning ikkinchi turi hisoblanadi.

20. Talabgorning malakasi oldindan aniqlanadigan ochiq yoki yopiq tanlov savdolari o'tkazishda talabgorlarning umumiy ro'yxati tuziladi,

talabgorning malakasi oldindan aniqlanadi va malakasi oldindan aniqlangan talabgorlar o'rtasida tanlov savdolari o'tkaziladi.

21. Ikki bosqichli tanlov savdolari:

buyurtmachi tanlov savdolari predmetining aniq tavsifini va o'ziga xosligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmagan;

shartnomada ishlarni ularning rentabelligini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan yoki tadqiq etish yoki ishlab chiqishga sarflangan xarajatlar qoplanishini ta'minlaydigan hajmlarda bajarish nazarda tutilgan hollardan tashqari, buyurtmachi ilmiy tadqiqotlar, eksperimentlar o'tkazishga, qidiruvlar yoki ishlanmalar yuzasidan shartnoma tuzish niyatida bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

22. Ikki bosqichli tanlov savdolari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda kontseptual qaror va texnik, tijorat jihatidan aniqlanishi va tuzatilishi kerak bo'lgan, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan shartlar asosida ishlab chiqilgan oferta bahosi ko'rsatilmagan holda taqdim etiladi. Tanlov savdolari predmeti parametrlari bo'yicha oferent bilan muzokaralar olib borilishiga yo'l qo'yiladi. Ofertalarning umumiy sonidan tanlov savdolarining ikkinchi bosqichida qatnashishga yo'l qo'yiladigan ofertalar tanlab olinadi;

ikkinchi bosqichda tanlov savdolari predmetining aniqlashtirilgan parametrlari hisobga olingan, bahosi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda ofertalari tanlov savdolarining ikkinchi bosqichiga o'tgan qatnashchilarning takliflari va buyurtmanomalari berilgan holda tanlov hujjatlariga tuzatish kiritiladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

23. Yopiq tanlov savdolari ishlar va xizmatlar yuqori darajada murakkabligi (yoki tor ixtisoslashuvi) bilan farqlanadigan va faqat pudratchilar (yyetkazib beruvchilar)ning cheklangan soni bilangina bajarilishi mumkin bo'lgan hollarda tashkil etiladi.

24. Yopiq tanlov savdolarini o'tkazishda tanlov savdolari tashkilotchisi pudratchilar (yyetkazib beruvchilar) umumiy sonidan oldindan yetarlicha malaka ma'lumotlariga ega bo'lganlarni, biroq ularning kamida uchtasini tanlaydi va ularga tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma yuboradi.

25. Agar pudratchilar (yyetkazib beruvchilar)ning umumiy soni ikkitadan ortiq bo'lmasa, u holda taklifnoma ularning har ikkalasiga yuboriladi va tanlov savdolari ularning ishtirokida o'tkaziladi.

Ulardan biri rad etgan taqdirda tanlov shartlari aniqlashtirilgan va/yoki unga tuzatishlar kiritilgan holda takroriy tanlov savdolari e'lon qilinadi.

26. Yopiq tanlov savdolarini tashkil etishda matbuotda e'lon berilmaydi, tanlov savdolari taklif etilgan talabgorlar o'rtasida o'tkaziladi.

27. Tanlov savdolari predmeti xaridining umumiy qiymati 25 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etgan hollarda ular:

xarid qilinadigan tovar, ishlar va xizmatlarning tavsifi, miqdori, bajarish muddatlari va tovarni yyetkazib berish punkti ko'rsatilgan holdagi takliflarni talabgorlarga yuborish;

yyetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tavsiflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdoda amalga oshirilishi mumkin.

28. Erkin savdoda xarid qilishda takliflarning yyetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan aloqa kanallari orqali yozma shaklda taqdim etilishiga yo'l qo'yiladi.

29. Erkin savdoda xarid qilishda yyetkazib beruvchi yoki pudratchini tanlash baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

30. Baholash komissiyasi buyurtmachi tomonidan kamida besh nafar vakolatli mutaxassisdan iborat tarkibda tayinlanadi. Baholash komissiyasining qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi.

31. Quyidagi hollarda:

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori mavjud bo'lganda;

xarid qilinadigan tovar (ish, xizmatlar) yagona yyetkazib beruvchi (pudratchi) tomonidan ishlab chiqarilsa (realizatsiya qilinsa);

import tovar Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishgan holda xarid qilinganda shartnomaning to'g'ridan-to'g'ri tuzilishiga yo'l qo'yiladi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxridagi xat boshi)

32. Agar tanlov savdolari predmetining boshlang'ich qiymatiga nisbatan tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmasa, bunday ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar mustaqil lotlarga bo'lingan holda bitta tanlov savdolariga birlashtiriladi, bunda g'olib, qoidaga ko'ra, har bir lot bo'yicha aniqlanadi.

33. Buyurtmachining asoslangan qaroriga muvofiq tanlov savdolari predmetini lotlarga bo'lgan holda tanlov savdolari o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi (qurilish va montaj ishlari, asbob-uskunalarni xarid qilish va montaj qilish, yuklarni transportda tashish va hokazo).

Bunda g'olib, qoidaga ko'ra, har bir lot bo'yicha aniqlanadi, bosh pudratchi tashkilot funktsiyasini buyurtmachi bajaradi va loyihada nazarda tutilgan ishlar va xizmatlarning butun kompleksi bajarilishi uchun javob beradi. Investor va/yoki buyurtmachi tovarlarni xarid qilishda tanlov savdolari predmeti bo'linishi uchun javob beradi.

34. Tanlov savdolarini keyinchalik tanlov savdolari predmeti uchun nazarda tutilmagan turlar bo'yicha o'tkazish imkonini beruvchi uning qiymatini pasaytirish maqsadida tanlov savdolari predmetini ongli ravishda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

IV-bob. TALABGORGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

35. Tanlov savdolarida qatnashish uchun talabgorga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

tanlov savdolari predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi bo'sh aylanma mablag'larning yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;

ustav sarmoyasining miqdori;

tanlov ob'yektiga o'xshash ob'yektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov ob'yektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (foizlarda).

Tanlov savdolarida qatnashish talabgoriga buyurtmachi tomonidan belgilanadigan boshqa talablar ham qo'yilishi mumkin.

36. Agar tanlov savdolari predmeti hisoblanadigan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi kerak bo'lsa belgilangan tartibda berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlar tanlov savdolarida qatnashishga qo'yiladi.

37. Tanlov komissiyasi talabgor (oferent)dan uning malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishni talab qilishga haqlidir.

38. Talabgorlarga tanlov savdolarida qatnashishga malaka talablari tanlov hujjatlari tarkibida ko'rsatib o'tiladi.

39. Malaka talablariga muvofiq talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni baholash tanlov hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

40. Tanlov komissiyasi:

talabgorlarning o'z intellektual mulkini yoki tijorat sirini muhofaza qilish huquqini buzishga;

talabgorlar (oferentlar)ning tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan malaka ma'lumotlariga nisbatan mezonlar va talablarni belgilashga haqli emas.

41. Ta'sis hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashkilotlarning tanlov savdolarida qatnashishi taqiqlanadi.

42. Buyurtmachining tor ixtisoslashgan pudratchi tashkilotlari ochiq tanlov savdolarida umumiy asoslarda qatnashadilar, yopiq tanlov savdolarida esa tanlov savdolari tashkilotchisi kamida ikkita chet qatnashchini taklif qilishi shart.

43. Malaka ma'lumotlari to'g'risida noto'g'ri axborot aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi qarori bilan talabgor (oferent) bundan keyin tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan chetlatiladi.

44. Malaka ma'lumotlari to'g'risida tanlov savdolari natijasiga ta'sir qilmaydigan unchalik muhim bo'lmagan noaniqliklar mavjud bo'lgan axborotni taqdim etgan talabgor (oferent)ga tanlov komissiyasi qarori bilan aniqlangan noaniqliklarni uning ofertasini ko'rib chiqish davomida tuzatishiga ruxsat etilishi mumkin.

45. Qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish), tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan, mulki xatlab qo'yilgan talabgorlar tanlov savdolari tartibotlarida qatnashishga qo'yilmaydi.

V-bob. TANLOV SAVDOLARINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK

46. Tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov savdolari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi yoki potentsial pudratchilarga (yyetkazib beruvchilarga) tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma jo'natadi.

47. Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa yoki tanlov savdolarida qatnashishga taklifnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- tanlov savdolari tashkilotchisining nomi va manzili;
- tanlov savdolari predmetini mablag' bilan ta'minlash manbalari;
- tanlov savdolari predmetining tavsifi va uni sotish joyi;
- tanlov savdolari predmetini sotish muddati;
- talabgorlarga qo'yiladigan asosiy shartlar;
- tanlov hujjatlarini sotib olish joyi va uning uchun to'lov miqdori;
- ofertalarni taqdim etish joyi, oxirgi kuni va vaqti;
- ofertalarni ochish joyi, kuni va vaqti.

Tanlov savdolari va/yoki talabgorning malakasini oldindan aniqlash to'g'risidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etiladi. Buyurtmachining qaroriga ko'ra xorijiy pudratchilar (yyetkazib beruvchilar) tanlov savdolarida qatnashishga taklif etilishi mumkin. Bunda e'lon, qoidaga ko'ra, eng ommaviy davriy nashrlarda, gazetalarda, web-saytda va /yoki BMTning Development Business nashrida, shuningdek xorijiy mamlakatlarning elchixonalari orqali taklifnomalar jo'natish vositasida amalga oshiriladi.

48. Ofertalarni taqdim etish muddati e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etilgan kundan boshlab kamida o'ttiz kunni yoki taklifnomalar jo'natilgan kundan boshlab o'ttiz besh kunni tashkil etishi kerak.

49. Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon faqat tanlov hujjatlariga ijobiy ekspert xulosasi mavjud bo'lgan taqdirdagina chop etilishi mumkin.

VI-bob. TANLOV HUJJATLARINING TARKIBI, TUZILISHI, ULARNI ISHLAB CHIQISH VA TASDIQLASH TARTIBI

50. Tanlov hujjatlari, qoidaga ko'ra, uch qismdan: umumiy, texnik va tijorat qismidan iborat bo'ladi.

51. Umumiy qismga quyidagilar kiradi:

- tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma;

tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan shartnomaning umumiy shartlari;

talabgorlarning tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomolari shakli;

talabgorning malakasini hamda uning texnik va moliyaviy ahvolini baholash talablari va mezonlarini, takliflarni moliyaviy baholash va tanlov savdolari g'olibini aniqlash mezonlari, tanlov savdolari tartibotiga taalluqli boshqa hujjatlardan iborat bo'lgan yo'riqnoma.

52. Texnik qism Qurish, rekonstruktsiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash, loyihalash, qurilish ob'yektlari uchun materiallar, konstruktsiyalar va jihozlar xarid qilishga doir tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi.

53. Tanlov hujjatlarining tijorat qismi ishlar (xizmatlar)ni bajarish va/yoki tovarni yetkazib berish shartlaridan, mablag' bilan ta'minlash manbalari va shartlaridan, tanlov savdolari predmetini sotish muddatidan, shartnoma loyihasidan iborat bo'ladi.

54. Buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan narx bilan tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxi e'lon va taklifnomada ko'rsatiladi. Bunda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxini pasaytirish yuzasidan o'tkaziladi.

55. Ofertalarni taqdim etish tartibi tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Taqdim etilayotgan oferta tanlov hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

56. Xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ishlar (xizmatlar) qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritiladi.

57. Tanlov va talabgorning malakasini oldindan aniqlash hujjatlariga, ofertani joylashga va markirovka qilishga, takliflarni texnik va moliyaviy

baholash mezonlariga shartlar va talablar tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ofertalarni taqdim etish muddati tugaguncha tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir, tashkilotchi ular to'g'risida tanlov hujjatlarini olgan talabgorlarga darhol xabar qilishi, ofertalarni taqdim etish muddatini ofertaga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqtga uzaytirishi kerak.

58. Tanlov hujjatlari ular uchun to'lov to'langandan keyin taqdim etiladi.

To'lov miqdori buyurtmachi va/yoki tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan, tanlov hujjatlarini ko'paytirish va tarqatish qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

59. Tanlov savdolari tashkilotchisi talabgorning so'roviga ko'ra tanlov hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq bo'lgan savollarga yozma ravishda javob berishi, tanlov savdolarining barcha qatnashchilariga javobni so'rov manbaini ko'rsatmasdan yuborishi shart.

60. Tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari va /yoki talabgorlar o'rtasida xabarlar, bildirishnomalar va boshqa axborotlarni almashish tanlov hujjatlari tarkibida tasdiqlangan shakl bo'yicha yozma ravishda amalga oshiriladi.

VII-bob. OFERTALARNI TAQDIM ETISH

61. Ofertaning amal qilish muddati tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Oferta uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugaguncha qaytarib olinishi mumkin.

62. Talabgorning imzosi va muhri qo'yilgan oferta savdolar tashkilotchisiga konvertga solib yelimlangan holda jo'natiladi.

63. Taqdim etish muddati tugagandan keyin olingan oferta ko'rib chiqilmaydi.

Ofertani taqdim etish sanasi tanlov savdolari tashkilotchisining pochta bildirishnomasidagi oferta olinganligi to'g'risidagi qayd bo'yicha yoki tanlov savdolari tashkilotchisining oferentga berilgan (oferta chopar orqali yetkazib beriladigan hol) oferta olinganligi to'g'risidagi bildirishnomasi sanasi bo'yicha belgilanadi.

64. Talabgor oferta tarkibida tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan, lekin tanlov savdolari predmeti hisoblab chiqilgan qiymatining ko'pi bilan 2 foizi miqdorida ta'minlashni taqdim etadi.

Ta'minlashning amal qilish muddati ofertaning amal qilish muddatidan kam bo'lmasligi kerak.

65. Buyurtmachi tanlov hujjatlarida ta'minlash kafilining ishonchliligi bo'yicha talablarni, uning shakllarini va tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlashdan foydalanish tartibini belgilashi mumkin.

66. Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash:

tanlov savdolari g'olibiga - shartnoma tuzilgandan keyin, shartnoma ijrosini talab qilinadigan ta'minlash taqdim etilgach;

qolgan oferentlarga - tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzilgandan keyin, lekin ofertaning amal qilish muddatidan kechikmay;

ofertani qaytarib olgan oferentga - uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugaguncha qaytariladi.

Buyurtmanomani ta'minlash uni qaytarish uchun asos paydo bo'lgan vaqtdan boshlab o'n kun mobaynida qaytariladi.

67. Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash:

ofertani taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugagach ofertani o'zgartirgan yoki uni qaytarib olgan oferentga;

tanlov savdolari g'olibiga - oferta uning amal qilish davrida qaytarib olinganda, tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarda shartnoma tuzish yoki shartnoma ijrosining talab qilinadigan ta'minlanishini taqdim qilish rad etilganda qaytarilmaydi.

VIII-bob. TANLOV SAVDOLARINI O'TKAZISH VA ULARNI YAKUNLASH

68. Tanlov savdolari, qoidaga ko'ra, buyurtmachi joylashgan joyda o'tkaziladi.

69. Tanlov komissiyasi majlisi ushbu Nizomning 48-bandida belgilangan muddat tugagandan keyin o'tkaziladi.

Majlis vaqtida ofertalar solingan konvertlar ochiladi, shartlar va tartibotlarga rioya qilinishi, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan hujjatlarning mavjudligi tekshiriladi.

70. Ofertalar solingan konvertlarni ochish qatnashish istagini bildirishgan oferentlar yoki ularning vakolatli vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Tanlov komissiyasi majlisi natijalari protokol bilan rasmiylashtiriladi.

Tanlov komissiyasi majlislari natijalari to'g'risidagi axborot qatnashmagan oferentga yozma shaklda yetkaziladi.

71. Hujjatlar paketida tanlov hujjatlari talablarining buzilganligi aniqlangan taqdirda hujjatlar ularning mazmuni e'lon qilinmasdan oferentga qaytariladi.

72. Tanlov komissiyasi tanlov hujjatlarining e'lon qilingan shartlarga nomuvofiqligini yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarni ular boshqa qatnashchilarning reytingiga ta'sir ko'rsatmaydigan va ularga yo'l qo'ygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda e'tiborga olmasligi mumkin.

73. Tanlov hujjatlari shartlariga javob beradigan ofertalar bo'yicha oferentning ismi (nomi), malaka ma'lumotlari, taklif qilingan narxlar va bajarish muddatlari, shuningdek oferent tomonidan tanlov hujjatlari talablariga muvofiq kiritilgan qo'shimcha takliflar hisobga olinadi.

74. Tanlov komissiyasi majlisida ofertani ko'rib chiqish davomida oferent tomonidan ofertaning mazmuni tushuntirib berilishiga yo'l qo'yiladi.

Bunda ofertaning mazmunini, shu jumladan narxi yoki bajarish muddatini o'zgartiruvchi tushuntirishlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

75. Ofertada arifmetik xatolar mavjudligi aniqlangan taqdirda so'zlar bilan ko'rsatilgan yakuniy summa to'g'ri miqdor sifatida qabul qilinadi.

76. Savdolarning turidan qat'i nazar, tanlov savdolari g'olibi tanlov komissiyasining yopiq majlisida aniqlanadi. Tanlov savdolari g'olibi tanlov savdolari qatnashchilari ishtirokida e'lon qilinadi, ishtirok etmagan qatnashchilar xabardor qilinadi.

77. Ofertalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash natijalari to'g'risidagi axborot oshkor qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

78. Tanlov komissiyasining har bir majlisida protokol yuritiladi.

Qoidaga ko'ra, bu - talabgor malakasini oldindan aniqlash, konvertlarni ochish, tanlov savdolari g'oliblarini aniqlash va tanlov savdolari o'tkazish tartiboti bilan bog'liq bo'lgan boshqa protokollardir.

79. Tanlov savdolari buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin tugallangan hisoblanadi.

80. Buyurtmachi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishilgan kundan boshlab besh kun muddatda ommaviy axborot vositalarida tanlov savdolari natijalari (predmeti, g'olibi, investitsiya loyihasining shartnomaviy narxi va uni amalga oshirish muddati) to'g'risidagi axborotni e'lon qiladi.

81. Tanlov savdolari agar:

ofertalarni taqdim etish muddatida uchtdan kam oferta tushsa, ushbu Nizomning 25-bandida ko'rsatilgan hollardan tashqari;

ofertalar tanlov hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmasa;

ofertalarda tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash kafolati mavjud bo'lmasa;

oferentlar tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolari predmeti boshlang'ich qiymatidan ancha ortiq bo'lsa;

"Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha tanlov komissiyasi tomonidan asoslangan boshqa holatlar paydo bo'lsa o'tkazilmagan hisoblanadi.

82. Tanlov savdolarining o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi asosiy qatnashchilardan birontasining mulkiy yoki boshqacha tushadagi javobgarligiga olib kelmaydi.

83. Agar tanlov savdolari o'tkazilmagan deb e'tirof etilsa tanlov savdolari takroran o'tkaziladi, bunda tanlov hujjatlari shartlarining qaytadan ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

84. Tanlov savdolari tashkilotchisi ular tugallangandan keyin tanlov savdolari g'olibiga besh kundan kechikmay yozma bildirishnoma jo'natadi.

85. Shartnoma tanlov savdolari g'olibi bildirishnomani olgan kundan boshlab o'n kun muddatda tuziladi.

86. Agar tanlov savdolari g'olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki shartnoma ijrosini ta'minlashni belgilangan muddatda taqdim etmasa, u holda buyurtmachi tanlov komissiyasi bilan birgalikda ofertasi ikkinchi bahoni olgan oferentni tanlov savdolari g'olibi deb e'tirof etishi yoki takroriy tanlov savdolari o'tkazishni tayinlashi mumkin.

87. Shartnoma ijrosini ta'minlash miqdori buyurtmachi tomonidan, lekin tanlov savdolarida belgilangan qiymatning ko'pi bilan 10 foizi miqdorida belgilanadi.

88. Tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan, erkin muomaladagi valyutada amalga oshiriladigan shartnomani ro'yxatdan o'tkazish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida amalga oshiriladi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi band)

IX-bob. TANLOV HUJJATLARINI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH HAMDA TANLOV SAVDOLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI MONITORINGI

89. Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, tanlov savdolarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi hamda uning metodlari va usullarining asoslanganligini aniqlash, tanlov savdolarini tashkil etish, tanlov savdolarini o'tkazish shartlari va tartibotiga rioya qilish monitoringi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

90. Tanlov hujjatlari ekspertizasi shartnoma asosida o'tkaziladi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar shartlariga hamda ushbu Nizomga rioya qilinishi tanlov hujjatlari ekspertizasi predmeti hisoblanadi.

91. Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

tanlov savdolari predmeti va tashkilotchisi to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov hujjatlari;

tanlov komissiyasini tayinlash va uning tarkibi to'g'risidagi buyruq;

moliyaviy resurslarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq manzilli ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar). Zarur hollarda ekspertiza organi savdolar tashkilotchisidan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab oladi.

Import tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni xarid qilishda buyurtmachi tanlov hujjatlari tarkibida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining narxlar kon'yunkturasi bo'yicha xulosasini taqdim etadi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi xat boshi)

92. Tanlov hujjatlari ekspertizasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Qurilish, rekonstruktsiya qilish, texnika bilan qayta

jihozlash, loyihalash, qurilish ob'yektlari uchun materiallar, konstruksiyalar va jihozlar xarid qilishga doir tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq o'tkaziladi.

93. Tanlov hujjatlari ekspertizasi va ekspertiza organi tomonidan tegishli xulosani berish ushbu Nizomning 91-bandida sanab o'tilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o'n kun muddatda amalga oshiriladi.

Takroriy ekspertiza besh kun muddatda o'tkaziladi.

94. Quyidagilar monitoring ob'yekti hisoblanadi:

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish, shartnoma tuzish;
loyihani amalga oshirishda tanlov savdolari shartlarining bajarilishi;
ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallarining ijrosi;
qurilishi tugallangan ob'yektni o'z vaqtida foydalanishga topshirish.

95. Monitoring buyurtmachi va pudratchi tomonidan tomonlarning tanlov savdolari shartlarini bajarishi to'g'risida "Davarxitektqurilish" qo'mitasi hududiy boshqarmasiga har oyda taqdim etiladigan axborotlarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlariga buyurtmachi va pudratchi tomonidan axborotlar taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni kiritish tanlov savdolari shartlarining uzviy qismi hisoblanadi.

Monitoring natijalarini umumlashtirish "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

96. "Davarxitektqurilish" qo'mitasi har chorakda Vazirlar Mahkamasiga tahliliy ma'lumotnomani takliflar bilan birga taqdim etadi.

X-bob. NARXLARGA TUZATISHLAR KIRITISH VA SUG'URTA

97. Tanlov savdolarida belgilangan narx qat'iy narx hisoblanadi.

98. Birinchi moliyaviy yil mobaynida narxlarga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan shartnomani bajarish muddatiga tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

99. Ikkinchi yil va undan keyingi yillar uchun shartnoma narxlariga tuzatishlar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

100. Tanlov savdolari g'olibi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ob'yekt qurilishining sug'urta qilinishini ta'minlaydi.

XI-bob. TANLOV SAVDOLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH XARAJATLARI

101. Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi.

102. Tanlov savdolari tanlov savdolari predmetini sotishning maqsadga muvofiq emasligi sababli bekor qilingan taqdirda ularni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi xarajatlar bo'yicha buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

XII-bob. TANLOV SAVDOLARI QATNASHCHILARINING JAVOBGARLIGI

103. Tanlov savdolari qatnashchilari qonun hujjatlariga va ushbu Nizom talablariga muvofiq javob beradilar.

104. Buyurtmachi:

tanlov komissiyasini shakllantirishda uning tarkibiga oid talablarga rioya etilishi;

tanlov savdolari predmeti uchun nazarda tutilmagan shakllar bo'yicha tanlov savdolarini amalga oshirish imkonini beradigan uning qiymatini kamaytirish maqsadida tanlov savdolari predmetini bo'lishga yo'l qo'yilishi;

tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzish muddatining buzilishi;

shartnomada kelishilgan muddatlarda fizik, sifatga doir va texnik parametrlar bo'yicha shartnoma shartlarining bajarilmaganligi;

tanlov shartlarining bajarilishi monitoringi uchun noto'g'ri axborot taqdim etilganligi;

tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi tugallangandan keyin uch yil mobaynida ofertalar originallarining saqlanmaganligi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibotlarining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

Agar uning uchun qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma tuzish shart bo'lgan buyurtmachi shartnomani tuzishdan voz kechsa yoki bosh tortsa tanlov savdolari g'olibi shartnomani tuzish yoki yetkazilgan zararni va boy berilgan foydani undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qiladi.

105. Tanlov savdolari tashkilotchisi:

ofertalar taqdim etish muddati tugaguncha tanlov hujjatlariga tanlov hujjatlarini olishgan talabgorlarga o'z vaqtida xabar qilmasdan va ofertaga tuzatishlar kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqt uchun ofertalarni taqdim etish muddatini uzaytirmasdan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni tanlov hujjatlariga ijobiy ekspert xulosasisiz chop etganlik;

arizalar va ofertalarni qabul qilib olishni rad etganlik, ularni hisobga olishni ta'minlamaganlik, konvertlarni ochishgacha ularning maxfiyligini va saqlanishini ta'minlamaganlik;

tanlov savdolarini o'tkazish tartiboti buzilganligi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibotining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

106. Tanlov komissiyasi:

tanlov savdolarini o'tkazish tartibotlari bosqichlari bo'yicha kam ovoz bilan va/yoki tanlov takliflarini baholash mezonlarini hisobga olmasdan qaror qabul qilinganligi;

talabgor (oferent)dan uning malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishning asossiz talab qilinishi;

talabgorlarning o'z intellektual mulki yoki tijorat sirini muhofaza qilishga bo'lgan huquqi buzilganligi;

talabgorlar (oferentlar)ning malaka ma'lumotlariga nisbatan tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar va talablar belgilanganligi;

tanlov savdolarida qatnashishga:

muassislik hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashkilotlarning;

qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish) tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan, mulki xatlab qo'yilgan talabgorlarning qo'yilganligi;

talabgor (oferent)ning tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan asossiz ravishda chetlatilganligi;

tanlov savdolarining boshqa qatnashchilari reytingiga ta'sir qilmaydigan, ularga yo'l qo'ygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda tanlov hujjatlarining e'lon qilingan shartlarga yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarga nomuvofiqligi e'tiborga olinganligi;

oferta mazmunini o'zgartiradigan tushuntirishlar va tuzatishlarga yo'l qo'yilganligi, shu jumladan narxlar yoki bajarish muddati o'zgartirilganligi;

ofertani tanlov komissiyasi majlisida ko'rib chiqish davomida oferentning tushuntirish berishiga asossiz ravishda yo'l qo'yilmaganligi;

axborotning oshkor qilinganligi, savdolar qatnashchilarining o'zaro yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan kelishuviga yo'l qo'yilganligi, shuningdek qonunga zid boshqa xatti-harakatlar qilinganligi;

tanlov savdolari g'olibining tanlov komissiyasining ochiq majlisida aniqlanganligi, tanlov savdolari g'olibini e'lon qilish tartiboti buzilganligi, ishtirok etmagan qatnashchilarning o'z vaqtida xabardor qilinmaganligi;

tanlov savdolari tartibotining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

107. Tanlov savdolari g'olibi:

fizik, sifatga doir va texnik parametrlar bo'yicha shartnoma shartlarining shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganligi;

tanlov shartlarining bajarilishi monitoringi natijalarining buzilganligi;

tanlov shartlari va shartnomaning boshqacha buzilishlari uchun javob beradi;

Agar tanlov savdolari g'olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki belgilangan muddatda shartnoma bajarilishi ta'minlanishini taqdim etmasa, u holda buyurtmachi tanlov komissiyasi bilan birgalikda ofertasi ikkinchi bahoni olgan oferentni tanlov savdolari g'olibi deb e'tirof etishi yoki takroriy tanlov savdolari o'tkazishni tayinlashi mumkin.

108. Tanlov savdolari tartibotidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar va nizolar, buyurtmachi, savdolar tashkilotchisi yoki tanlov savdolari boshqa qatnashchilarining xatti-harakatlari va qarorlar yuzasidan shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi belgilangan.

Tayanch iboralar

Kapital qurilishda tanlov savdolari, tanlov savdolari shakllari, tanlov savdolari qatnashchilari, malaka talablari, oferta, oferent shartnomaviy joriy narx, tanlov hujjatlari, tanlov savdolarini tashkil etish, boshlang'ich narx, baholovchi komissiya, baholash mezonlari, tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Boshlang'ich narx qanday aniqlanadi?
2. Tanlov savdolari qatnashchilari kimlar bo'lishi mumkin ?
3. Tanlov savdolarining qanday shakllari mavjud ?
4. Talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash mezonlari yoritib bering
5. Tanlov savdolari talabgorining malakasi qanday aniqlanadi ?
6. Tanlov komissiyasini tashkil etish tartibi qanday?
7. Tanlov hujjatlari tarkibini sanab bering?

III. BINO VA INSHOOTLAR QURILISHINI, REKONSTRUKTSIYA QILISH VA KAPITAL TA'MIRLASH ISHLARINI MOLİYALASHTIRISH

3.1. Bino va inshootlar qurilishini mablag' bilan ta'minlash manbalari va mablag' bilan ta'minlovchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar

Kapital qurilish uzoq davom etuvchi va katta miqdordagi mablag' talab etuvchi jarayon bo'lganligi sababli uni moliyalashtirish masalasi o'ta murakkab va alohida nazorat talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida bino va inshootlar qurilishini moliyalashtirish manbalari asosan ikki guruhga bo'linadi.

1. Markazlashgan mablag'lar
2. Xususiy va jalb qilingan mablag'lar.

Markaziy mablag'larga:

- davlat byudjetidan ajratmalar;
- davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan tashqari);
- Hukumat qarorlari asosida boshqa manbalardan ajratilgan mablag'lar;
- davlat kafolati ostida chet mamlakatlar va moliyaviy institutlardan jalb qilingan turli investitsiya va kreditlar kiradi.

Xususiy va jalb qilingan mablag'larga:

- Muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari;
- Homiy va vasiy korxonalar va tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag'lar;
- Vazirliklarning rivojlantirish fondlaridan ajratiladigan mablag'lar;
- ta'lim muassasalarining servisni rivojlantirish va qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatish hisobiga topgan daromadlaridan ajratiladigan mablag'lar;
- Oliy ta'lim muassasalari ta'sischi ligida tashkil etilgan yuridik shaxslar daromadlaridan ajratmalar;
- Ta'lim muassasalari va vazirlik kafolati ostida moliya muassasalaridan olingan kreditlar;
- xalqaro moliya muassasalari va jamg'armalar tomonidan ajratilgan grantlar va boshqalar.
- Xususiy va jalb qilingan mablag'lar hisobiga shuningdek, xo'jalik usulida kapital qurilish ishlari amalga oshirilganda moliyalashtirish jarayoni tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilik asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunda qurilishni tashkil etish va moliyalashtirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2003 yil 11 iyundagi 261-son Qarorining 1-ilovasida keltirilgan "Ob'yektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risida Vaqtinchalik Nizom"ga amal qilgan holda tashkil etiladi.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga bino va inshootlar qurilishini

tashkil etish va moliyalashtirish ishlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi ta'lim muassasalarida ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan tasdiqlangan **«Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida Nizom»** (2-ilova)ga muvofiq tashkil etiladi.

Mazkur Nizom quyidagi markazlashtirilgan manbalar hisobidan amalga oshiraladigan bino va inshootlar qurilishini tashkil etish uchun joriy etiladi:

- byudjetdan ajratmalar;
- davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan tashqari);
- Hukumat qarorlarida belgilangan boshqa manbalar.

Nizomga muvofiq markazlashtirilgan manbalar hisobiga bino va inshootlar qurilishini tashkil etish va moliyalashtirish ishlari quyidagi to'rt guruhga ajratilgan holda ko'rib chiqiladi:

1. Shartnomalar tuzish tartibi va shartlari
2. Ob'yekt qurilishida tomonlarning majburiyatlari va javobgarligi
3. Ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda qurishni tashkil etish
4. Investitsiya loyihasini mablag' bilan ta'minlash
5. O'zaro hisob-kitob qilish tartibi

3.2. Kapital qurilish ishlarini tashkil etishda shartnomalar tuzish tartibi va shartlari

Ob'yekt qurilishiga shartnoma tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan qurilishning butun davriga yangi qurilishga, mavjud binolarni, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va texnika bilan qayta jihozlashga tuziladi.

Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy ba'zasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda kapital qurilish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tuziladi.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga ob'yektlar qurilishiga

shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan tashkilot buyurtmachi hisoblanadi.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga ob'yektlar qurilishiga shartnoma bo'yicha pudratchilar tanlov savdolari shartlariga va tuzilgan shartnomaga muvofiq ishlar bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan yuridik shaxslar bo'lishlari mumkin.

Zarurat bo'lganda qo'shma faoliyat to'g'risidagi shartnomaga muvofiq ish ko'ruvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yuridik shaxslarning birlashmasi qurilish shartnomasi bo'yicha pudratchilar bo'lishi mumkin.

Buyurtmachi va pudratchi, bosh pudratchi va subpudratchilar, loyiha tashkilotlari va asbob-uskunalar, qurilish materiallari va konstruksiyalarini yetkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar vositachi tashkilotlar va boshqa oraliq bo'g'inlarning ishtirokisiz faqat shartnoma asosida quriladi.

Bunda ham moddiy-texnika resurslarini o'zaro bergan holda, ham ular berilmagan holda subpudrat tashkilotlar tomonidan ishlarning bajarilishi bitta ob'yekt qurilishi doirasida vositachining ishi hamda moddiy-texnika resurslarini tashqariga realizatsiya qilish, deb hisoblanmaydi.

Pudrat shartnomasi tanlov savdolari natijalari bo'yicha aniqlangan shartnomaviy joriy narx bo'yicha belgilangan tartibda tanlov savdolari natijalari tasdiqlangandan keyin o'n kun muddatda tuziladi.

Tanlov savdolari shartlariga muvofiq qurilish muddati bir kalendar yil doirasidan tashqariga chiqadigan ob'yektlar bo'yicha ikkinchi va keyingi yillarga ishlarning qoldiq hajmi qiymati belgilangan tartibda aniqlashtiriladi. Qoldiq qiymatning aniqlashtirilishi asosiy bosh shartnomaga ilova qilinadigan qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

Shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Shartnoma bekor qilingan taqdirda barcha xarajatlar va zararlar qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda qoplanadi.

Shartnoma tuzishda buyurtmachi va pudratchi alohida shartlar bilan qonun hujjatlariga muvofiq unda boshqa majburiyatlarni ham nazarda tutishga haqlidir.

Subpudratchilar va yetkazib beruvchilar (ishlab chiqaruvchilar)ni tanlash bosh pudratchi tomonidan tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan bosh shartnoma bo'yicha majburiyatlar saqlanib qolinishi sharti bilan mustaqil

amalga oshiriladi.

Ob'yektlar qurilishiga shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi qonun hujjatlariga muvofiq kafillik, kafolat shaklida va boshqa shakllarda ta'minlanadi.

Ob'yekt qurilishi shartnomasida aks ettiriladigan o'zaro hisob-kitob shartlari qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilanadi.

Kapital qurilish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomada tomonlarning majburiyatlari va javobgarligi belgilab beriladi. Bunda:

1. Buyurtmachi tomonidan quyidagilar ta'minlanadi:

yer uchastkasini tanlash va ajratish, birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni va qurilish hududini tayyorlash, loyiha oldi ishlarini tashkil etish, loyihaning, ish hujjatlarining (ob'yektni foydalanishga tayyor holda qurish hollaridan tashqari) va tanlov hujjatlarining tasdiqlanadigan qismini kelishish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash;

loyihalovchi va pudratchini (bosh pudratchini) tanlov savdolari orqali tanlash;

ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallari bilan birgalikda shartnomalar tuzish;

qurilish ob'yektini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlarida ro'yxatdan o'tkazish;

pudratchiga qurish uchun birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni berish;

buziladigan, ko'chiriladigan yoki rekonstruktsiya qilinadigan binolarda, shuningdek ob'yekt qurilishi hududida yashayotgan shaxslarni ko'chirish;

moliyalashtirish, pudratchi tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlariga va shartnomada qayd etilgan boshqa funktsiyalarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

texnik kuzatish va ob'yekt qurilishi ustidan texnik nazorat qilish;

qurilishi tugallangan ob'yektni belgilangan tartibda foydalanish uchun qabul qilish;

kafolatli davrda aniqlangan nuqsonlar bartaraf etilishi ustidan nazorat qilish.

Buyurtmachi qonun hujjatlariga va shartnoma shartlariga muvofiq boshqa funktsiyalarni ham bajaradi.

2. Pudratchi tomonidan quyidagilar ta'minlanadi:

ish hujjatlarini ishlab chiqish va uning texnologiya qismini buyurtmachi

bilan kelishgan holda qurilish jarayonida (ob'yekt foydalanishga tayyor holda qurilganda) uni ekspert kuzatish;

ish hujjatlarini (ob'yekt foydalanishga tayyor holda qurilganda) texnologik izchillik va ob'yekt qurilishining aniq shartlari bilan bog'liqlikda hajmlar va muddatlarda ishlab chiqarishga berish;

ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq hamda belgilangan standartlarga, qurilish normalari va qoidalariga rioya qilgan holda tasdiqlangan loyihada nazarda tutilgan ishlarni bajarish;

shartnomaga muvofiq qurilishni asbob-uskunalar, konstruktsiyalar va qurilish materiallari bilan butlash;

loyiha yechimlariga hamda qurilish normalari va qoidalariga rioya qilgan holda qurilish-montaj, maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

ob'yektning ijroiya hujjatlarini, shu jumladan sertifikatlanishi shart bo'lgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatlarini, foydalanilgan qurilish materiallari va asbob-uskunalariga texnik pasportlarni tuzish va buyurtmachiga berish;

tasdiqlangan loyihalarga, boshqa talablarga va shartnoma majburiyatlariga muvofiq ob'yektni buyurtmachiga topshirish.

Pudratchi qonun hujjatlariga va shartnoma shartlariga muvofiq boshqa funktsiyalarni ham bajaradi.

3. Buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasidagi vazifalarni aniq taqsimlash, shuningdek ularning mulkiy javobgarligi darajasi qonun hujjatlariga va tanlov savdosi shartlariga muvofiq aniq bir pudrat shartnomasini tuzishda aniqlashtiriladi.

4. Ob'yektni foydalanishga qabul qilib olish belgilangan sifat standartlari hisobga olingan holda "Davarxitektqurilish" qo'mitasi organlarining xulosasi asosida buyurtmachi tomonidan ta'minlanadi.

5. Buyurtmachi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq:

ishlarni bajarishga birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlar berilishi kechiktirilganligi;

geodeziya - bo'lish asoslari hamda qurilish hududiga biriktirilgan punktlar va belgilar berilishi kechiktirilganligi;

qurilishi tugallangan ob'yekt, uning ayrim navbatlari, ishga tushirish kompleksi, binolar, inshootlar, ishlab chiqarishga tayyorlangan mahsulotlar

yoki xizmatlar shartnoma shartlariga muvofiq qabul qilib olinishi asossiz ravishda kechiktirilganligi;

shartnomaga muvofiq o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanmaganligi, bajarilgan ishlar tasdiqlanmaganligi va ularga haq to'lanmaganligi;

shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun pudratchi oldida mulkiy javob beradi.

Pudratchi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq:

ish hujjatlari sifatsiz ishlab chiqilganligi (ob'yektni foydalanishga tayyor holda qurishda);

qurilish-montaj ishlari sifatsiz bajarilganligi;

ob'yekt, uning navbati, bosqichi qurilishi o'z vaqtida tugallanmaganligi;

buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha montaj tashkilotlari va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan asbob-uskunalarni montaj qilishga mo'ljallangan maydonlarni topshirish muddatlari buzilganligi (agar bu shartnoma va tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa);

buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga ilova qilingan alohida shartlarda belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha ishlar muddatlari va hajmlarining buzilganligi;

qurilish jarayonida yoki oraliq qabul qilish jarayonida buyurtmachi, mualliflik nazorati va nazorat organlari tomonidan aniqlangan ishlar va konstruktsiyalarda yo'l qo'yilgan chala ishlar va nuqsonlarni bartaraf etish kechikkanligi;

shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun buyurtmachi oldida mulkiy javob beradi.

Ish pudratchi tomonidan pudrat shartnomasidan chetga chiqib yoki boshqa nuqsonlari bo'lgan holda bajarilgan hollarda buyurtmachi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha hol belgilanmagan bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra pudratchidan:

nuqsonlar oqilona muddatda qoplashsiz bartaraf etilishini;

ish uchun belgilangan narx mutanosib miqdorda kamaytirilishini;

agar nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan buyurtmachining huquqi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, nuqsonlarni bartaraf etish bilan bog'liq

xarajatlar qoplanishini talab qilishga haqlidir.

Pudratchi nuqsonlarni bartaraf etish o'rniga bajarish muddati kechiktirilishi tufayli yetkazilgan zararlarni buyurtmachiga qoplagan holda ishni qaytadan tekin bajarishga haqlidir.

Agar pudratchi nuqsonlarni tomonlar tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmasa, buyurtmachi yoki foydalanuvchi tashkilot nuqsonni bartaraf etish ishlari qiymatini undirib olgan va nuqson o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun ko'rilgan zarar qoplangan holda nuqsonni pudratchi hisobidan o'z kuchlari bilan bartaraf etishga haqlidir.

Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida haq to'lanmagan taqdirda shartnomaga muvofiq aybdor tomon boshqa tomonga qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan tartibda neustoyka to'laydi.

Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur Nizomda nazarda tutilgan sanksiyalardan tashqari ularni buzgan tomon boshqa tomonga u tomonidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qolishi yoki shikastlanishida ifodalanadigan amaldagi zararlarni neustoyka (jarima, penya) bilan qoplanmagan summada qoplaydi.

Neustoyka (jarima, penya) to'lanishi, shuningdek majburiyatlar zarur darajada bajarilmaganligi uchun zararlarni qoplanishi tomonlarni shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishidan ozod etmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Buyurtmachi pudratchining aybi bilan shartnomani bekor qilishga majbur bo'lgan taqdirda, pudratchining kafili (u mavjud bo'lgan taqdirda) buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq ob'yekt qurilishini qurilish to'liq tamom bo'lgungacha davom ettirish majburiyatini o'z zimmasiga olishi yoxud unga berilgan kafolatdan kelib chiquvchi moliyaviy majburiyatlarni bajarishi mumkin.

Kafil ishni o'z kuchlari bilan tamomlashi yoki o'z xohishiga ko'ra istalgan pudratchini jalb etgan holda tamomlashi mumkin.

3.3. Bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurishni tashkil etish

Bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurish pudratchining loyihada nazarda tutilgan ishlarning butun hajmini, shu jumladan maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish, ob'yektni texnologiya va muhandislik

asbob-uskunalar bilan butlash bo'yicha majburiyatlarini nazarda tutadi hamda tayyor qurilish mahsuloti yaratishning yagona uzluksiz kompleks jarayoni sifatida amalga oshiriladi.

Bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurishda buyurtmachi va pudratchi qatnashchilar hisoblanadi.

Respublikamizda markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan yangi qurilishda, mavjud binolarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish va texnika bilan jihozlashda bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurish majburiy hisoblanadi.

Loyihalarni boshqa manbalar hisobiga amalga oshirishda ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda qurish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki tanlov savdolari shartlariga qarab qo'llanilishi mumkin.

Foydalanishga tayyor holda qurish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun pudratchi subpudratchi tashkilotlarni jalb etishi mumkin, ularga nisbatan pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Qurilishni qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar, konstruktsiyalar va buyumlar bilan, shuningdek barcha namunaviy asbob-uskunalar va apparatlar, nostandartlashtirilgan, texnologik va energetika asbob-uskunalar bilan, shu jumladan maxsus materiallar bilan ta'minlash pudratchining vazifasi hisoblanadi.

Bunda pudratchi shartnomada belgilangan kafolatli davrda ob'yektdan loyihada nazarda tutilgan parametrlarda foydalanilishi uchun buyurtmachi oldida mulkiy javob beradi.

Foydalanishga tayyor holda qurishda bino va inshootlarni mablag' bilan ta'minlash mablag' bilan ta'minlash jadvaliga muvofiq buyurtmachining avansi (30 foizgacha), joriy mablag' bilan ta'minlash (avans berish hisobga olingan holda 50 foizgacha), pudratchining o'z mablag'lari va bankning kreditlari hisobiga amalga oshiriladi.

Pudratchi bilan uzil-kesil hisob-kitob qilish buyurtmachi tomonidan qurilish tamom bo'lgandan va ob'yekt foydalanishga topshirilganidan keyin amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 12 maydagi 226-sonli Qaroriga muvofiq).

Bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurishda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bino va inshootlarni foydalanishga topshirilgunga qadar pudratchining balansida bo'ladi va uning soliq solinadigan

bazasiga kiritilmaydi.

3.4. Investitsiya loyihasini mablag' bilan ta'minlash jarayoni

1. Investitsiya loyihasini markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlash har qaysi ob'yekt bo'yicha ajratilgan kapital qo'yilmalar limitlari doirasiga qat'iy amal qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati va qurilishlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

2. Belgilangan tartibda tasdiqlangan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati kapital qo'yilmalarning tasdiqlangan limitiga muvofiq ob'ektlar qurilishining aniq ro'yxatida nazarda tutilgan qurilish uchun banklarning kreditlarini jalb etishda pudratchi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

3. Ajratilgan mablag'lardan buyurtmachi tomonidan qurilishlarning titul ro'yxatida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Mablag' bilan ta'minlashni ochish uchun buyurtmachi tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagilar taqdim etiladi:

qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati);

qurilishning titul ro'yxati;

buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi;

pudrat tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan shartnomasi nusxasi;

qurilish-montaj ishlarini bajarishga "Davarxitektqurilish" qo'mitasining ruxsati.

5. Buyurtmachi va pudrat tashkiloti o'rtasida investitsiya loyihasini amalga oshirish yuzasidan tuzilgan shartnomada va unga ilova qilinadigan mablag' bilan ta'minlash jadvalida quyidagilar hisobga olinishi zarur:

a) qurilishi yangidan boshlanayotgan tayyor holda foydalanishga topshiriladigan ob'ektlarni qurishda:

qurilishning dastlabki ikki oyi mobaynida avans to'lovlari tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda teng ulushlarda ajratilishi;

jam bo'lgan holda avans to'lovi ham hisoblanadigan avans berishni hisobga olgan holda ob'yekt qiymatining 50 foizgacha miqdorda joriy

moliyalashtirishni amalga oshirish.

Qolgan 50 foizni joriy moliyalashtirish pudratchi tomonidan o'z aylanma mablag'laridan va/yoki jalb etilgan mablag'lardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Qolgan 50 foizni pudratchiga yo'llash buyurtmachi tomonidan ob'yekt qurilishi tugagandan keyin tuzilgan shartnomaga muvofiq ikki bosqichda:

ob'yekt qabul qilish komissiyasi tomonidan qabul qilib olingan kundan boshlab bir oy mobaynida - kamida 45 foiz miqdorida;

shartnomada qayd etilgan kafolat muddati tamom bo'lgach - moliyaviy yil tamom bo'lishidan kechikmay 5 foizgacha miqdorda to'lanadi;

b) ob'yektlarni shartnoma asosida qurishda (2002 yilga o'tuvchi ob'yektlar, ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda qurish hollaridan tashqari): joriy oyma-oy moliyalashtirish ishlarning amalda bajarilishidan kelib chiqib 5 foiz miqdoridagi qolgan qismini shartnomada qayd etilgan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin, biroq moliyaviy yil tamom bo'lishidan kechikmay to'lagan holda ob'yekt qiymatining kamida 95 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

6. Tasdiqlanadigan limitlar doirasida alohida ob'yektlarni mablag' bilan ta'minlash yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tasdiqlangan alohida sxemalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

7. Markazlashtirilgan manbalar hisobiga ob'yektni foydalanishga tayyor holda qurilishini kreditlashda quyidagilar tijorat bankining kredit resurslari manbalari hisoblanadi:

tasdiqlangan Investitsiya dasturi bo'yicha kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish limiti doirasida markazlashtirilgan manbalardan mablag'larning (avans to'langandan va 50 foiz miqdorida joriy moliyalashtirilgandan keyin) pudrat qurilish tashkilotining asosiy depozit hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bosh bankka vaqtinchalik asosida oyma-oy beriladigan qolgan qismi;

xizmat ko'rsatuvchi bankning o'z mablag'lari va jalb qilinadigan mablag'lari. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 12 maydagi 226-sonli Qaroriga muvofiq)

Mablag' bilan ta'minlovchi organga buyurtmachi tomonidan quyidagilar taqdim etiladi:

qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq mo'ljalli ro'yxati);

qurilishning titul ro'yxati;

buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan pudrat tashkiloti tomonidan tuzilgan shartnoma nusxasi va tanlov savdolari natijalari to'g'risida buyurtmachining hisoboti;

har qaysi investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun ochilgan moliyalashtirishning har bir hisob raqami bo'yicha bank rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

9. Mablag' bilan ta'minlovchi organ buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda investitsiya loyihasini mablag' bilan ta'minlashni amalga oshiradi.

10. Xizmat ko'rsatuvchi bank bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun buyurtmachiga har qaysi qurilish ob'yekti bo'yicha "talab qilib olinadigan" alohida ikkilamchi depozit hisob raqamlari (keyingi o'rinlarda moliyalashtirish hisob raqamlari deb ataladi) ochiladi. Moliyalashtirish hisob raqamlaridan buyurtmachi ta'minoti bo'yicha xarajatlarga mablag' to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi.

11. Buyurtmachi ta'minotiga xarajatlar har oyda, alohida depozit hisob raqamidan belgilangan tartibda tasdiqlangan va moliyalashtiruvchi organlar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Pudrat tashkilotlarining tanlov savdolarida ishtirokini ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan, agar ularning o'z aylanma mablag'lari ob'yekt bo'yicha ishlar qiymatining 20 foizidan kamni tashkil etgan taqdirda, qurilish davomida aylanma mablag'larning yetishmayotgan qismini belgilangan miqdorgacha to'ldirish uchun kredit ajratish to'g'risida kafillik berilishi mumkin.

13. Tanlov savdolari pudrat tashkiloti tomonidan yutib chiqilgan taqdirda unga kafolat bergan tijorat banklari ushbu tashkilotlarga qurilishning butun davrida ularni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida ob'yektni ishga tushirish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun ob'yekt qiymatining 20 foizigacha bo'lgan miqdorda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit beradi.

Pudrat tashkilotiga kredit berish uchun bank tomonidan buyurtmachini moliyalashtirish hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bankning ma'lumotnomasi asosida qurilishning har bir ob'yektiga alohida ssuda hisob raqami ochiladi.

14. Kredit va foiz stavkalari miqdorlari, kreditni qaytarish va u bo'yicha foizlar to'lash muddatlari va tartibi bank bilan pudrat tashkiloti o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida belgilanadi.

15. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan moliyalashtirish hisob raqamidan pul mablag'larini o'tkazish buyurtmachi tomonidan to'lov topshirig'i taqdim etilgandan keyingi kun boshlanishidan kechikmay amalga oshiriladi.

16. Xizmat ko'rsatuvchi bank qonun hujjatlariga muvofiq mablag'lar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun javob beradi.

17. Buyurtmachi to'lov topshiriqlari qurilishning titul ro'yxatiga qat'iy muvofiq bo'lishi uchun javob beradi.

18. To'lov topshiriqnomasiga bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi "ma'lumotnoma - schyot-faktura" ilova qilinadi.

Ob'yektni foydalanishga tayyor holda qurishda joriy mablag' bilan ta'minlash ishlarni bajarish va mablag' bilan ta'minlash jadvallariga muvofiq amalga oshiriladi.

19. Avans to'lovi pudrat tashkilotining xizmat ko'rsatuvchi bankdagi talab qilib olinadigan depozit hisob raqamiga o'tkaziladi.

20. Moliyalashtirish hisob raqamidan qurilishning titul ro'yxatiga va unda ko'rsatilgan kapital qo'yilmalardan foydalanish yo'nalishlariga muvofiq bo'lmagan to'lovlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

21. Joriy mablag' bilan ta'minlash mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan amalda bajarilgan qurilish ishlari hajmi hisobga olingan holda har oyda 20-kundan kechikmay amalga oshiriladi.

3.5. Kapital qurilish jarayonida qatnashchilar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish tartibi

1. Investitsiya loyihasini amalga oshirish qatnashchilari o'rtasidagi hisob-kitoblar ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

2. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay, buyurtmachilar tomonidan moliya

organiga mazkur Nizomga muvofiq tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga belgilangan shakl bo'yicha markazlashtirilgan kapital qo'yilmalardan foydalanilishi to'g'risida hisobotlar taqdim etiladi.

3. Bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurishda buyurtmachi tomonidan moliya organiga mablag' bilan ta'minlash jadvaliga muvofiq qiymatining 50 foizi doirasida ob'yekt qurilishiga avans berish va joriy mablag' bilan ta'minlash uchun mablag' ajratishga buyurtmanoma taqdim etiladi.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshirilayotgan kapital qurilishni mablag' bilan ta'minlash va kreditlash sxemasi 3.1-jadvalda keltiriladi.

3.1-jadval. Markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan kapital qurilishni moliyalashtirish va kreditlash sxemasi

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlari	Mas'ullar
1	2	3	4
1-bosqich	Tasdiqlangan Investitsiya dasturiga muvofiq buyurtmachilar (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, ta'lim muassasalari, injineriing kompaniyasi) qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlarini, kelgusi yillar loyihalash ishlarining aniq ro'yxatlarini belgilangan tartibda kelishib oladilar va tasdiqlaydilar	10 yanvargacha	Buyurtmachilar (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, ta'lim muassasalari, injineriing kompaniyasi), pudratchilar
2-bosqich	Xizmat ko'rsatuvchi bankda moliyalashtirish boshlanadi	yanvar	Buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
1	2	3	4
3-bosqich	Yilning dastlabki ikki oyida teng ulushlarda ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda avans ajratiladi	yanvar-fevral	Moliyalashtiruv-chi organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
4-bosqich	Ob'yekt moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallariga muvofiq berilgan avans hisobga olingan holda ob'yekt qiymatining 50 foiziga miqdorda joriy moliyalashtiriladi	moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallariga muvofiq	Moliyalashtiruv-chi organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
5-bosqich	Pudratchi tomonidan qurilish ob'yekti qiymatining qolgan 50 foizini moliyalashtirish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankda kredit rasmiylashtiriladi	moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallariga muvofiq	Pudratchilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
6-bosqich	Qurilish ob'yekti qiymatining 45 foizi miqdorida haq to'lanadi	ob'yekt qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida	Moliyalashtiruv-chi organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi banklar
7-bosqich	Qurilish ob'yekti qiymatining 5 foizi miqdorida haq to'lanadi	kafolatli muddat tugagandan keyin	Moliyalashtiruv-chi organlar, buyurtmachilar, xizmat ko'rsatuvchi

			banklar
--	--	--	---------

Tayanch iboralar

Moliyalashtirish manbalari, markazlashgan mablag'lar, xususiy va jalb qilingan mablag'lar, shartnomalar, kapital qurilish jarayoni qatnashchilari, shartnoma tuzish, tayyor holda qurish, mablag' bilan ta'minlash jarayoni

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bino va inshootlar qurilishini mablag' bilan ta'minlash manbalarini sanab bering?
2. Kapital qurilish ishlarini tashkil etishda shartnomalar tuzish tartibini tushintirib bering
3. Pudrat shartnomasi buyurtmachi va pudratchilar o'rtasidagi qanday xo'jalik munosabatlarini belgilab beradi?
4. Tayyor holda qurish shartnomaviy munosabatlarida pudratchining asosiy vaziflari nimalardan iborat?

IV. QURILISH JARAYONINI BOSHQARISH

4.1. Yagona buyurtmachi xizmati - injiniring kompaniyalari va ularning vazifalari

Respublikamizda yagona buyurtmachi xizmatining faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son qarorining 6-ilovasida tasdiqlangan "Ob'yektlarni markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurishda yagona buyurtmachi xizmati to'g'risida namunaviy Nizom"ga muvofiq tashkil etiladi. Oliy ta'lim muassaslarida ham bino va inshootlar qurilishi va mavjud binolarni kapital ta'mirlash ishlari yagona buyurtmachi xizmatlari orqali tashkil etiladi.

Yagona buyurtmachi xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy vazifalariga:

-qurib ishga tushirilishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlarini va ijtimoiy soha ob'yektlarini mo'ljallangan muddatlarda foydalanishga topshirish prognozining bajarilishini ta'minlash;

-loyiha yechimlarining samaradorligini ta'minlash, arxitektura va shaharsozlik darajasi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

-kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish, investitsiya sikli muddatlarini qisqartirish kiradi.

Yagona buyurtmachi xizmati ob'yektlarni markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishini tashkil etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston Respublikasining ayrim vazirliklari va idoralari tomonidan tashkil etiladi.

Yagona buyurtmachi xizmati markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilayotgan ob'yektlar qurilishini boshqarish va texnik kuzatuv funktsiyalarini amalga oshiradi.

Yagona buyurtmachi xizmati funktsiyalarini buyurtmachilarning mintaqalarda faoliyat ko'rsatayotgan byudjetdan ta'minlanuvchi xizmatlarini yagona organ tarzida birlashtirish negizida yuridik shaxs sifatida tashkil etiladigan **injiniring kompaniyalari** amalga oshiriladi.

Injiniring kompaniyasi ob'yektlarning, pudratchilar bilan tanlov savdolari natijalariga ko'ra va qonun hujjatlariga muvofiq tuziladigan shartnomalar asosida ob'yektlarning foydalanishga tayyor holda qurilishini ta'minlaydilar.

Kompaniya tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha investitsiya jarayoni qatnashchilari ishini muvofiqlashtirib o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, yuqori turuvchi organning qarorlari hamda "Ob'yektlarni markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurishda yagona buyurtmachi xizmati to'g'risida Nizom" asosida amalga oshiradi.

Yagona buyurtmachi xizmati tomonidan amalga oshiriladigan asosiy vazifalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

a) Viloyatlar, vazirliklar va idoralar bo'yicha Respublika Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning parametrlarini aniqlashtiradi va prognozlashtirish;

b) bino va inshootlar qurilishini loyihalashtirishni tashkil etadi;

v) qurilish maydonini tayyorlash;

g) qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish, hisob va hisobotlarni olib borish;

d) qurilishi tugallangan ob'yektlarni foydalanishga qabul qilib olish.

a). Yagona buyurtmachi xizmati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va

idoralarning topshirig'iga ko'ra hamda keyinchalik belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etish uchun unga yangi loyihalarni kiritish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

tasdiqlangan investitsiya dasturlari va markazlashtirilgan manbalarning ajratilgan limitlari asosida keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishish uchun qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati loyihasini tayyorlaydi;

pudratchi bilan kelishgan holda qurilishning titul ro'yxatini tasdiqlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga, vazirliklar va idoralarga kiritadi;

investitsiya loyihalari joylashtiriladigan tumanlarda muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish (yo'llar, kanalizatsiya, issiqlik, elektr, gaz, suv ta'minoti, telefonlashtirish, radiolashtirish va boshqalar) masalalarini ko'rib chiqish va hal etishda ishtirok etadi;

b) Yagona buyurtmachi xizmati loyihani ishlab chiqish uchun birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni va tanlov hujjatlarini tayyorlaydi, "loyiha" bosqichida loyihalashtirish bo'yicha ishlarga buyurtma tanlov asosida joylashtirilishini tashkil etadi;

loyihalashtirishga topshiriq beradi;

tanlov savdosi g'olibi bilan shartnoma tuzadi va hamda loyihani loyiha hujjatlarini berish ishlarining kalendar jadvalini kelishadi;

tegishli tashkilotlar bilan eksperimental, ilmiy-tekshirish, arxeologiya ishlari va boshqa ishlarni bajarishga shartnomalar tuzadi;

bajaruvchilar tomonidan shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

loyiha va tanlov hujjatlari ekspertizadan o'tkazilishini, kelishilishini, tasdiqlanishini, shuningdek ekspertizaning vakolatli organlari xulosalari hamda pudrat tashkilotlarining mulohazalari bo'yicha tegishli hujjatlarga tuzatish va qo'shimchalar kiritilishini tashkil etadi;

v) Yagona buyurtmachi xizmati qurilish uchun maydon tanlash va ajratish bo'yicha komissiyalar ishida ishtirok etadi;

qurilish uchun yer uchastkalari ajratish to'g'risidagi hujjatlarni rasmiylashtiradi va belgilangan muddatlarda belgilangan tartibda pudratchilarga beradi, tegishli organlar va foydalanish xizmatlarining ruxsatnomalari;

elektr uzatishlarning havodagi liniyalari va aloqa liniyalari hududida, temir yo'llar polasasida, qurilish maydonida joylashgan yer osti kommunikatsiya tarmoqlari (kabel, gaz quvurlari, kanalizatsiya tarmoqlari va boshqalar) o'tadigan joylarda ishlarni bajarish;

qurilish davrida shaharlarda va boshqa aholi punktlarida o'z gaz, suv, bug' va elektr ta'minoti bo'lmagan taqdirda qurilishni tashkil etish loyihasiga muvofiq mavjud manbalardan olinadigan elektr energiyasi, gaz, suv va bug'dan foydalanish;

o'rmonni kesish va daraxtlar o'tqazish, zarur hollarda esa daraxtlarni kesishga pudrat qurilish tashkilotlariga ruxsat berish;

ob'yekt qurilishi hududidagi buzilishi, boshqa joyga ko'chirilishi yoki rekonstruktsiya qilinishi kerak bo'lgan uylarda yashovchi fuqarolarni ko'chiradi;

fuqarolarga zarurat bo'lganda amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ob'yektning umumiy qiymati doirasida olib qo'yiladigan meva, rezavor meva daraxtlari va ekinlar qiymatini, shuningdek fuqarolarga xususiy mulk huquqi bilan tegishli bo'lgan buzilishi kerak bo'lgan turar joylar va imoratlar qiymatini qoplaydi;

davlat tashkilotlariga, xususiy tashkilotlarga va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan buziladigan binolar va inshootlarning qoldiq balans qiymati hisob-kitobini, shuningdek uning ob'yekt qurilishi loyihasiga kiritilishi asoslilikini tekshiradi;

buziladigan imoratlar, inshootlardan chiqadigan qaytariladigan materiallar, shuningdek qo'shimcha ravishda qazishda olinadigan materiallar sotilishini ta'minlaydi;

qurilish uchun geodezik ajratish asosi barpo etadi;

ob'yektlarni Davlat arxitektura-qurilish nazorati organlarida ro'yxatdan o'tkazadi, shuningdek pudrat tashkilotlarida faoliyat turiga va ishlarni bajarishga litsenziyalar, mualliflik va texnik nazorat borligini tekshiradi hamda qurilish-montaj ishlarini bajarishga ruxsatnoma oladi.

g) Yagona buyurtmachi xizmati ob'yektni loyihalashtirish va foydalanishga tayyor holda qurish ishlari (xizmatlari) ijrochilarini tanlash bo'yicha tanlov savdolarini tashkil etadi va o'tkazadi;

loyihalashtirishga va pudrat ishlariga loyiha va pudrat tashkilotlari, tanlov savdolarining g'oliblari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi;

loyiha boshqarilishini va ob'yektlar qurilishi texnik kuzatilishini ta'minlaydi;

tanlov asosida belgilangan yoki belgilangan tartibda aniqlangan kelishilgan shartnomaviy narx asosida qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlarini tuzish va aniqlashtirish uchun takliflar kiritadi;

ishlab chiqarish quvvatlari va ob'yektlar shartnomaga muvofiq muddatidan oldin ishga tushirilganda pudratchiga beriladigan mukofot summasini belgilaydi;

moliyalashtirishning kelishilgan jadvalini hisobga olgan, buning uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni moliyalashtiruvchi bankka taqdim etgan holda loyihalash ishlari va ob'yektlar qurilishi o'z vaqtida ochilishi va joriy moliyalashtirilishini ta'minlaydi;

buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini yuritadi, tasdiqlangan shakllarga muvofiq faoliyat turlari bo'yicha hisobotlarni belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdim etadi hamda ularni ishonchliligi uchun javob beradi;

qurilishda band bo'lgan pudrat, loyiha-qidiruv tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovga taqdim etilgan ma'lumotnoma-schyot-fakturalarini tekshiradi;

bajarilgan ishlarga belgilangan tartibda haq to'laydi (bajarilgan ishlar hajmi va qiymati to'g'risida imzolangan ma'lumotnoma-schyot-fakturalar asosida), shuningdek qurilishi tugallangan ob'yekt bo'yicha uzil-kesil hisob-kitob qiladi;

shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi va zarur darajada bajarilmaganligi uchun pudrat, loyiha-qidiruv tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga neustoyka (jarima, penya) to'lash to'g'risidagi da'volarni o'z vaqtida taqdim etadi;

ob'yektni foydalanishga tayyor holda qurishda ishlarni bajarish va ob'yekt qurilishini moliyalashtirish jadvallariga muvofiq pudratchiga avans beradi va uni joriy moliyalashtiradi;

ob'yekt qurilishini kuzatib boradi va texnik nazorat qiladi;

d) Yagona buyurtmachi xizmati qurilish normalari va qoidalariga, boshqa amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq qurilishi tugallangan ob'yektlarni foydalanishga qabul qilib oladi, shu jumladan:

qurilishi tugallangan ob'yektlar bo'yicha davlat qabul qilish komissiyasiga zarur hujjatlarni taqdim etadi (pudrat tashkilotlar bilan birgalikda);

foydalanishga qabul qilingan ob'yektlarni, ijro hujjatlarini, ishchi va davlat komissiyasining qabul qilish dalolatnomalarini barcha ilovalar bilan birgalikda foydalanuvchi organlar balansiga beradi;

normativ hujjatlar talablari buzilgan va loyiha hujjatlari yechimidan chetga chiqqan holda qurilgan ob'yektlar foydalanishga qabul qilib olinganligi uchun javob beradi.

4.2. Qurilish ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnoma olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi hududida idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yangi qurilayotgan, rekonstruktsiya qilinayotgan, texnika bilan qayta jihozlanayotgan va zamonaviylashtirilayotgan mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish yo'nalishidagi ob'yektlar Davlat arxitektura va qurilish Qo'mitasi tasarrufidagi "Boshdavarxitektqurilish-nazorat" boshqarmasi va uning joylardagi organlaridan ro'yxatdan o'tkaziladi. Ro'yxatdan o'tkazish tartibi va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 27 dekabrda 509-son Qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnomalar berish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bevosita Respublika "Boshdavarxitektqurilishnazorat" boshqarmasi tomonidan quyidagi qurilish ob'yektlari ro'yxatdan o'tkaziladi:

respublikaning bir nechta mintaqalari hududlarini qamrab oladigan muhandislik kommunikatsiyalari va infratuzilmalari ob'yektlari;

respublikaning turli mintaqalarida amalga oshirilayotgan, buyurtmachilari Toshkent shahrida joylashgan ob'yektlar;

eksperiment tariqasida amalga oshirilayotgan va kapital qurilishda tashkiliy-texnik jihatdan yangilik bo'lgan ob'yektlar.

Qolgan barcha qurilish ob'yektlari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnomalar berish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiylari tomonidan amalga oshiriladi.

Qurilish ob'yektini ro'yxatdan o'tkazish uchun buyurtmachilar (injiniring kompaniyasi va ta'lim muassasalari) tomonidan ro'yxatdan o'tkazuvchi organga quyidagilar taqdim etiladi:

- a) belgilangan shakldagi ariza;
- b) davlat ekspertiza organlarining ishchi loyiha bo'yicha ijobiy yig'ma ekspert xulosasi yoki ob'yekt qurilishi loyihalash bilan ayni bir vaqtda olib borilgan taqdirda - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori;
- v) ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasi;
- g) qurilish-montaj ishlarining ayrim litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish uchun pudrat tashkiloti litsenziyasi nusxasi;
- d) arxitektura organlari bilan kelishib olingan ob'yektning bosh rejasi va fasadlari nusxasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi Shaharsozlik kengashining tegishli protokoli;
- e) qurilish ob'yektining aniq ro'yxati taqdim etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ texnik-iqtisodiy asoslashlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ob'yektlar bo'yicha ko'pi bilan 10 kun muddatda va qolgan ob'yektlar bo'yicha 5 kun muddatda buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi, shular asosida qurilish ob'yektini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Hujjatlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan 2 nusxada ob'yektni ro'yxatdan o'tkazish varaqchasi rasmiylashtiriladi va ob'yektlar qurilishini ro'yxatdan o'tkazish jurnaliga tegishli yozuv yozib qo'yiladi. Ro'yxatdan o'tkazilgan qurilish ob'yekti uchun inventar hujjatlar yig'ma jildi yuritiladi.

Jurnalni va inventar hujjatlar yig'ma jildini yuritish va saqlash tartibi Davlat arxitektura-qurilish nazorati bosh boshqarmasi tomonidan belgilanadi. Arxitektura-qurilish nazorati inspeksiylari tomonidan buyurtmachiga qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun ruxsatnoma beriladi.

6. "Qurilish ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnomalar berish tartibi to'g'risida Nizom" da keltirilgan kamchiliklar aniqlangan hollarda qurilish ob'yektini ro'yxatdan o'tkazish rad etilishi mumkin.

4.3. Qurilish-ta'mirlash ishlarini tashkil etish va qurilish jarayonini

nazorat qilish

Amalga oshiriladigan qurilish ta'mirlash ishlari tashkil etilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhga, kichik hajmdagi tashkilot-muassasaning yillik moliyaviy smetasi va manzilli ro'yxatiga kiritilgan qurilish ta'mirlash ishlari.

Ikkinchi guruhga davlat investitsiya dasturiga kiritilgan va vazirlikning rivojlantirish fondi yoki boshqa investorlar tomonidan moliyalashtiriladigan katta hajmdagi bino va inshootlarni qurish va kapital ta'mirlash (rekonstruktsiya qilish) ishlari kiradi.

Tashkilot va muassasalar birinchi guruhga kiruvchi, umumiy qiymati 50 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda bo'lgan ta'mirlash ishlari ichki tender (tanlov) asosida pudratchi tashkilot yollash orqali yoki muassasa ta'mirlash bo'limi tomonidan, xo'jalik usulida bajarilishi mumkin.

Ichki tender o'tkazish maqsadida (buyurtmachi) tashkilot tomonidan qurilish-ta'mirlash ishlariga dastlabki loyiha-smeta hujjatlari (maxsus litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga buyurtma berish orqali) va tanlov shartlari tayyorlanadi. Institut rektori buyrug'i bilan tender komissiyasi tuziladi va qurilish ta'mirlash ishlariga tender e'lon qilinadi. Pudratchi tashkilotlar tanlov nomzodlari (ofertlar) sifatida komissiya tomonidan talab etilgan hujjatlarni tender komissiyasiga taqdim etadilar. Tender komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom"ga muvofiq pudratchi tashkilotni aniqlaydi. Pudratchi tashkilot ekspertizadan o'tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari asosida va belgilangan muddatlarda qurilish ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi. Odatda, bajarilgan ishlarni rektor buyrug'i bilan tayinlangan tender komissiyasi, bino va inshootlar ekspluatatsiyasi bilan bog'liq mas'ul xodimlar ishtirokida qabul qilib oladi va qabul dalolatnomasi (schet-faktura bilan) rasmiylashtiriladi.

Tashkilot va muassasalarda yangi bino va inshootlarni qurish, mavjudlarini to'la kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlari katta hajmdagi mablag'lar talab etadi. Bunday kapital qurilish ishlari asosan davlat investitsion dasturiga kiritish orqali byudjet mablag'lari, tashkilot va muassasalar hamda vazirliklarning byudjetdan tashqari mablag'lari, investorlar hamda homiylar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Alohida holatlarda

(tashkilot-muassasa yubileyi, xalqaro va davlat ahamiyatidagi tadbirlar o'tkazilishi va boshqa hollarda) Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq boshqa man'alar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Moliyalashtirish manbayidan qat'iy nazar ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanish ma'suliyati ijrochi tashkilotlar bilan bir qatorda buyurtmachi-tashkilot-muassasa zimmasida bo'ladi. Shu sababli qurilish-ta'mirlash ishlarining borishi va ajratilgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanilayotgani ustidan nazorat olib borishning doimiy mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bunday mexanizmni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan tasdiqlangan «Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida Nizom», hamda «ShNK 3.01.01-03 – Qurilish ishlarini tashkil etish talablari»dan kelib chiqiladi.

Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan ob'yektlar qurilishini tashkil etish bilan bog'liq barcha vazifalarni bajarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son Qarorining 6-ilovasida keltirilgan «Ob'yektlarni markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishda yagona buyurtmachi xizmati to'g'risida namunaviy Nizom» asosida injiniring kompaniyasi zimmasiga yuklatiladi. Alohida hollarda Vazirlar Mahkamasi qarorida qurilish uchun mas'ul bo'lgan ijrochi tashkilot (trest, kompaniya va boshqalar) ko'rsatiladi.

Markazlashgan mablag'lar hisobidan tashkilot va muassasalar uchun bino va inshootlar qurilishi ishlarini tashkil etishda asosiy mas'uliyat injiniring kompaniyasi zimmasiga yuklatiladi.

Kapital qurilish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish ishlari injiniring kompaniyasi zimmasiga yuklanishidan qat'iy nazar, qurilish-ta'mirlash ishlarining borishi va ajratilayotgan mablag'larni maqsadli sarflanayotganligi ustidan umumiy nazorat o'rnatish va monitoring olib borish ishlari buyurtmachi tashkilot (vazirlik va tashkilot va muassasalar) tomonidan amalga oshiriladi.

Qurilish jarayoni tashkiliy jihatdan uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1. qurilishni tashkil etish;
2. kapital qurilish ishlarini amalga oshirish;


3. qurilishni yakunlash va binoni foydalanishga topshirish.

I. Qurilishni tashkil etish jarayoni asosan buyurtmachi va injiniring kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda buyurtmachi tomonidan injiniring kompaniyasiga loyihalashtirish va qurilishni tashkil etish bo'yicha topshiriq beriladi. Qurilishni tashkil etish jarayonida amalga oshiriladigan ishlar 4.1-rasmda keltiriladi. Vazirlik va tashkilot qurilishni tashkil etish jarayonida ishning borishi va bino loyihasining talabga javob berish ustidan nazorat ishlarini olib boradi. Bunda:


1. Buyruq asosida qurilish ishlarini nazorat qilish bo'yicha mas'ul xodimlar tayinlanadi;

2. Injiniring kompaniyasi o'tkazadigan loyihachi va pudrat tashkilotlari tanlovi bo'yicha tender komissiyasi tarkibida buyurtmachi vakillari qatnashishi ta'minlanadi;

4.1-rasm. Markazlashgan mablag'lar hisobidan bino va inshootlar qurilishini tashkil etish tartibi



3. Qurilishni tashkil etish bo'yicha 4.1 – rasmda keltirilgan jarayonlarni belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlanishini nazorat qiladi;



4.2-rasm. Ta'lim muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlarini boshqarish

4. Loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlash va pudratchiga topshirish bo'yicha komissiyalari faoliyatida ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlari ustidan **umumiy nazorat** – oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining qurilish va ta'mirlash ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruvni amalga oshirish sxemasi 4.2-rasmda keltiriladi.

Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq davlat investitsiya dasturiga kiritilgan va byudjetdan tashqari manbalardan moliyalashtiriladigan katta hajmdagi kapital qurilish ishlarini tashkil etish ishlari vazirlik buyrug'i asosida vazirlikning injinering kompaniyasi yoki ta'lim muassasasi hududiy joylashishi bo'yicha viloyat injinering kompaniyasiga topshiriladi. Injiniring kompaniyasi "Ob'yektlarni markazlashtirilgan manbalar xisobiga kurishda yagona buyurtmachi xizmati to'g'risida namunaviy Nizom" asosida ob'yekt qurilishini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va foydalanishga topshirish bilan bog'liq barcha vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Qurilish ta'mirlash ishlarini grafik asosida kechikmasdan bajarilishi, ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish va bajarilgan ishlar sifati ustidan umumiy nazorat vazirlik zimmasida qoladi. Vazirlikda nazorat ishlari taqqoslash usulida tashkil etiladi. Shu sababli har oy yakunida qurilish ishlarining borishi to'g'risida injiniring kompaniyasi va buyurtmachi ta'lim muassasasi axborot taqdim etadi. Vazirlik bo'yicha qurilish ob'yektlarda ishlarining borishi va moliyalashtirish holati to'g'risida oylik hisobot vazirlik apparati yig'ilishlarida muhokama qilib boriladi.

II. Kapital qurilish ishlarini amalga oshirish jarayoni binoni bunyod etish bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladigan murakkab texnologik jarayon bo'lib, bunda har bir ish maxsus mutaxassislik va malakaga ega bo'lgan quruvchi ishchi-xodimlar tomonidan bajariladi. Shu sababli qurilish ishlari turli guruhlariga bo'lingan holda bosh pudratchi va ixtisoslashgan pudratchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Pudratchi va subpudratchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan kapital qurilish ishlarini nazorat qilish ishlari uch guruhga bo'linadi:

1. Qurilishning borishi ustidan Injiniring kompaniyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ob'yektlarni markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurishda

yagona buyurtmachi xizmati to'g'risida namunaviy Nizom" keltirilgan nazorat ishlari amalga oshiriladi:

2. Avtorlik nazorati (avtorskiy nadzor) qurilishni loyiha hujjatlari asosida va texnologiyalarga amal qilgan holda bajarilishi loyiha tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

3. Qurilish ishlarining belgilangan grafik asosida borishi va moliyaviy mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan buyurtmachi nazorati olib boriladi.

1. Qurilishning borishi ustidan **loyiha-smeta hujjatlari asosida qurilishni nazorat qilish** ishlari maxsus tuzilgan va qurilish ishlari boshlangandan ob'yekt ekspluatatsiyaga topshirilgunga qadar faoliyat olib boruvchi komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya tarkibi injiniring kompaniyasi texnik nazoratchisi boshchiligidagi loyihalashtirish instituti vakillari (loyiha bosh injineri va bosh arxitektori), bosh pudratchi tashkiloti vakili va buyurtmachi (ta'lim muassasasi yoki vazirlik) vakillaridan shakllantiriladi. Komissiya qurilish ishlarining har bir bosqichi yakunida ish sifatini va ishlatilgan qurilish materiallari sifatini nazorat qilib boradi. Bajarilgan ishlar sifatini tekshirib KMK-1.03.11-07da keltirilgan namunada tekshiruv dalolatnomasi (**akt skritiya**) tuzadi. Zarur hollarda komissiya har bir bosqichda keltirilgan konstruksiyalar sifatini va belgilangan standartlarga javob berishini sinovdan o'tkazishi, bosqichda belgilangan ishlar bajarilganidan keyin ishlatilgan qurilish materiallari qotishmasidan (betondan) namunalar olib Davlat arxitektura nazorat inspeksiyasi laboratoriyasida tekshiruvdan o'tkazib boradi. Qurilish davomida o'tkazilgan tekshiruv xulosalarini yig'adi.

2. Avtorlik nazorati bino qurilishini loyiha-smeta asosida olib borilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi. Avtorlik nazorati KMK 1.03.07-96 "Qurilishda avtorlik va texnik nazorat to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi.

Bino loyihasidagi har bir konstruktiv qism va muhandislik tizimlariga faqat arxitektor va muhandis-konstruktor roziligi bilan loyiha hujjatlariga tegishli tuzatishlar kiritgan holda o'zgartirish kiritishga ruhsat etiladi. Bunday tuzatishlar buyurtmachi roziligi bilan amalga oshirilishi lozim.

4.4. Qurilish ishlari kalendar rejasini tuzish va uning asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish montaj ishlarini samarali tashkil etish maqsadida qurilishni tashkil etish ishlari loyihalashtiriladi. Qurilishni tashkil etish loyihasi ob'yekt

ishchi loyiha hujjatlari tarkibiga kiradi. Odatda ijtimoiy soha bino va inshootlari qurilishini loyihalashtirilganda ***qurilishni tashkil etish loyihasi*** (proekt organizatsiya stroitelstva) mustaqil bo'lim sifatida shakllantiriladi.

qurilishni tashkil etish loyihasi tarkibi ShNQ-3.01.01-03da belgilangan qoidalar asosida shakllantiriladi. Ijtimoiy sohada foydalaniladigan alohida bino va inshootlarga qurilishni tashkil etish loyihasi qisqartirilgan hajmda tuziladi va quyidagilardan tashkil topadi:

- qurilishning kalendar rejasi;
- qurilishning bosh rejasi (stroygenplan);
- qurilish-montaj ishlari va maxsus qurilish ishlari ro'yxati;
- qurilish konstruktsiyalari, buyumlari va materiallariga ehtiyoj grafigi;
- qurilish mashinalari va mexnizmlariga ehtiyoj grafigi;
- quyidagilarni yoritib beruvchi qisqa tushuntirish xati;
- qurilish montaj ishlarida qo'laniladigan asosiy usullar;
- maxsus transport vositalariga, ishchi kadrlarga, material-texnik resurslarga bo'lgan ehtiyoj;
- energiya resurslariga (elektroenergiya, suv, gaz, bug', kislorod va boshqalar) ehtiyoj;
- ishlarni uzluksiz tashkil etish tartibi va usullari va boshqalar.

Qurilishning kalendar rejasi – ob'yekt bo'yicha qurilish montaj ishlarini amalga oshirish ishlari ish turlariga ko'ra (binoning asosiy konstruktiv elementlari va muxandislik kommunikatsiyalariga) bo'lgan holda shakllantirilgan grafikdir.

Qurilishning bosh rejasi (stroygenplan) qurilishining asosiy va vaqtinchalik maydonchalarini va ularga keluvchi yo'llar, elektr tarmoqlari, asosiy kommunikatsiyalar va omborxonalari aks ettiruvchi grafik model bo'lib, muhimligi jihatidan (qurilishning kalendar rejasidan keyin) ikkinchi o'rinda turadi.

Qurilishning kalendar rejasi va bosh rejasiga asoslangan holda **qurilish ishlarini bajarish loyihasi** ishlab chiqiladi va unda:

- ob'yektda qurilish ishlarini bajarishning kalendar rejasi;
- qurilishning bosh rejasi (stroygenlan);
- qurilish konstruktsiyalari, buyumlari, asosiy materiallari va jihozlarini yetkazib berish grafigi;

- mutaxassisliklar bo'yicha quruvchi kadrlarni ta'minlash grafigi;
- asosiy qurilish mashinalari bilan ta'minlash grafigi;
- bajariladigan ishlar texnologik kartalari;
- qurilish-montaj ishlari sifatini tekshirish va nazorat qilish hujjatlari;
- energiya resurslariga (elektroenergiya, suv, gaz, bug', kislorod va boshqalar) ehtiyojni asoslab beruvchi qisqacha tushuntirish xati;

Qurilish ishlarini bajarish loyihasi asosida qurilish ishlarini bajarishning kalendar rejasi tuziladi.

Qurilish ishlarini bajarishning kalendar rejasi ob'yekt bo'yicha qurilish maydonchasini tayyorlashdan boshlab ob'yektni ishga tushurgungacha bo'lgan qurilish-montaj ishlarini bajarilishi ketma-ketligida tuzilgan Setevoy grafik yoki chiziqli reja hisoblanadi (4.1-jadval).

Chiziqli rejaning birinchi gorizontal qatorida vaqt birligi (kunlar, haftalar, dekadalar va oylar kesimida) keltiriladi. Qurilishi bir necha yil davom etuvchi ob'yektlar uchun chiziqli reja kalendar yillarga bo'lingan holda tuziladi. Birinchi vertikal ustunda qurilish ta'mirlash ishlari, turlari bo'yicha texnologik ketma-ketlikda joylashtiriladi. Har bir ish turi joylashgan qatorda shu ishning bajarilish muddatlari (boshlanish vaqtidan yakunlanish vaqtigacha kataklarni to'ldiruvchi chiziq shaklida) beriladi.

Kalendar rejani tuzishda pudrat tashkilotining tender materiallarida keltirilgan qurilishni amalga oshirish muddatini e'tiborga olish lozim. Tenderda g'olib chiqqan pudrat tashkilotning oferta taklifida qurilishni aynan o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin bo'lgan muddatini belgilaydi.

Shuningdek qurilishning kalendar rejasini tuzishda loyiha-smeta hujjatlariga asoslanish lozim bo'ladi.

Qurilish ob'yektining loyiha-smeta hujjatlari ish turlaridan kelib chiqib guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhdagi qurilish ishlari uchun tuzilgan resurs smetasida shu guruhga kiruvchi ishlarni amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqt birligi (t) (kishi/soatda) beriladi. Barcha guruhlariga kiruvchi qurilish ishlari uchun sarflanadigan vaqt birligi yig'indisi ($\sum t$) esa mazkur ob'yektni qurib ishga tushurish uchun zarur bo'lgan vaqt birligini tashkil etadi va quyidagi formula bilan topiladi:

$$(t_1) + (t_2) + (t_3) + \dots + (t_n) = \sum t$$

4.1-jadval. _____ **ning** _____
 (OTM nomi) (ob'yekt nomi va manzili)
qurilish ishlari guruhlarida bajariladigan ishlarning turlari bo'yicha kalendar
REJASI

№	Bajariladigan ishlar nomi	Jami hajmi (Kishi/soatda)	Shundan:															
			oyi				oyi				oyi				oyi			
			1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
1	Qurilish maydonchasini tayyorlash ishlari																	
	1																	
	2																	
	3																	
	...																	
2	Poydevor qurilishi																	
	1																	
	2																	
	3																	
	...																	
3	Devor va to'siqlar qurilishi																	
	1																	
	2																	
	3																	
	...																	
4	Proyomlar (deraza va eshiklar)																	
	1																	
	2																	
	3																	

5	... Tom (krovlya) ishlari 1 2 3											
6	... Pollar yotqizish 1 2 3											
7	... Suv ta'minoti, kanalizatsiya va isitish tizimi, ventilyatsiya 1 2 3											
8	... Elektromontaj 1 2 3											
9	... Pardoqlash ishlari 1 2 3											
10	... Tashqi muxandislik kommunikatsiyalari 1 2 3											
11	... Jihozlash ishlari											

12	1											
	2											
	3											
	...											
13	Obodonlashtirish											
	1											
	2											
	3											
	...											
	Boshqa ishlar (binoni											
	foydalanishga tayyorlash 1											
	1											
	2											
	3											
	...											
	Jami:											

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vakili

(imzo)

(OTM nomi) ning vakili

(imzo)

Pudrat tashkiloti rahbari

(imzo)

Kishi/soatda berilgan vaqt birligi yig'indisini bir smenali ish kuni davomiyligi 8 soatga bo'lish orqali ob'yekt qurilishga sarflanadigan kishi/kunlari (K) miqdori topiladi:

$$(\sum t / 8) = K$$

Kishi/kunlari miqdorining qurilishda jalb etiladigan ishchilar (R) soniga nisbati qurilish ishlarining davomiylik muddatini ko'rsatadi.

$$\frac{K}{R} = C$$

Ammo, qurilish ta'mirlash ishlarining davomiyligiga texnologik jarayonlarning ta'sir etishi hisobiga qurilishning umumiy kishi/kunlari o'lchovidagi miqdorining ishchilar soniga nisbatan olingan qurilishning davomiylik muddati (C) aniq muddat hisoblanmaydi.

Qurilish texnologiyasi bo'yicha qurilish maydonchasini tayyorlash (1-guruh) va poydevor qurilishi (2-guruh) ishlari ketmaketlikda davom etadi va bu davrda boshqa guruh ishlari boshlanmaydi. Qurilish texnologiyasi bo'yicha devor va to'siqlar qurilishining dastlabki bosqichida bino xonalarining bir qismi tiklanib, devorlari yetarli mustahkamlik darajasida qotgunga qadar boshqa guruh ishlar boshlanmaydi. Bu jarayon kamida 5 hafta yoki 30 kunni talab etadi.

Shu sababli, qurilish ishlari davomiyligi (C)ni hisoblashda pudrat tashkiloti oferta taklifida keltirilgan qurilish ishlarining guruhlar bo'yicha hisoblangan davom etish muddatini kalendar reja tuzishda asos sifatida olish lozim. Birinchidan bu vaqt birliklari guruhlardagi texnologik jarayonlarni hisobga olgan holda pudratchi tashkilotda mavjud ishchi kuchi miqdoridan kelib chiqib hisoblangan. Ikkinchidan, tenderda g'olib chiqqan mazkur tashkilot bilan qurilishni aynan shu muddatda amalga oshirish to'g'risida shartnoma tuzilgan.

Demak, yuqorida keltirilganlar asosida qurilishning har bir guruhiga kiruvchi ishlarga sarflanadigan vaqt birligidan qurilish ishlarining davomiylik muddatini quyidagi formula bilan topamiz:

$$\langle t_1 \rangle + \langle t_2 \rangle + \left\langle \frac{\frac{t_3}{8}}{\frac{R}{6}} + 30 \right\rangle + \frac{\left\langle \frac{t_4}{8} \right\rangle + \left\langle \frac{t_5}{8} \right\rangle + \dots + \left\langle \frac{t_n}{8} \right\rangle}{\frac{R}{6}} = C$$

Yuqorida keltirilgan qurilish ishlari davomiyligini hisoblashni Toshkent

arxitektura-qurilish institutining muhandis-servis fakulteti uchun o'quv binosi qurilishi misolida ko'rib chiqamiz:

1. Pudratchi tashkilot tomonidan taqdim etilgan oferta taklifida qurilish ishlarining resurs smetasi asosida quyidagilar berilgan bo'lsin:

4.2-jadval. Guruhlar bo'yicha qurilish ishlarini amalga oshirish ko'rsatkichlari

Qurilish ishlarining guruhlari	Resurs smetalari bo'yicha sarflanadigan vaqt birligi (t) (kishi/soatda)	Sarflanadigan kishi/kunlari ($K = t/8$)	Safarbar etiladigan ishchilar soni	Guruhda qurilish ishlari davomiyligi (kunlarda) $\langle \frac{t_1/8}{R} \rangle$
1. Qurilish maydonchasini tayyorlash	1440	180	30	6
2. Poydevor qurilishi	17280	2160	60	36
3. Devor va to'siqlar qurilishi	93600	11700	150	78
4. Proyemlar (deraza va eshiklar)	10368	1296	36	36
5. Tom (krovlya) ishlari	13056	1632	34	48
6. Pollar yotqizish	13728	1716	26	66
7. Suv ta'minoti, kanalizatsiya va isitish tizimi, ventilyatsiya	6912	864	24	36
8. Elektromontaj	4320	540	18	30
9. Pardoqlash ishlari	107520	13440	160	84
10. Tashqi muxandislik kommunikatsiyalari	4992	624	26	24
11. Jihozlash ishlari	5760	720	30	24
12. Obodonlashtirish	4224	528	22	24
13. Boshqa ishlar (binoni foydalanishga tayyorlash)	4608	576	32	18
Jami:	287808	35976	648	510

Jadval ma'lumotlariga ko'ra qurilish ishlarining davomiylik muddatini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}
 & \langle t_1 \rangle + \langle t_2 \rangle + \langle \frac{t_3/8}{R} \rangle + 30 + \frac{\langle \frac{t_4/8}{R} \rangle + \langle \frac{t_5/8}{R} \rangle + \dots + \langle \frac{t_n/8}{R} \rangle}{6} = \\
 & 6 + 36 + \langle \frac{78}{6} + 30 \rangle + \frac{36 + 48 + 66 + 36 + 30 + 84 + 24 + 24 + 24 + 18}{6} = \\
 & 6 + 36 + \langle 13 + 30 \rangle + 65 = 150 \text{ kun}.
 \end{aligned}$$

Toshkent arxitektura-qurilish institutining muhandis-servis fakulteti uchun o'quv binosi qurilishiga 150 ish kuni yoki 25 hafta davom etuvchi kalendar reja tuzish mumkin. Kalendar reja tuzishda quyidagilar asosiy ko'rsatkich sifatida olinadi.

- qurilish ishlarini moliyalashtirish grafigi;
- pudratchi tashkilotda yetarli resurslar (texnika va ishchi kuchi)

mavjudligi;

- qurilish materiallari, konstruktsiyalari va jihozlarini yetkazib berish imkoniyati;

- tender hujjatlari taklif etilgan qurilish ta'mirlash ishlarining muddati.

Agar yuqoridagi shartlar texnologik jarayonga asoslangan kalendar rejaga zid kelmasa tomonlar mazkur rejani tasdiqlaydilar va u qurilish jarayonini borishi ustidan nazorat qilishda asosiy hujjat hisoblanadi.

Toshkent arxitektura-qurilish institutining muhandis-servis fakulteti o'quv binosi qurilishga tuzilgan kalendar reja 4.3-jadvalda keltiriladi.

Buyurtmachi tashkilot aynan kalendar rejaga asoslangan holda qurilish ta'mirlash ishlari borishini nazorat qilib boradi.

Qurilishning kalendar rejasiga muvofiq bosh pudratchi tashkilot tomonidan qurilishning quyidagi ta'minot grafiklari ishlab chiqiladi:

- ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash grafigi;
- qurilish materiallari va konstruktsiyalari yetkazib berish grafigi;
- qurilish mashinalari va texnikasi bilan ta'minlash grafigi;
- Energiya resurslari (elektroenergiya, qisilgan havo, kislorod, gaz, bug' va boshqalar) ta'minlash grafigi.

Ta'minot grafiklari ham kalendar grafigi singari ta'minot birligini ish kunlari yoki haftalarga nisbati kesimida tuziladi.

Agar pudratchi tashkilotda qurilish ishlarining barcha guruhlarini bajarish uchun mutaxassis quruvchilar va resurslar mavjud bo'lmasa qurilishni o'z vaqtida topshirish uchun subpudratchilar yollanadi. Subpudratchi tashkilotlar injiniring kompaniyasi tomonidan ob'yekt qurilishi uchun tuzilgan tender komissiyasi tomonidan tanlab olinadi.

Subpudratchi tashkilotda maxsus ishlarni bajarish uchun ruxsatnoma bo'lishi shart. Subpudratchi tashkilot ma'lum garuhdagi yoki maxsus qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun bosh pudratchi bilan shartnoma tuzadi va u tomonidan bajarilgan ishlar bosh pudratchi tomonidan qabul qilib olinadi. Binoning qurilishi va foydalanishga topshirilishi jarayonida subpudratchi

**4.3-jadval. TAQI Muhandis-servis fakulteti 600 o'rinli o'quv binosi qurilishi haftalik
kalendar rejasi**

(Qurilish muddati 150 ish kuni. Boshlanishi 05.01.2009y. Tugashi 27.06.2009y.)

Qurilish ishlari guruhlari	Kishi / kunlari soni	Ishchi soni	Qurilish ishlari davomiyligi (haftalarda)																								
			05-10.01	12-17.01	19-24.01	26-31.01	02-07.02	09-14.02	16-21.02	23-28.02	02-07.03	09-14.03	16-21.03	23-28.03	30-04.04	06-11.04	13-18.04	20-25.04	27-02.05	04-09.05	11-16.05	18-23.05	25-30.05	01-06.06	08-13.06	15-20.06	22-27.06
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25
1.Qurilish maydoncha-sini tayyorlash	180	30																									
2.Poydevor qurilishi	2160	60																									
3. Devor va to'siqlar qurilishi	11700	150																									
5. Proemlar (deraza va eshiklar)	1296	36																									
4.Tom (krovlya) ishlari	1632	34																									
5. Pollar yotqizish	1716	26																									
6. Muxandislik tizimlari*	864	24																									
7. Elektromontaj	540	18																									
8. Pardoqlash ishlari	13440	160																									
9. Tashqi muxandislik kommunikatsiyalari	624	26																									
10. Jihozlash ishlari	720	30																									
11. Obodonlashtirish	528	22																									
12.Boshqa ishlar	576	32																									

tomonidan bajarilgan ishlar sifati va hajmi uchun ham bosh pudratchi javob beradi.

Subpudratchilarga shartnomada kelishilgan ish hajmini bajarish uchun kalendar grafik qilib beriladi. Texnologik jarayonlar va qurilish ishlarini yakunlash muddatiga ta'sir etmasligi uchun subpudratchi uchun tasdiqlangan kalendar grafikda belgilangan muddatlari asosiy kalendar grafikdan farq qilmasligi kerak.

4.5. Qurilishda bajarilgan ishlar hajmi va pudratchiga to'lanayotgan mablag'lar monitoringini olib borish.


Ko'p hollarda buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar o'rtasida bajarilgan ishlar uchun mablag' to'lovi masalasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Qurilish jarayonini reja asosida borishi pudratchi tashkilotni doimo yetarli mablag' bilan ta'minlab turishga bog'liq.

Pudratchini mablag' bilan ta'minlashda "Kapital qurilish jarayonida qatnashchilar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish tartibi" to'g'risidagi Nizom talablaridan kelib chiqiladi. Nizomda IV-bobning 5-chi savolida keltirilgan "Markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan kapital qurilishni moliyalashtirish va kreditlash sxemasi"ga muvofiq qurilish ishlarining dastlabki bosqichida 30% va ob'yekt yakunlangunga qadar 50% miqdorida moliyalashtirish nazarda tutiladi. Qolgan 50% mablag' esa ob'yekt foydalanishga topshirilgandan keyin (bir oy muddatda 45%, kafolati muddati tugagach 5% miqdorda) to'lanishi belgilangan.

Amalda ko'pgina hollarda pudratchi tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag' to'la o'zlashtirilmadan yoki kam hajmdagi ishlarni bajarib, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomada katta miqdordagi mablag'ni o'zlashtirilganligini rasmiylashtirish hollari ko'p uchraydi. Natijada mablag' yetishmovchiligi sababli qurilish ishlarida uzulishlar yuzaga keladi.

Uzoq davom etuvchi qurilish jarayonida ajratilgan mablag'dan samarali foydalanish qurilish ishlarini kalendar reja asosida to'htovsiz davom etishini ta'minlash zarur. Buning uchun buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlar va ajratilgan mablag'lar ustidan doimiy nazorat olib borish lozim bo'ladi.

Qurilish jarayonida buyurtmachi va nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan qurilish ishlarining kalendar reja ko'rsatkichlarini haqiqatda bajarilgan ish hajmi bilan solishtirib borish lozim bo'ladi.



Bunday tahlilni qurilish ishlarining har bir guruhiga kiruvchi ishlar bo'yicha olib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun-jadvalda keltirilgan shaklda qurilish ishlarini guruhlar bo'yicha umumiy hajmi aks ettiriladi.

Buning uchun guruhdagi har bir ish turiga sarflanadigan kishi/soatlari miqdoridan foydalaniladi.

Ob'yekt qurilishiga ajratilgan mablag'ni kishi/soati hisobida bajarilgan ish hajmi bilan taqqoslash orqali pudrat tashkiloti tomonidan ajratilgan mablag'ni o'zlashtirish suratini nazorat qilish mumkin.

Bunda qurilish ishlarini bajarilganligi to'g'risida dalolatnoma rasmiylashtirilgan miqdorini haqiqatda bajarilgan ish hajmi bilan solishtirib boriladi. Dalolatnomada rasmiylashtirilgan va haqiqatda bajarilgan ish hajmi o'rtasidagi tafovudni quruvchilarga ish haqi hisoblash uchun to'ldirilgan tabellardagi jami bajarilgan ishlar vaqtini (kishi/soati, kishi/kunini) jamlab shu guruhdagi qurilish ishlarini bajarish uchun belgilangan umumiy vaqt fondiga nisbatan solishtirish orqali aniqlasa ham bo'ladi.

Aytaylik qurilish ob'yektining loyiha-smetasi bo'yicha umumiy qiymati 3 mlrd. 98 mln so'm. Resurs smetalari bo'yicha sarflanadigan vaqt birligi yig'indisi (t) 287808 kishi/soat.

Haqiqatda pudratchiga to'langan mablag' 930 mln. so'm. Barcha guruhlar bo'yicha bajarilgan ishlar hajmi 63300 kishi/soatiga teng.

Taqqoslash uchun to'langan mablag' va bajarilgan ish hajmining foizdagi miqdorini quyidagi formulalardan foydalanib topamiz:

1). Mablag' hajmi:

$$\frac{D_x}{\sum D} \times 100 =$$

$\sum D$ - ob'yektining loyiha-smetasi bo'yicha umumiy qiymati;

D_x - haqiqatda to'langan mablag'.

2). Bajarilgan ish hajmi:

$$\frac{t_x}{\sum t} \times 100 =$$

4.4- jadval. _____ **ning** _____
 (OTM nomi) (hududning (ob'yekt) nomi)
qurilish ishlarini kalendar grafik bo'yicha bajarilgan ishlar va ajratilgan mablag'lar monitoringi
JADVALI

№	Loyiha smeta bo'yicha belgilangan ishlar nomi	Smeta bo'yicha umumiy qiymati (ming. so'mda)	Smeta bo'yicha ish hajmi (kishi soatida)	Yanvar				Fevral			
				Ajratilgan mablag'		Bajarilgan ish hajmi		Ajratilgan mablag'		Bajarilgan ish hajmi	
				Jami ajratilgan mablag' (ming so'mda)	Smeta bo'yicha umumiy qiymatiga nisbatan %da	Jami (kishi/soatda)	Smeta bo'yicha ish hajmiga nisbatan %da	Jami ajratilgan mablag' (ming so'mda)	Smeta bo'yicha umumiy qiymatiga nisbatan %da	Jami (kishi/soatda)	Smeta bo'yicha ish hajmiga nisbatan %da
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	Qurilish maydonchasini tayyorlash										
2	Poydevor qurilishi ishlari										
3	Devor va to'siqlar qurilishi										
4	Proemlar (deraza va eshiklar)										
5	Tom (krovlya) ishlari										
6	Pol yotqizish ishlari										
7	Suv ta'minoti, kanalizatsiya va isitish tizimi, ventilyatsiya										
8	Elektromontaj ishlari										

9	Pardozlash ishlari							
10	Tashqi muxandislik kommunikatsiyalari							
11	Jihozlash ishlari							
12	Obodonlashtirish ishlari							
13	Boshqa ishlar (binoni foydalanishga tayyorlash							
14	Jami ob'yekt bo'yicha:							

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vakili

(imzo)

(OTM nomi) ning vakili

(imzo)

Pudrat tashkiloti rahbari

(imzo)

$\sum t$ - Resurs smetalari bo'yicha sarflanadigan vaqt yig'indisi, kishi/soatda ;

t_x - bajarilgan ishlar hajmi, kishi/soatda.

Demak: To'langan mablag': $\frac{D_x}{\sum D} \times 100 = \frac{930_{млн.}}{3098_{млн.}} \times 100 = 30\%$

Bajarilgan ish hajmi: $\frac{t_{\delta}}{\sum t} \times 100 = \frac{63300k / s}{287808k / s} \times 100 = 22\%$

Ushbu natija pudrat tashkilotiga qurilish qiymatining 30% mablag' o'tkazilganligini va amalda 22% ish bajarilganini ko'rsatadi.

Pudrat tashkilotiga to'langan mablag' miqdorini bajarilgan ishlar hajmi bilan har oyda bir marta, quruvchilar mehnatiga haq to'lash bo'yicha tabel to'ldirilgan sanadan tekshirib boriladi. Pudratchi tashkilotning ajratilgan mablag'larni o'zlashtirishi va bajarilgan ishlar hajmi tahlili to'g'risidagi ma'lumot (4.4-jadvalda) mas'ul xodimlar tomonidan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan holda har oyda buyurtmachi-ta'lim muassasasi va vazirlikka taqdim etib boriladi.

Tayanch iboralar

Yagona buyurtmachi xizmati, injiniring kompaniyasi, ob'yektni loyihalashtirish, ro'yxatdan o'tkazish, qurilishini tashkil etish, mualliflik naozarati, Qurilishning bosh rejasi, kalendar reja, qurilish texnologiyasi, mablag'lar monitoringi

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yagona buyurtmachi xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Respublika "Boshdavarxitektqurilishnazorat" boshqarmasi tomonidan qanday qurilish ob'yektlari ro'yxatdan o'tkaziladi ?
3. Qurilishni tashkil etish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
4. Qurilish ishlari kalendar rejasi qanday ma'limot va ko'rsatkichlar asosida tuziladi?
5. Qurilish-ta'mirlash ishlarini sifatli o'z vaqtida bajarilishi va sarflangan mablag'larni monitoring tizimini tushuntirib bering?

V BOB. QURILISHI TUGALLANGAN BINO VA INSHOOTLARNI FOYDALANISHGA QABUL QILISH

5.1. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilishni tashkil etish

Qurilishi tugallangan binolarni foydalanishga qabul qilib olish jarayoni ShNK 3.01.04-04 – “Qurilishi tugallangan ob’yektlarni foydalanishga qabul qilib olish. Asosiy tushunchalar”ga qat’iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish jarayoni amaldagi qonunchilikka hamda iqtisodiyot tarmoqlarida ob’yektlarni foydalanishga qabul qilishning idoraviy qoidalariga amal qilgan holda tashkil etiladi.

ShNK 3.01.04-04ning 1.4. bandiga muvofiq ta’lim muassasalari (oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalari) uchun qurilgan bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish jarayoni Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tegishi idoralar hamda kasaba birlashmalari uyushmasi bilan kelishilgan “Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilishning idoraviy me’yorlari va qoidalariga”ga muvofiq amalga oshiriladi.

ShNK3.01.04-04ning 1.4. bandiga muvofiq idoraviy bo’ysinishidan qat’iy nazar qurilishi davlat byujdeti mablag’lari hisobiga amalga oshirilgan ijtimoiy soha ob’yektlari hokimiyatlar (vazirlik) tomonidan tayinlangan ***Davlat qabul komissiyasi*** tomonidan foydalanishga qabul qilib olinadi.

Davlat qabul komissiyasi qurilish ob’yekti xarakteri va murakkablik darajasidan hamda foydalanishga topshirish muddatidan kelib chiqqan holda oldindan tayinlanadi (Davlat qabuli O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladigan ob’yektlardan tashqari). Turar joy-fuqarolik (ijtimoiy soha) ob’yektlarini qabul qilish bo’yicha Davlat qabul komissiyasi kamida bir oy oldin tayinlanadi. Komissiya tarkibiga faqat komissiyani tayinlagan organ o’zgartirish kiritishga haqli.

Bino va inshootlar Davlat qabul komissiyasi qabuliga ***Ishchi komissiyasi*** tomonidan tayyorlanadi.

Ishchi komissiya ob’jekt foydalanishga tayyorligi to’g’risida bosh pudratchi tomonidan yozma xabarnoma taqdim etilganidan keyin ko’pi bilan

besh kunda buyurtmachi-ta'lim muassasasi, vazirlik buyrug'i bilan tayinlanadi.

Ishchi komissiyaga buyurtmachi vakili (xo'jalik ishlari bo'yicha prorektor, direktor o'rinbosari) raislik qiladi va uning tarkibiga binoni ekspluatatsiya qilishda qatnashuvchi tashkilotlar, bosh pudratchi, subpudratchi tashkilotlar, sanitar nazorat, yong'in xavfsizligi xizmatlari vakillari, Davlatarxitektanazorat, Davlat mehnatni muhofaza qilish inspeksiyasi, qurilishda tanlov savdolari markazi vakillari kiritiladi.

5.2. Bino va inshootlarni foydalanishga topshirishda ishchi komissiyaning vazifalari

Ishchi komissiya qurilish-montaj ishlarini qabul qilish qoidalariga, ShNK 3.01.04-04da belgilangan me'yorlarga, "Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilishning idoraviy me'yorlari va qoidalari"ga muvofiq faoliyat yuritadi.

1. Ishchi komissiyaga injiniring kompaniyasi va buyurtmachi tomonidan tuzilgan komissiyaning qurilishni amalga oshirish ustida umumiy nazorat olib borish jarayonida rasmiylashtirilgan hujjatlari topshiriladi.

Qurilish jarayonini umumiy nazorat qiluvchi komissiya tomonidan tuzilgan hujjatlar ikki guruhga bo'linadi.

a. Bekitiladigan ishlar sifatini tekshirish va qabul qilib olish dalolatnomalari (Akt skritix rabot). Qurilishda bajarilgan ish undan keyingi ishni bajarish jarayonida yopiladi, masalan gidroizolyatsiya ishlari poydevor quyish jarayonida, g'isht devorlar suvoq qilish jarayonida, armatura va metall konstruktsiyalar beton quyish jarayonida yopilib ketadi. Qurilish davomida bunday ishlarga umumiy nazorat komissiyasi berkitiladigan ishlar sifatini tekshirish va qabul qilish dalolatnomalari (Akt skritix rabot) rasmiylashtirib boradi.

b. Qurilish jarayonida ayrim ish va murakkab detallar (arkalar, kolonnalar, tayanch balkalar, rigellar va boshqalar)ning qurilishi yakunlanishi bilan ob'yekt qurilishini davom ettirishni ta'minlash maqsadida avtorlik nazorati vakillari va umumiy nazorat komissiyalari tomonidan qabul qilinadi.

Shuningdek, ob'yekt qurilishi ishlarini sifatini nazorat qilish bilan bog'liq barcha hujjatlar ishchi komissiyaga taqdim etiladi.

2. Ishchi komissiyaga Bosh pudratchi tashkilot quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) qurilish jarayonida qatnashgan tashkilot va korxonalar ro'yxati, ular tomonidan bajarilgan aniq ish hajmi va bu ishlarni bajarishda bevosita javobgar bo'lgan muxandis-quruvchi xodimlar ismi-shariflari ko'rsatilgan holda taqdim etishi;

b) loyihalashtirish tashkilotlari tomonidan tayyorlangan va ob'yekt qurilishida asos bo'lgan loyiha-smeta hujjatlari ishchi chizmalar komplektini, bu hujjatlarda shu ishlarni o'zgarishlarsiz bajarilganligi yoki o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritilgan holda bajarilganligi to'g'risida mas'ul xodimlar tomonidan tushuntirish yozuvlari bilan. Shuningdek binoning ijrodagi topografik s'emkasi, unda ob'yekt qurilishi va tashqi muxandislik kommunikatsiyalari aks ettirilgan va buyurtmachi bilan kelishilgan holda. Mazkur ishchi chizmalar ob'yektning ijro hujjatlari hisoblanadi;

c) qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan qurilish materiallari, konstruktsiyalar va detallarning sifat va qo'yilgan talablarga javob berishini kafolatlovchi sertifikatlar, texnik pasportlar yoki boshqa hujjatlarni;

d) berkitiladigan ishlar sifatini tekshirish va qabul qilib olish dalolatnomalar (Akt skritix rabot), qurilishi yakunlangan muhim konstruktsiyalar (tayanch va oraliq ko'priklar, arkalar, tayanch devorlar, tayanch metall va temirbeton konstruktsiyalar va boshqalar)ni qabul qilib olish dalolatnomalarni shuningdek, tuproq, qurilish materiallari va konstruktsiyalarini laboratoriya sinovlaridan o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni;

e) o'rnatilgan jihozlarni induvidual sinovdan o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni; ichki va tashqi quvurlar: sovuq va issiq suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti, isitish va sovitish muxandislik tizimlarini texnik tekshiruvdan o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni; bekitilgan muxandislik tizimlari (suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti, isitish)ni himoyalanganligi va maxsus qobiqlar bilan o'ralganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni;

f) telefon, radio, televideniya va aloqa tarmoqlarini (loyihada ko'zda tutilgan bo'lsa) sinovdan o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni;

g) tashqi va ichki elektr tizimlari va uskunalari sinovdan o'tkazish dalolatnomalarini;

h) yong'indan xabar beruvchi va chaqmoqqa qarshi qurilmalarni sinovdan o'tkazish dalolatnomalarini;

i) qurilish ishlarini ro'yxatga olish jurnali, loyihalashtirish tashkilotlari va injiniring kompaniyasi avtorlik nazorati qaydnomalarini, davlat va boshqa nazorat organlari tomonidan qurilish jarayonida o'tkazilgan tekshirish va nazorat hujjatlarini;

j) qurilish-montaj ishlari sifatini tasdiqlovchi kafolat pasportini taqdim etishlari shart.

Ishchi komissiya buyurtmachi bilan ob'yektni foydalanishga topshirish bo'yicha quyidagi ishlarni bajaradi:

a) bajarilgan qurilish-montaj ishlarini loyihaga muvofiqligini, shu jumladan sanitar, yong'in xavfsizligi me'yorlariga va bevosita foydalanish jarayonida mehnat xavfsizligi talablariga javob berishini tekshiradi. Bino konstruksiyalari va alohida qismlarini belgilangan talabga javob berishini tekshiradi. Zarur hollarda nazorat sinovlaridan o'tkazadi;

b) binoda o'rnatilgan mashina va jihozlarni individual sinovdan o'tkazadi, foydalanishga yaroqliligini aniqlaydi, yagona kompleks tarzda foydalanish jarayoniga tayyorligi to'g'risida va keyingi bo'limda keltirilgan shaklda qabul dalolatnomasini rasmiylashtiradi;

c) bino va inshootlardagi (ishlab chiqarish jarayonida) mashina va mexanizmlar hamda jihozlarni yagona kompleks sifatida faoliyatini sinovdan o'tkazadi va 2-ilovada keltirilgan shaklda qabul dalolatnomasini rasmiylashtiradi;

d) ob'yektni Davlat qabul komissiyasi talablari darajasida foydalanishga topshirish uchun tayyorlaydi. Binoning dastlabki quvvatlarda faoliyatini boshlashi va belgilangan muddatlarda uni to'la loyiha quvvatiga ega bo'lishi uchun barcha imkoniyatlarni o'rganib chiqib xulosalaydi;

e) qurilishi tugallangan bino yoki inshootni Davlat qabul komissiyasi tomonidan foydalanishga qabul qilinishiga tayyorligi to'g'risida 3-shaklda keltirilgan dalolatnoma rasmiylashtiradi.

5.3. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha Davlat qabul komissiyasiga taqdim etiladigan hujjatlar.

Ijtimoiy sohada bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilishda Davlat qabul komissiyasi va uning a'zolari zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Shu sababli komissiya tarkibiga tegishli koxonalarning rahbarlar va mas'ul xodimlari jalb etiladilar.

1. Buyurtmachi tashkilot tomonidan Davlat qabul komissiyasiga bosh pudratchi ishchi komissiyaga taqdim etgan hujjatlarga qo'shimcha quyidagilarni taqdim etadi:

a) ishchi komissiya tomonidan topilgan kamchiliklar va tugallanmagan ishlarni bajarilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar;

b) foydalanishga topshirilayotgan ob'yektning loyiha-smeta hujjatlari va asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot;

c) foydalanishga topshirilayotgan ob'yektning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashda ishtirok etgan loyiha-qidiruv va ilmiy izlanish tashkilotlari ro'yxati; yer maydoni ajratilganligi to'g'risidagi hujjat va Davlatarxitekhnazorat inspeksiyasi tomonidan qurilish ishlarini boshlashga ruxsatnomasi;

d) suvdan foydalanish to'g'risida maxsus ruxsatnoma;

e) qurilish geodezik ko'rsatkichlarini asoslovchi, shuningdek bajarilgan geodezik ishlar to'g'risidagi hujjatlar;

f) qurilish maydonchasining geologik va gidrogeologik ko'rsatkichlari to'g'risidagi hujjatlar, shuningdek tuproq va sizov suvlar tahlili to'g'risidagi ma'lumotlar;

g) o'rnatilgan jihozlar va mexanizmlarning pasportlari;

h) ishchi komissiya tomonidan o'rnatilgan uskunalarni sinovdan o'tkazilganligi to'g'risida (1-shakl) dalolatnomalar nusxalari;

i) foydalanishga qabul qilinayotgan binoni ishlatuvchi kadrlar bilan ta'minlanganligi, shuningdek ularga sanitar-ma'ishiy, umumiy ovqatlanish va boshqa qulayliklar yaratuvchi xonalar ajratilganligi to'g'risida ma'lumotnoma.

j) foydalanishga topshirilayotgan binoning faoliyati uchun zarur (elektroenergiya, issiqlik, suv, gaz va boshqa) moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot;

k) binodagi injinerlik kommunikatsiyalari (issiq, sovuq suv ta'minoti, isitish tizimi, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, aloqa tizimlari) normal faoliyat ko'rsatishi va xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinganligi to'g'risida shahar xizmat ko'rsatuvchi mutasaddi tashkilotlari ma'lumotlari;

l) buyurtmachi va bosh pudratchi tomonidan tasdiqlangan qurilishning haqiqiy qiymati to'g'risida ma'lumotnoma;

m) ob'yekt va jihozlarni foydalanishga topshirishga ruxsat berish to'g'risida mutasaddi davlat nazorati organlari hujjatlari;

n) ishchi komissiya tomonidan ob'yektni foydalanishga topshirish to'g'risida tayyorlangan hujjatlar jamlanmasi.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar asosida Davlat qabul komissiyasi binoni foydalanishga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qabul qilish jarayonida zarur hollarda dalolatnomalarda rasmiylashtirilgan ishlar qayta tekshiruvdan (ekspertizadan) o'tkazilishi va tegishli xulosalar ko'rilishi mumkin. Davlat qabul komissiyasi ob'yekt qurilishi va foydalanishga topshirilishi bo'yicha kamchiliklarda aybdor bo'lgan tashkilot va shaxslarga vakolati doirasida jazo belgilashga haqli.

Davlat qabul komissiyasining raisi ob'yektni foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyani tashkil etgan organ-viloyat hokimligi (vazirlik)ga quyidagilarni taqdim etadi:

- Ob'yektni foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma (3-shakl);

- Ob'yektni foydalanishga topshirishga ko'rilgan tayyorgarlik to'g'risida qisqacha tushuntirish xati. Xatda binoni foydalanishga tayyorligi to'g'risida Davlatarxitekturanazorat inspeksiyasi xulosasiga asoslangan natijalar, jumladan binodan foydalanish bo'yicha yaratilgan sharoitlar: moddiy texnika resurslari, mutaxassis kadrlar va ularni binoga xizmat ko'rsatishlari uchun maishiy-xo'jalik xonalari, umumiy ovqatlanish, turarjoy-ijtimoiy sharoitlar to'g'risida axborot beriladi;

- binoni loyihalashtirish va qurilishi bo'yicha erishilgan ijobiy natijalar va bu tajribadan foydalanishni davom ettirish, loyihaning ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risida, binodan to'la quvvat bilan foydalanishga erishish uchun imkoniyatlar yaratish yo'llari to'g'risida takliflar;

- binoni qurilishida ishlatilgan texnologik protsesslarni takomillashtirish, binoda yangi jihozlar va uskunalarni tanlash bo'yicha

takliflar;

- Davlat komissiyasi xulosasiga asoslanib komissiyani tashkil etgan organ (vazirlik, viloyat hokimligi) nomidan binoni foydalanishga topshirish to'g'risida qaror loyihasini tayyorlaydi.

Davlat qabul komissiyasi tomonidan bino foydalanishga topshirilganidan keyin ***bino to'g'risidagi hujjatlar buyurtmachi korxonada saqlanadi***. Mazkur hujjatlar asosida buyurtmachi korxona ***binoning texnik pasportini*** shakllantiradi.

5.4. Bino va inshootlarni foydalanishga topshirishda rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan dalolatnomalar namunalari.

Ta'lim muassasalari binolari ijtimoiy-ma'ishiy va madaniy maqsadlarda foydalaniladigan binolar guruhiga kiradi. Bu guruhga kiruvchi bino va inshootlar yangidan qurilayotgan, kapital ta'mirlanayotgan va rekonstruktsiya qilinayotganda foydalanishga topshirish uchun rasmiylashtiriladigan dalolatnomalar asosan uch guruhga bo'linadi.

1. Qurilayotgan bino va inshootlarda o'rnatilgan uskunalar ishchi komissiya tomonidan individual sinovdan o'tkaziladi va kompleks sinovdan o'tkazish (foydalanishga qabul qilish) tavsiya etish to'g'risida dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Agar uskunadan kompleks tarkibida foydalanilmasa bunday uskuna foydalanishga qabul qilish uchun Davlat qabul komissiyasiga taqdim etish uchun dalolatnoma tuziladi. Bunday hollarda dalolatnoma 1-shaklda (ShNK 3.01.04-04 da 1-ilova) tuziladi.

2. Binoda uskuna xizmat ko'rsatish (ishlab chiqarish) jarayonida kompleks, majmua, tizim tarkibida faoliyat ko'rsatsa bunday uskunalar kompleks sinovidan o'tkaziladilar. Bunday hollarda uskuna individual sinovdan o'tkazish dalolatnomasi (1-shakl) asosida kompleks sinovdan o'tkazishga taqdim etiladi. Ishchi komissiya ishtirokida o'rnatilgan tartibda kompleks sinovdan o'tkazilib 2-shaklda (ShNK 3.01.04-04 da 2-ilova) dalolatnoma rasmiylashtiriladi va foydalanishga qabul qilish uchun Davlat qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

3. Qurilishi tugallangan bino va inshootlar Davlat qabul komissiyasi tomonidan foydalanishga qabul qilib olinadi. Davlat qabul komissiyasi

tomonidan tuziladigan dalolatnoma 3-shaklga muvofiq (SHNK 3.01.04-04 da 7-ilova) rasmiylashtiriladi.

Birinchi va ikkinchi guruh dalolatnomalari ishchi komissiya tomonidan to'ldiriladi va asoslovchi hujjatlar ilova qilingan holda Davlat qabul komissiyasiga taqdim etiladi. Binoni to'liq foydalanishga topshirish dalolatnomasi Davlat qabul komissiyasi tomonidan to'ldiriladi.

**OB'YEKTGA O'RNATILGAN USKUNANI INDIVIDUAL SINOVDAN
O'TKAZIB QABUL QILISH BO'YICHA ISHCHI KOMISSIYA
DALOLATNOMASI**

200__ yil __

ob'yekt joylashgan manzil

ning

(ishchi komissiyani tayinlagan buyurtmachi tashkilotning nomi)

200__ yil __ dagi __-sonli buyrug'i bilan tayinlangan
ishchi kamissiya tomonidan

ANIQLANDI:

1. Bosh pudratchi

(tashkilot nomi)

Qabul qilishga quyidagi uskuna taqdim etilgan:

(uskuna nomi, tarkibiy ro'yxati, uning qisqacha texnik xarakteristikasi)

(zarur hollarda uskuna tarkibiga kiruvchi qismlar ro'yxati ilova qilinadi)

Qurilishi davom etayotgan

(buyurtmachi tashkilot nomi)

ning

Yangi qurilayotgan (kapital ta'mirlanayotgan, rekonstruktsiya qilinayotgan)
ga o'rnatilgan.

(bino yoki inshoot nomi)

2. Uskunani o'rnatish va montaj qilish ishlari

(uskunani o'rnatgan

bajarilgan.

va montaj qilgan tashkilot nomi)

3. Loyiha hujjatlari

(loyiha tashkiloti nomi,

loyiha raqami, seriyasi, ro'yhatga olingan sanasi)

tomonidan ishlab chiqilgan.

4. Uskunaning o'rnatilishi boshlangan sana:

(yil, kun, oy.)

O'rnatish va sozlash ishlari tugatilgan sana: _____
(yil, kun, oy.)

Ishchi komissiya tomonidan uskunani quyidagi qo'shimcha sinov ishlari o'tkazildi (bosh pudratchi tomonidan uskunani sozlash yakunida o'tkazilgan va ishchi hujjatlarga qayd etilgan sinov natijalaridan tashqari):

(o'tkazilgan sinov tasnifi)

ISHCHI KOMISSIYA XULOSASI:

Komissiyaga taqdim etilgan uskunaning montaj qilish ishlari loyihaga va standartga muvofiq, qurilish me'yorlari va qoidalari asosida, texnik qoidalarga amal qilgan holda o'rnatilgan va kompleks shaklida sinovdan o'tkazish uchun qabul qilishga qo'yiladigan talablarga javob beradi.

Qabul qilishga taqdim etilgan mazkur dalolatnomaning 1-bandida keltirilgan uskuna 200__yil ____ dan kompleks sinovdan o'tkazish uchun (kopileks tarkibiga kirmaydigan jihozlar foydalanishiga) qabul qilinsin.

Komissiya raisi- Buyurtmachi vakili:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
imzo

Komissiya a'zolari – tashkilotlar vakillari:

Bosh pudratchi:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
imzo

Subpudrat (montaj qilgan) tashkilot vakili _____

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
imzo

Uskunaga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
imzo

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
imzo

Davlat sanitar nazorati organi vakili:

Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Davlat yong'in xavfsizligi nazorati organi vakili:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Davlat arxitektura-qurilish nazorati organi vakili:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Mehnat muhofazasi texnik inspektori		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Boshqa nazorat qiluvchi va foydalanuvchi tashkilotlar vakillari:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	

TOPSHIRDI: Bosh pudratchi va subpudratchi tashkilot vakili	QABUL QILDI: Buyurtmachi tashkilot vakili
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
— (Imzo, muhr)	— (Imzo, muhr)

2-shakl

OB'YEKTGA O'RNATILGAN USKUNANI KOMPLEKS SINOVDAN
O'TKAZIB QABUL QILISH BO'YICHA ISHCHI KOMISSIYA

DALOLATNOMASI

200__ yil ____

ob'yeht joylashgan manzil

ning

(ishchi komissiyani tayinlagan buyurtmachi tashkilotning nomi)

200__ yil ____
dagi ____-sonli buyrug'i bilan tayinlangan
ishchi komissiya tomonidan

ANIQLANDI:

1. Uskuna

(uskuna, texnologik liniya, agregat nomi)

(zarur hollarda uskuna tarkibiga kiruvchi qismlar ro'yxati ilova qilinadi)

Uskuna

(buyurtmachi tashkilot nomi, bino raqami, bloki, xizmat ko'rsatish

ning

(ishlab chiqarish) bo'limi nomi

ga montaj qilingan.

(montaj qilingan bino, inshoot nomi)

Uskuna buyurtmachi tomonidan talab etilgan tartibda va

da

(kompleks sinov o'tkazilgan hujjat nomi)

belgilangan ishga tushurish-sozlash ishlari bajarilgan holda, barcha
kommunikatsiyalar bilan birgalikda 200__ yil ____ dan 200__
yil ____ gacha, jami ____ kun (____ soat) davomida kompleks
sinovdan o'tkazildi:

(o'tkazilgan sinov tasnifi)

2. Kompleks sinov, ishga tushurish-sozlash ishlari bilan birgalikda

(o'tkazgan tashkilot nomi)

tomonidan o'tkazildi.

3. Kompleks sinov jarayonida aniqlangan loyiha, ishlab chiqarish, montaj
qilish ishlarida aniqlangan deffektlar va kamchiliklar (zarur hollarda
dalolatnomaga ilova shaklida ma'lumot keltiriladi):

_____ tuzatildi.

ISHCHI KOMISSIYA XULOSASI:

Kompleks shaklda sinovdan o'tgan uskuna loyihada keltirilgan quvvatda, boshlang'ich davrda loyihani o'zlashtirishda talab etilgan me'yorlar darajasida xizmat ko'rsatish (maxsulot ishlab chiqarish) uchun tayyor deb hisoblansin. Uskuna 200__yil ____ dan foydalanishga qabul qilish uchun Davlat qabul qomissiyasiga taqdim etilsin.

Komissiya raisi- Buyurtmachi vakili:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Komissiya a'zolari – tashkilotlar vakillari:

Bosh pudratchi:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Subpudrat (montaj qilgan) tashkilot vakili _____

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Uskunaga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Bosh loyiha tashkiloti:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Davlat sanitar nazorati organi vakili:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Davlat yong'in xavfsizligi nazorati organi vakili:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

_____ imzo

Davlat arxitektura-qurilish nazorati organi vakili:

Familiyasi, ismi, sharifi		muhr
	imzo	
Mehnat muhofazasi texnik inspektori		
Familiyasi, ismi, sharifi		muhr
	imzo	
Boshqa nazorat qiluvchi va foydalanuvchi tashkilotlar vakillari:		
Familiyasi, ismi, sharifi		muhr
	imzo	

3-shakl

«Tasdiqlayman»

(Qaror, buyruq farmoyish raqami, sanasi,

qarorni imzolagan shaxs lavozimi

familiyasi, ismi, sharifi

(buyruq, qaror)

**QURILISHI TUGALLANGAN OB'YEKTNI FOYDALANISHGA
QABUL QILISH BO'YICHA DAVLAT QABUL KOMISSIYASI
DALOLATNOMASI**

200__ yil ____

ob'yekt joylashgan manzil

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 200__ yil, ____
dagi №____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat qabul komissiyasi
tomonidan SHNK 3.01.04-04 qoidalariga amal qilgan holda

ANIQLADI:

1. Buyurtmachi -

(ta'lim muassasasi nomi)

Qurilishi tugallangan _____
(ob'yekt nomi va qurilish turi,

yangi qurilish, rekonstruktsiya, texnik qayta jihozlash va boshqa)

ni foydalanishga topshirish ko'rsatilgan.

Ob'yekt manzili _____
(viloyat, shahar, tuman, mikrorayon,

kvartal, ko'cha, uy raqami, korpus raqami)

2. Qurilish _____
(qaror chiqargan organ: Vazirlar Mahkamasi,

ning

Vazirlik, Hokimiyat va boshqa)

200__ yil ____
dagi ____-sonli Qaroriga (farmoni, buyrug'iga)
asosan amalga oshirilgan.

3. Qurilishda bosh pudratchi _____
(bosh pudratchi tashkilot nomi)

tomonidan _____
(bajargan ish turlari)

ishlari bajarilgan,

va subpudrat korxonalar tomonidan _____
(bajargan ish turlari,

subpudrat korxonalar ko'p bo'lganda ularning nomlari va bajargan ishlar turi

ishlari bajarilgan.

ketma-ketlikda yoziladi)

4. Qurilishning loyiha hujjatlari bosh loyihalovchi tashkilot

_____ tomonidan

(tayyorlangan hujjat qismlari va bo'limlar)

ishlari bajarilgan,

va subpudrat korxonalar tomonidan _____
(bajargan hujjat qismlari,

subpodryad korxonalar ko'p bo'lganda ularning nomlari va hujjat qismlari va bo'limlar

hujjatlari tayyorlangan.

ketma-ketlikda yoziladi)

5. Loyiha tayyorlash uchun boshlang'ich ma'lumotlar _____
(ma'lumotlarni

tayyorlagan buyurtmachi, ilmiy-tekshirish, boshqaruv va boshqa, agar tashkilotlar

nomi uchtdan ko'p bo'lsa ular nomlari dalolatnomaga ilova qilib beriladi)

6. Qurilish ishlari _____
(Loyiha raqami, seriya raqami (namunaviy loyihalar uchun),

turarjoy-fuqarolik maqsadlaridagi individual loyihalar uchun loyiha asosida

qurilishga ruxsat bergan organ nomi ko'rsatiladi)

_____ (namunaviy, individual, qayta qo'llanilgan) loyiha bo'yicha amalga oshirilgan.

7. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan _____
(qurilishning loyiha

200__ yil __

№

8. Qurilish montaj ishlari quyidagi muddatlarda amalga oshirilgan:

Qurilishning boshlanishi _____
(yil,oy)

Qurilishning yakunlanishi _____
(yil,oy)

Qurilish ishlari davom etgan muddat (oylarda): _____

Reja yoki QTL bo'yicha _____ Amalda

9. Davlat qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlar taqdim etildi:

1). _____
(SHNK 3.01.04-04 bo'yicha talab etilgan hujjatlar taqdim etiladi)

2). _____

3). _____

Ko'rsatilgan hujjatlar dalolatnomaga ilova qilinishi shart.

10. Foydalanishga topshirilayotgan ob'yektning asosiy quvvat ko'rsatkichlari sig'imi, hajmi, o'quvchi o'zni, ishchi o'zni, umumiy maydoni va boshqalar (turarjoy binolaridan boshqa barcha ob'ektlar uchun to'ldiriladi) asosiy faoliyatidan kelib chiqqan holda qabul qilingan o'lchov birliklarida to'ldiriladi:

Masalan o'quv binosi:

Quvvatlari	O'lchov birligi	Loyiha bo'yicha		Amalda	
Binoning hajmi	m ³				
Umumiy maydoni	m ²				
O'quv maydoni					
...					

Loyiha bo'yicha belgilangan quvvati _____ o'quvchi o'zniga.

Amalda yaratilgan o'quvchi o'rnlari soni _____ ta.

11. Ob'yekt bo'yicha texnik va arxitekturaviy-qurilish xulosasi quyidagi ma'lumotlar asosida xarakterlanadi: _____

(binoning sig'imi,

rejalashtirilishi, qavatlar va xonalarning joylashishi, asosiy

materillar va konstruksiyalar, muhandislik va texnologik jihozlari bo'yicha qisqacha

texnik tasnif keltiriladi)

12. Ob'yektda loyihada ko'zda tutilgan uskuna va jihozlar ilovada berilgan dalolatnomalarda keltirilgan miqdorlarda va assortimentda o'rnatilgan. Ularning har birining ishlashi induvidual tekshiruvdan va kompleks sinovdan o'tkazilgan va SHNK 3.01.04-04 da keltirilgan shakldagi dalolatnomalar rasmiylashtirilgan (dalolatnomalar ilova qilinadi).

13. Loyihada keltirilgan mehnat muhofazasi, portlashga qarshi xavfsizlikni ta'minlash, yong'inning oldini olish, atrof muhitni muhofaza qilish, antiseysmik tadbirlar _____

(amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumot keltiriladi).

O'tkazilgan tadbirlar tasnifi to'g'risida ma'lumotlar ilova qilinadi.

14. Tashqi va ichki muxandislik tizimlari, sovuq va issiq suv ta'minoti va aloqa tizimlari ob'yektning normal faoliyatini ta'minlaydi va shahar xizmat ko'rsatuvchi korxonalari tomonidan foydalanishga qabul qilingan.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ma'lumotnomalari ilova qilinadi.

15. Ob'yekt atrofni ko'kalamzorlashtirish, yo'laklar, maydonchalar, sport maydonchalari yuzasini asfaltlash, shuningdek binoning tashqi fasadiga tegishli bezak ishlari quyidagi muddatlarda tugatiladi:

Ish turlari	O'lchov birligi	Ish hajmi	Bajarish muddati

16. Ob'yektning umumiy qiymati joriy narxlarda:

Jami _____

_____ ming so'm, jumladan:

Qurilish-montaj ishlari _____
_____ ming so'm.

Jihozlar, instrumentlar va inventarlar _____
_____ ming so'm.

17. Foydalanishga qabul qilinayotgan asosiy fondlar qiymati jami:
_____ ming so'm.

Qurilish-montaj ishlari qiymati _____
_____ ming so'm.

Jihozlar, instrumentlar va inventarlar qiymati _____
_____ ming so'm.

18. Ob'yektni ko'rikdan o'tkazish va taqdim etilgan hujjatlar bilan tanishishi
natijasida qabul qilingan progressiv yechimlar:

DAVLAT QABUL KOMISSIYASINING QARORI

Davlat qabul komissiyasiga taqdim etilgan _____
(ob'yekt nomi)

_____ foydalanishga qabul qilinsin.

Davlat qabul komissiyasi raisi:

Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
_____ imzo

Komissiya a'zolari – hokimiyat, vazirlik va tashkilot vakillari:

Hokimiyat vakili: _____
Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
_____ imzo

Bosh pudratchi: _____
Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr
_____ imzo

Subpudrat tashkilotlari: _____
Familiyasi, ismi, sharifi _____ muhr

Familiyasi, ismi, sharifi	imzo	muhr

Ob'yektga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar:	imzo	
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Bosh loyiha tashkiloti:	_____	
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Davlat arxitektura-qurilish nazorati organi vakili:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Davlat sanitar nazorati organi vakili:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Davlat yong'in xavfsizligi nazorati organi vakili:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Favqulotda vaziyatlar vazirligi:		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Davlat mehnatni muhofaza qilish organi vakili		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
O'zbekiston nogironlar jamiyati vakili		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati vakili		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	
Kasaba uyushmalari qo'mitasi vakili		
Familiyasi, ismi, sharifi	_____	muhr
	imzo	

5.5. Binoning texnik pasporti.

Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilib olinganidan keyin doimiy saqlash uchun Davlat qabul komissiyasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida Binoning texnik pasporti tayyorlanadi.

Har bir alohida hududda joylashgan, tayanch konstruktiv elementlari orqali boshqa bino bilan tutashmagan bino uchun alohida Binoning texnik pasporti tayyorlanadi. Bino bir nechta tutash korpuslardan, bo'limlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, mavjud binoga qo'shimcha (tutash) qurilish qilingan bo'lishi mumkin. Bunday qo'shimcha qurilish to'g'risidagi ma'lumotlar asosiy binoning texnik pasportiga kiritiladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalanilayotgan bino va inshootlarning texnik pasportidagi ma'lumotlar tarmoqlar xususiyatidan hamda bino va inshootlarning tuzilishidan kelib chiqqan holda turlicha bo'ladi.

Binolarning texnik pasportida keltiriladigan ma'lumotlar asosan uch qismga bo'linadi:

1. Bino yoki inshoot to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;
2. Binoning tuzilishi va undagi foydalaniladigan maydonlar to'g'risida ma'lumotlar;
3. Binodan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar.

1. Bino yoki inshoot to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarga:
 - bino qurilishi to'g'risida chiqarilgan qaror va uni chiqargan organ, chiqarilgan sanasi;
 - binoning qurilgan va ishga tushirilgan sanalari;
 - bino joylashgan umumiy maydon va uning tarkibiy bo'linishi;
 - binoning texnik quvvatlari to'g'risidagi ma'lumotlar (umumiy maydoni, o'quv maydoni, yordamchi maydon, mavjud o'quvchi o'rinlari va boshqalar).
 - bosh loyihachi va loyihalashtirish ishida ishtirok etgan tashkilotlar;
 - bosh pudratchi va bino qurilishida ishtirok etgan tashkilotlar va ular tomonidan bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar;
 - binoning texnik va arxitekturaviy qurilishi bo'yicha xulosalar;
 - binoning balans qiymati (qurilish ishlari qiymati, o'rnatilgan uskuna va jihozlar qiymati alohida ko'rsatilgan holda) va boshqalar moliyaviy ko'rsatkichlar kiritiladi.

2. Binoning tuzilishi va undagi foydalaniladigan maydonlar to'g'risida ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- yer maydoni va unda joylashgan binoning kadastr chizmasi, aniq chegaralari (yo'l va yo'laklar, yer, ekinzor, daraxtzor va boshqalar) ko'rsatilgan holda.

- binoning qavatlar kesimidagi kadastr chizmasi;

- binoning uskuna va inventarlar bilan jihozlanishi chizmasi (qavatlar kesimida);

- binoning ichki muxandislik tizimlari chizmasi (tarmoq va qavatlar bo'yicha:

- binoning tashqi muxandislik tizimlari chizmasi va boshqalar.

3. Binodan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'lumotlarga:

- binodagi yong'in xavfsizligi tizimi va uning tuzilishi;

- binodagi xabar berish (signalizatsiya) tizimi va ishlash printsiplari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- binoning seysmik chidamliligi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar kiritiladi.

Binoning texnik pasportiga binoda amalga oshirilgan kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritib boriladi. Binolarning texnik pasportini saqlanishi va to'ldirib borilishi uchun bosh muhandis mas'ul hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Qurilishi tugallangan bino va inshootlar, foydalanishga qabul qilish, ishchi komissiya, sinovdan o'tkazish, dalolatnoma, sanitar nazorat, yong'in xavfsizligi xizmatlari, ishlar sifatini tekshirish, ishchi komissiya xulosasi, binoning texnik pasporti,

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha ishchi komissiyaga qaysi tashkilotlar vakillari kiritiladi?

2. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha ishchi komissiyaga Bosh pudratchi tashkilot qanday hujjatlarni taqdim etishi shart hisoblanadi?

3. Ishchi komissiya buyurtmachi bilan ob'yektni foydalanishga topshirish bo'yicha qanday ishlarni bajaradi?
4. Binoning texnik pasportida qanday ma'lumotlar keltiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2011 yil 22 yanvar. 16 son.
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
3. Karimov I.A."Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2009.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 251-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va

- ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida Nizom"
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 6 maydagi "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3240-sonli Farmoni
 6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori
 7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli Qarori 6-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish ko'mitasining Davlat ekspertizasi xududiy boshkarmasi to'g'risida Namunaviy Nizom"
 8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli Qarori 6a-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish ko'mitasining Davlat arxitektura-qurilish nazorati xududiy inspeksiyasi to'g'risida namunaviy Nizom"
 9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli Qarori 7-ilovasi "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida Nizom"
 10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 dekabrda 538-sonli Qarori 6b-ilovasi "Qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish xududiy konsalting markazi to'g'risida namunaviy Nizom"
 11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrda 395-sonli "Kapital kurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori
 12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrda 395-sonli Qarori 3-ilovasi "Ob'ektlarni foydalanishga tayyor xolda kurishga doir namunaviy pudrat Shartnomasi"
 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi "Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida" 261-sonli Qarori
 14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi

- 261-sonli Qarori 1-ilovasi “Ob’ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to’g’risida vaqtinchalik Nizom”
15. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 302-sonli Qarori
 16. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli Qarori 1-ilovasi “O’zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to’g’risida Nizom”
 17. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 avgustdagi “Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 305-sonli Qarori
 18. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 dekabrda 509-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob’ektlarini ro’yxatdan o’tkazish va qurilish montaj ishlarini boshlashga ruxsatnoma berish tartibi to’g’risidagi Nizom”
 19. O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish Qo’mitasining 2001 yil 15 maydagi “Investitsiya loyixasi uchun boshlangich-ruxsat berish xujjatlarning tarkibi, ularni ishlab chikish, kelishtirish va tasdiklash to’g’risidagi Nizom”
 20. Davlat byudjeti mablag’lari hisobiga amalga oshirilayotgan binolar va inshootlarni kapital ta’mirlashni mablag’ bilan ta’minlash va aniq ro’yxatlarni shakllantirish tartibi to’g’risidagi Nizom. O’zR Moliya Vazirining 2001yil 19 sentyabrdagi 107- sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan. O’zR Adliya Vazirligida 03.10.2001y. №1073 Ro’yxatga olingan.
 21. KMK 1.03.07-96 Polojenie ob avtorskom i texnicheskom nadzore za stroitelstvom
 22. SHNK 1.04.03-05 Polojenie ob organizatsii, remonta i texnicheskogo obslujivaniya jilix domov, ob’ektov kommunalnogo i sotsialno-kulturnogo naznacheniya
 23. SHNK2.01.02-04 Pojarnaya bezopasnost zdaniy i soorujeniy
 24. KMK2.03.10-95 Krishi i krovli
 25. KMK2.04.01-98 Vnutrenniy vodoprovod i kanalizatsiya zdaniy
 26. KMK2.04.05-97 Otoplenie, ventilyatsiya i konditsionirovanie
 27. KMK2.04.07-99 Teplovie seti

28. KMK2.04.08-96 Gazosnabjenie. Norma proektirovaniya
29. SHNK2.04.09-07 Pojarnaya avtomatika zdaniy i soorujeniy
30. KMK2.08.04-04 Administrativnie zdaniya
31. SHNK3.01.01-03 Organizatsiya stroitelnogo proizvodstva
32. KMK3.01.02-00 Texnika bezopasnosti v stroitelstve
33. SHNK3.01.04-04 Priemka v ekspluatatsiyu zakonchennix stroitelstvom ob'ektov
34. KMK3.01.08-99 Organizatsiya proizvodstva kapitalnogo remonta
35. KMK3.01.09-97 Pravila priemki v ekspluatatsiyu zakonchennix kapitalnim remontom jilix i obshestvennix zdaniy i soorujeniy
36. SHNK4.13.52-04 Akademicheskie litsei i professionalnie kolledji
37. IKN 1-05 Srednee spetsialnie uchebnie zavedeniya - Akademicheskie litsei i Professionalnie kolledji
38. Posobie po kompleksnoy sxeme osushestvleniya realizatsii investitsionnix proektov po kapitalnomu stroitelstvu ob'ektov na territorii Respubliki Uzbekistan
39. Chistov L. Ekonomika stroitelstva, 2-e izd. Uchebnik dlya VUZov./-SPb: Piter, 2003. - 640 s.
40. Boyko M. D. Texnicheskoe obslujivanie i remont zdaniy i soorujeniy: Spravochnoe posobie. - M.; Stroyizdat, 2003.
41. Akimov V.V., Ogay K.A., Merzlyakov V.F., Makarova T.N. Ekonomika otrasli (stroitelstvo). Infra-M, 2005.
42. Ikonnikova A.V., Upravlenie proektami v stroitelstve. Uchebnoe posobie. NGASU, 2002.
43. Usikova N.I., Nemchikova L.A., Texnologiya stroitelnogo proizvodstva. Novosibirsk, NGASU, 2004.
44. Pravila i normi texnicheskoy ekspluatatsii jilishnogo fonda /MJKX. - M.: Stroyizdat, 2006.
45. Koretskiy V. I. Osnovi metodiki razrabotki resursnix norm v stroitelstve. «Ekonomika stroitelstva», № 5, 2006.

1-Ilova

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil
15 noyabrdagi 251-son qaroriga 2-ilova**

**O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga
kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning
amalga oshirilishi ustidan davlat
monitoringi to'g'risida
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom “Chet el investitsiyalari to'g'risida”, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2005 yil 26 iyuldagi PQ-136-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizomning amal qilishi ular uchun qonun hujjatlarida amalga oshirish va monitoring olib borishning alohida tartibi belgilangan loyihalarga tatbiq etilmaydi. (O'zR VM 03.01.2007 y. 5-son Qarori tahriridagi xat boshi)

2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi (keyingi o'rinlarda "Monitoring" deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini boshqarish va nazorat qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

3. Monitoring:

vazirliklar, idoralar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan - Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari bilan birgalikda, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda xorijiy investitsiyalar jalb etilgan korxonalar tomonidan tashabbus ko'rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan - Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda "Muvofiqlashtiruvchi kengash" deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Quyidagilar:

respublika investitsiya dasturiga kiritilgan va birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

davlat boshqaruvi organlarining, investitsiya jarayoni boshqa qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning investitsiya loyihalarini, ular to'liq tugallangunga qadar, amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni o'z vaqtida hal etish yuzasidan javobgarligini oshirish;

investitsiya loyihalari harakatiga ularni amalga oshirishning barcha bosqichlarida to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va o'rganish, ularni, shu jumladan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil masalalarni ko'rib chiqish muddatlarini o'zgartirish yo'li bilan, bartaraf etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish;

investitsiya loyihalari tasdiqlangan hajmlar va muddatlarga qat'iy rioya qilingan holda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va vakolatli banklar tomonidan mablag'lar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi ustidan nazorat qilish;

investitsiya loyihasi bo'yicha xorijiy sheriklar oldida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishiga ko'maklashish;

investitsiya muhitini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar va takliflar bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirish monitoringning asosiy vazifalari hisoblanadi.

5. Aniq dasturga va O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining tarkibiy qismi bo'lgan investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan investitsiya loyihalari monitoring ob'yekti hisoblanadi.

II. INVESTITSIIYA LOYIHALARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR BANKINI YARATISH

6. Investitsiya dasturi belgilangan tartibda tasdiqlangan vaqtdan boshlab bir oy muddatda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek investitsiya loyihalari tashabbuskorlari bilan birgalikda investitsiya loyihalarining aniq dasturiga, shuningdek investitsiya dasturining tarkibiy qismi bo'lgan ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan loyihalar bo'yicha ma'lumotlar bankini (keyingi o'rinlarda "Ma'lumotlar banki" deb ataladi) shakllantiradi.

7. Ma'lumotlar banki:

investitsiya loyihasining tashabbuskori tomonidan tasdiqlangan investitsiya loyihalarining aniq dasturiga kiritilgan investitsiya loyihasi pasporti;

har bir investitsiya loyihasini amalga oshirishning investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan reja-jadvallari;

ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan investitsiya takliflari bo'yicha ishlab chiqiladigan yangidan boshlanayotgan ustuvor investitsiya loyihalarini olg'a surish chora-tadbirlari dasturi;

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan har oyda taqdim etiladigan axborot asosida shakllantiriladi.

8. Investitsiya loyihasi pasporti mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha tuziladi va unda investitsiya loyihasi tashabbuskori, xorijiy sherik, loyihaning umumiy qiymati va barpo etilayotgan ishlab chiqarishning loyihadagi quvvati, mahsulotni eksport qilish, mablag' bilan ta'minlash manbalari va sxemasi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar, loyihaning qoplanish va qarz mablag'larni qaytarish muddatlari to'g'risidagi axborotlar, shuningdek, zarurat bo'lganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxona bo'yicha ma'lumotlar bo'ladi.

9. Reja-jadval mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha tuziladi va unda yangi tashkil etilayotgan korxonaning texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish (zarurat

bo'lganda), asosiy kontrakti tuzish va ro'yxatdan o'tkazish, investitsiya loyihasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorini kelishish va qabul qilish, kredit bitimlarini imzolash, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash, milliy va xorijiy valyutada mablag' bilan ta'minlashni boshlash, ishlab chiqarish maydonlarini va infratuzilma ob'ektlarini qurish, texnologiya asbob-uskunalarini o'rnatish, korxonaning loyihadagi quvvatga chiqishi bo'yicha aniq muddatlar to'g'risidagi axborotlar bo'ladi.

10. Chora-tadbirlar dasturi mazkur Nizomga 3-ildavaga binoan Xalqaro moliya va iqtisodiy institutlar hamda donor mamlakatlar ishtirokida Investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish reglamentiga muvofiq ishlab chiqiladi va investitsiyalashdan oldin investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini tasdiqlash va mablag' bilan ta'minlashning aniq manbalarini belgilashgacha bo'lgan ishlar kompleksini (ularni bajarishning prognoz muddatlarini ko'rsatgan holda) o'z ichiga oladi.

11. Investitsiya loyihasining tashabbuskori hisobot oyidan keyingi oyning 3-kunidan kechikmay har oyda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga kelishilgan shakl bo'yicha investitsiya loyihasi amalga oshirilishi reja-jadvalining bajarilishi to'g'risida axborot taqdim etadi.

12. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi har oyda:

xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish to'g'risida Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan yig'ma statistika axboroti bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan;

markazlashtirilgan investitsiyalardan, shu jumladan Hukumat kafolati ostida jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan foydalanish bo'yicha - Moliya vazirligi va tijorat banklari tomonidan;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha - Adliya vazirligi tomonidan;

xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalari paketini xorijiy investorlarga sotish, mulkida davlat ulushi bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati bo'yicha - Davlat mulki qo'mitasi tomonidan;

kichik va xususiy biznes sohasidagi, shu jumladan jalb etilayotgan xorijiy kredit liniyalari ishtirokidagi, investitsiya loyihalari bo'yicha - Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tomonidan;

loyiha ko'rsatkichlari (loyihadagi quvvatni ta'minlash, eksportni ta'minlash, yangi ish o'rinlari barpo etish) investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan bajarilishi yuzasidan - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan taqdim etiladigan axborotlar asosida Ma'lumotlar bankini yangilab boradi.

13. Ma'lumotlar bankiga Investitsiya dasturida nazarda tutilgan kapital qo'yilmalar hajmlari prognozi belgilangan tartibda aniqlashtirilish natijalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tuzatishlar kiritilishi mumkin.

III. MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH

14. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari, Moliya vazirligi (O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Moliya vazirligi qarz oluvchi sifatida ish ko'radigan qarzlar bo'yicha), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qabul qilingan qarorlariga, shuningdek tasdiqlangan reja-jadvallarga muvofiq investitsiya loyihalari amalga oshirilishi ishlarining holatini shu jumladan joyning o'ziga chiqib muntazam ravishda o'rganadi.

Bunday ishni tashkil etish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi turli vazirliklar va idoralar yoxud xalqaro tashkilotlar va konsultatsiya kompaniyalari mutaxassislarini jalb etishi mumkin.

15. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan monitoring:

investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etiladigan tasdiqlangan reja-jadvallarning bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risidagi yig'ma statistika axborotini;

mavjud va potentsial xorijiy investorlar faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ularning takliflarini o'rganish asosida vaqti-vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muhiti sharhini;

manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etiladigan tezkor axborotlarni;

markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

16. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan:

tasdiqlangan reja-jadvallar bajarilishini, loyihalarni amalga oshirish yuzasidan zarur ishlar kompleksini olib borishning texnologik izchilligiga rioya etilishini nazorat qilish;

texnik-iqtisodiy asoslashlarning asosiy qoidalarini ko'rib chiqish, loyihalarni amalga oshirish mumkinligi yuzasidan umumiy qarorlar qabul qilish;

alohida yirik loyihalar, shu jumladan texnik-iqtisodiy asoslashlar ko'rsatkichlariga nisbatan loyihalarning qimmatlashishi yoki arzonlashishi mumkinligini hisobga olgan holda bazaviy loyihalashtirishni tasdiqlash;

markazlashtirilgan manbalar hisobiga ajratiladigan mablag'larning o'z vaqtida moliyalashtirilishini va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlash, Hukumat kafolati ostida jalb etiladigan qarz mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi ta'minlanishini nazorat qilish;

manfaatdor vazirliklar va buyurtmachi idoralar tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyot qismlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlarini, shuningdek ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga kirib borishi bo'yicha marketing dasturlarini ekspertizadan o'tkazish;

ayrim strategik muhim va yirik loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari, qurilishi amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda amalga oshirilayotgan loyihalarni mablag' bilan ta'minlashni to'xtatib qo'yish, shuningdek Investitsiya dasturi bajarilishi barbod bo'lishiga yo'l qo'yuvchi vazirliklar va idoralar, korxonalar va buyurtmachi tashkilotlarning rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini o'z vaqtida ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi boshqa asosiy masalalarni ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

IV. MONITORING NATIJALARINI KO'RIB CHIQISH

17. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va vakolatli banklardan olingan ma'lumotlar asosida investitsiya dasturining amalga oshirilishi to'g'risida yig'ma axborot tayyorlaydi.

Yig'ma axborotda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar bilan bir qatorda vazirliklar, idoralar va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari bo'lgan korxonalar va

tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan investitsiya loyihalari va takliflarini amalga oshirishning asosiy bosqichlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar:

investitsiyalashdan oldingi tadqiqotlarning o'z vaqtida o'tkazilishi, texnik-iqtisodiy asoslashlar va loyiha-smeta hujjatlarining ishlab chiqilishi to'g'risida investitsiya loyihalari tashabbuskorlaridan olingan axborot;

texnik-iqtisodiy asoslashlar va loyiha-smeta hujjatlari vakolatli ekspertiza organlari tomonidan ekspertiza qilinganligi to'g'risidagi axborot;

investitsiya loyihalarining mablag' bilan ta'minlashning tasdiqlangan sxemalariga muvofiq o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanishi to'g'risidagi axborot;

qurilish-montaj ishlarini bajarish va ob'yektlarni ishga tushirish muddatlariga va texnologik izchilligiga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot;

Hukumat kafolati ostidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan kredit mablag'laridan foydalanish va ularni qaytarish muddatlari va shartlariga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot (banklar);

investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan loyihalarni investitsiya loyihalarining aniq dasturiga kiritish uchun asos hisoblanadigan loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishida ifodalangan investitsiyalash shartlariga rioya qilinishi to'g'risidagi boshqa axborot;

Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni asoslagan holda takliflar mavjud bo'ladi.

18. Investitsiya dasturini amalga oshirishning yig'ma tahlili, shuningdek qo'shimcha tahliliy axborot asosida, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:

shakllanayotgan yo'nalishlarni o'rganib chiqadi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlarni aniqlaydi, xorijiy investorlar uchun mavjud imtiyozlar va preferentsiyalar tizimining samaradorligini tahlil qiladi;

investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqadi;

investitsiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan Hukumat qarorlarini tayyorlash ishlarini tashkil etadi;

Iqtisodiyot vazirligi tomonidan taqdim etiladigan axborot asosida iqtisodiyotning ustuvor sektorlari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun eng muhim ishlab chiqarishlar ro'yxatini, shuningdek jalb etilayotgan investitsiyalarni respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va mintaqalari bo'yicha maqbul joylashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi;

Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning muammoli masalalarini hal etish bo'yicha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan birgalikda takliflar tayyorlaydi;

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishuv bo'yicha qo'shimcha investitsiya loyihalarini Investitsiya dasturining aniq qismiga kiritish yoki yig'ma qismiga o'tkazish yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish uchun Muvofiqlashtiruvchi kengashga kiritadi;

investitsiya dasturini shakllantirish va uning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa ishlarni tashkil etadi.

19. Monitoring natajalari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan:

har oyda Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlariga va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga;

yilning har choragida - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga kiritiladi.

20. Zarur qarorlar qabul qilish uchun har oyda:

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari majlislarida ko'rib chiqiladi;

monitoring natijalari Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy islohotlarning borishi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariga bag'ishlangan majlislarida tinglanadi.

2-ilova

Investitsiya loyihasi
PASPORTI
(loyihaning nomi va joylashgan joyi)

- 1. Loyiha buyurtmachisi bo'lgan tashkilot -**
- 2. Loyihaning maqsadi -**
- 3. Loyihani investitsiyalash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori (agar zarur bo'lsa) -**
- 4. Hukumat kafolatlari -**
- 5. Loyiha TIA holati-**
- 6. Xorijiy sherik va investor (shu jumladan kreditor, bosh pudratchi) -**
- 7. Loyihani amalga oshirish muddatlari, shu jumladan loyihadagi quvvatga chiqish muddati (yillar) -**
- 8. Loyiha joylashgan joy -**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	TIA bo'yicha	Loyihani amalga oshirishning 200 yil 1 yavardagi amaldagi holati	Izoh
1	Loyiha tashabbusi (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)				
2	Loyihaning umumiy qiymati	mln. AQSH dollari			
	joriy narxlar (sh.j. ekvivalent)				
	EMVda (ekvivalent)				
3	EMVdagi xarajatlar, hammasi	mln. AQSh dollari			
	sh.j. asbob-uskunalar xarid qilish va boshqalar uchun				
3.1	Milliy valyutadagi xarajatlar, hammasi (ekvivalent)	so'm/ AQSh dollari			
	sh.j. qurilish-montaj ishlari va boshqalar uchun				
4	Moliyalashtirish manbalari	tegishli birliklarda			
	byudjet mablag'lari				
	xorijiy kreditlar, hammasi				
	sh.j. Hukumat kafolatlari ostida				
	boshqa manbalar:				
	to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, hammasi				
	sh.j. xorijiy sherikning ustav fondiga ulushi				
	o'z mablag'lari				
	tijorat banklari kreditlari				
	boshqa manbalar				
5	Band bo'ladiganlarning mo'ljallanayotgan soni	kishi			
6	Qurilishning davom etishi, hammasi	oy			
	sh.j. qurilish boshlanadigan yil				
	qurilish tugallanadigan yil				
7	Loyihaning o'zini qoplash muddati, hammasi	yil			

	sh.j. yillar bo'yicha				
8	Qarz mablag'larini to'lash muddati, hammasi	yil			
	sh.j. yillar bo'yicha				
9	sh.j valyuta mablag'larini to'lash muddati, hammasi	yil			
10	Qarz mablag'larini to'lashning holati, hammasi	tegishli birliklarda			
	sh.j. yillar va to'lash manbalari bo'yicha				
11	sh.j. to'lovlarning muddati o'tkazib yuborilgan summasi, hammasi	tegishli birliklarda			
	sh.j. yillar va to'lash manbalari bo'yicha				
12	Korxona quvvati (nomenklatura bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning yillik hajmi)	tegishli birliklarda			
13	Olinadigan xom ashyoning mavjudligi va hajmlari	tegishli birliklarda			
	sh.j. yillar bo'yicha				
14	Loyihani mahalliy lashtirish darajasi, hammasi	%			
	sh.j. yillar bo'yicha				
15	Eksport hajmi (mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlar eksporti hajmi) va uning nomenklaturasi	tegishli birliklarda			
16	Mahsulotni sotishning mo'ljallanayotgan bozorlari:				
	ichki bozor	%			
	tashqi bozor	%			
17	Loyiha bo'yicha vakolatli ekspertiza organlari xulosasi (xatlar tartib raqami) 1. Moliya vazirligi - 2. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi - 3. Iqtisodiyot vazirligi - 4. Bank -	%			

"Tasdiqlayman"

Korxona, muassasa rahbari

_____ (F.I.O.)

200__y. _____ " _____ "

Investitsiya loyihasini amalga oshirish**REJA-JADVALI**

(loyiha nomi, tashabbuskor)

T/r	Loyihani amalga oshirish bosqichlari	Boshlash sanasi (yil, oy)	Tugatish sanasi (yil, oy)
1	Loyiha tashabbusi (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)		
2	Loyihaning TIA ni ishlab chiqish tasdiqlash		
3	Xorijiy sherik, investor, bosh pudratchini va boshqalarni tanlab olish bo'yicha tender o'tkazish (sana va hujjatlar tartib raqami)		
4	Yangi tashkil etilayotgan korxonani, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani (zarurat bo'lsa) ro'yxatdan o'tkazish (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)		
5	Asosiy kontraktni tuzish, kelishib olish va ro'yxatdan o'tkazish (kim tomonidan, sana va hujjatlar tartib raqami)		
6	Moliyalashtirish shartlarini, shu jumladan mablag' bilan ta'minlovchi institutlar (banklar) bilan tuziladigan kredit bitimlari shartlarini belgilash		
7	Loyiha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorini qabul qilish (agar talab qilinsa)		
8	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, kelishib olish va tasdiqlash		
9	Milliy valyutada mablag' bilan ta'minlashni boshlash		
10	Xorijiy valyutada moliyalashtirishni boshlash		
11	Qurilish-montaj ishlarini bajarish		
12	Texnologiya asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, o'rnatish va ishga tushirish-sozlash		
13	Ishlab chiqarishni boshlash va loyihadagi quvvatga chiqish		

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. BINO VA INSHOOTLAR QURILISHINI HAMDA MAVJUD BINOLARNI REKONSTRUKTSIYA QILISH VA KAPITAL TA'MIRLASH ISHLARINI TASHKIL ETISH.....	5
1.1. Qurilishi rejalashtirilayotgan binolarni davlat investitsiya dasturiga kiritish tartibi.....	5
1.2. Qurilishi rejalashtirilayotgan binoning dastlabki qiymatini yiriklashtirilgan ko'rsatkich usulida hisoblash.....	13
1.3. Bino va inshootlar qurilishiga boshlang'ich-ruxsat beruvchi hujjatlarni tayyorlash.....	20
1.4. Bino va inshootlar qurilishiga loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash...	24
II BOB. KAPITAL QURILISH SOHASIDA TANLOV SAVDOLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH.....	30
2.1. O'zbekistonda kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar.....	30
2.2. "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom" va tanlov savdolarini tashkil etishning asosiy qoidalari.....	31
III BOB. BINO VA INSHOOTLAR QURILISHINI, REKONSTRUKTSIYA QILISH VA KAPITAL TA'MIRLASH ISHLARINI MOLIYALASHTIRISH.....	54
3.1. Bino va inshootlar qurilishini mablag' bilan ta'minlash manbalari va mablag' bilan ta'minlovchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar	54
3.2. Kapital qurilish ishlarini tashkil etishda shartnomalar tuzish tartibi va shartlari.....	56
3.3. Bino va inshootlarni foydalanishga tayyor holda qurishni tashkil etish.....	61
3.4. Investitsiya loyihasini mablag' bilan ta'minlash jarayoni.....	62
3.5. Kapital qurilish jarayonida qatnashchilar o'rtasida o'zaro hisob- kitob qilish tartibi.....	66
IV BOB . QURILISH JARAYONINI BOSHQARISH.....	68
4.1. Yagona buyurtmachi xizmati - injiniring kompaniyalari va ularning vazifalari.....	68
4.2. Qurilish ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnoma olish tartibi.....	72

4.3. Qurilish-ta'mirlash ishlarini tashkil etish va qurilish jarayonini nazorat qilish.....	74
4.4. Qurilish ishlari kalendar rejasini tuzish va uning asosiy ko'rsatkichlari.....	80
4.5. Qurilishda bajarilgan ishlar hajmi va pudratchiga to'lanayotgan mablag'lar monitoringini olib borish.....	90
V1 BOB. QURILISHI TUGALLANGAN BINO VA INSHOOTLARNI FOYDALANISHGA QABUL QILISH.....	96
5.1. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilishni tashkil etish.....	96
5.2. Bino va inshootlarni foydalanishga topshirishda ishchi komissiyaning vazifalari.....	97
5.3. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha Davlat qabul komissiyasiga taqdim etiladigan hujjatlar.....	100
5.4. Bino va inshootlarni foydalanishga topshirishda rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan dalolatnomalar namunalari.....	102
5.5. Binoning texnik pasporti	116
Foydalanilgan adabiyotlar.....	119
1-ilova. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida NIZOM.....	123
2-ilova. Investitsiya loyihasi pasporti.....	130
3-ilova. Investitsiya loyihasini amalga oshirish reja-jadvali	133